

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

JAHON TARIXI

(o‘rta asrlar davri)

Ma‘ruzalar to‘plami

Samarqand – 2017

Jahon tarixi (oʻrta asrlar davri). Maʼruzalar toʻplami. (Tuzuvchilar: Sirojiddin Usarov, Sardor Umarov) Samarqand 2017. 124-bet.

Ushbu maʼruzalar toʻplami universitetning tarix fakulteti talabalariga moʻljallangan boʻlib, unda jahon tarixida muhim iz qoldirgan ayrim Sharq mamlakatlarining oʻrta asrlar davri tarixi yoritilgan. Mavzular “Oʻrta asrlar tarixi” fanining namunaviy va u asosida ishlab chiqilgan ishchi-oʻquv dasturidan kelib chiqib olindi.

Tuzuvchilar:

Sirojiddin Usarov – SamDU “Jahon tarixi” kafedrası katta oʻqituvchisi

Sardor Umarov - SamDU “Jahon tarixi” kafedrası oʻqituvchisi

Masʼul muharrir:

tarix fanlari nomzodi, dotsent **M.M.Hoshimova**

Taqrizchilar:

tarix fanlari nomzodi, dotsent **M.R.Rahmatullayev**

tarix fanlari nomzodi, dotsent **R.S.Mardonov**

SamDU oʻquv-uslubiy kengashining 2017-yil 27-martdagi 3-son yigʻilishi bayonnomasi bilan nashrga tavsiya qilindi.

MUNDARIJA:

- 1-mavzu: Sosoniylar davlati.....
- 2-mavzu: Arab xalifaligi: tashkil topishi, taraqqiyoti va parchalanishi
- 3-mavzu: XI-XV aslarda Xitoy.....
- 4-mavzu: Yaponiya (XII asr oxiridan XVI asr oxirigacha)
- 5-mavzu: XIII-XV asrlarda Hindiston.....
- 6-mavzu: Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq davlatlari rivojlangan oʻrta asrlarda
- 7-mavzu: Moʻgʻullar davlatining tashkil topishi. Moʻgʻullarning rus va Yevropaga yurishlari.....

MAVZU: SOSONIYLAR DAVLATI

Reja:

1. *Sosoniylar tarixi bo'yicha manbalar*
2. *Sosoniylar davlatining tashkil topishi, dastlabki sosoniylarning ichki va tashqi siyosati.*
3. *III-V asrlarda Eronning ijtimoiy tuzumi va din.*
4. *Xushrav I hukmronligi davrida Eron.*
5. *Sosoniylar hukmronligining tugashi.*

Tayanch atama va iboralar: *kohinlar, jangchilar, ulamo (o'qimishli kishi)lar, shahanshoh, mobedan-mobed, eran-spaxbed, dagirbed, vazrug, vazurg-framadar, zardushtiylik, moniylik, Mazdak ta'limoti, "olov qizi", "yomg'ir qizi", "olam to'ng'izi".*

Sosoniylar davlatining tashkil topishi, dastlabki sosoniylarning ichki va tashqi siyosati

Sosoniylar davlati III asrning boshida o'z davrining eng qudratli davlatlaridan sanalgan Parfiyaning parchalanishi natijasida tashkil topdi. Sosoniylar davlatining tarkibiga u eng kuchaygan paytda Eronning barcha hududlari, Mesopotamiya, hamda Hindistonga tutash sharqiy yassi tog'li hududlar kirardi. Sosoniylar imperiyasining asosiy aholisi sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan. Shuningdek, mamlakatning tog'li tumanlarida ko'chmanchi chorvadorlar yashab, ular chorvachilik bilan shug'ullanardi. Davlatda mavjud bo'lgan shaharlarning asosiy qismi mamlakatning g'arbiy qismida joylashgan edi. Ularning eng kattasi, poytaxt Ktesifon shahri edi. Sosoniylar davlatida mavjud bo'lgan shaharlar o'z davrining yirik hunarmandchilik markazlari sanalgan. Shu boisdan ham ushbu shaharlarda yaratilgan hunarmandchilik mahsulotlari dunyoga mashhur bo'lgan. Ayniqsa, ajoyib gazlama va qurollar yuqori sifati bilan nom qozongan edi.

III asr boshida hozirgi Eron hududi Parfiya qo'l ostida nomigagina birlashtirilgan edi. O'zaro ichki kurashlar va Rim bilan urushlar mamlakatni kuchsizlantirdi. Eron yerlarini yangitdan birlashtirish Fors viloyatidan boshlandi. Forsdagi Darabgerd qal'asining hukmdori Ardasher (sosan urug'idan) bir necha hokimliklarni birlashtirib, Eronni janubiy yarmida boshqaruvini o'z qo'liga oldi.

Sosoniylar sulolasi asoschisi va dastlabki hukmdori Ardasherning bobosi Soson Fors davlati poytaxti-Istaxr shahridagi bosh ibodatxonaning kohini bo'lgan. 208-yilda Parfiya davlati ikki qismga bo'linib ketadi. Keyinchalik yana bir necha mayda davlatlarga ajralib ketdi. Bundan Eronning janubig'arbida joylashgan fors qabilalari foydalanib, Soson boshchiligida Istaxr shahrida hokimiyatni egallab oladilar. Ardasher I Parfiya podshosi Artabon V (209-224) ning vassali Darabgerd hokimi saroyida xizmat qilgan. Milodiy 200-yillarga kelib ushbu qal'a hokimi bo'lgan. U tez orada butun Fors, Kirmon va Geyni o'ziga tobe etgan hamda zodagonlar va ruhoniylar yordamiga tayanib Artabon V ga qarshi chiqqan. 224-yilning 28-aprel kuni Ardasher Ormizdagon tekisligida Artabon V ni mag'lub etdi. Ikki yil o'tgandan so'ng tantanali tarzda toj kiydi va shaxonshox unvoniga ega bo'ldi. U o'zining bosqinchilik siyosatida ruhoniylar va urug' zodagonlarining qo'llab-quvvatlashidan keng foydalangan. U Midiya, Ozarbayjon, Siyeston, Xuroson, Marv vohasini o'ziga buysundirdi. Natijada mamlakatning chegaralari shimolda Kaspiybo'yi viloyatiga, janubda Fors ko'rfaziga, sharqda Qobul daryosi vodiysiga borib yetdi. Frot daryosi bo'ylarini egallanishi davlatni Rim bilan ham qo'shni bo'lib qolishiga olib keldi. Ardasher yangi davlatning poytaxtini Istaxr shahridan Dajla daryosining ikki qirg'og'i bo'ylab joylashgan Ktesifonga ko'chirdi. 230-yilda Ardasher I o'z qo'shinlari bilan Mesopotamiya va Kichik Osiyoga bostirib bordi. Bu joylar Rim saltanatiga qaram edi. 232-yili Rim imperatori Aleksandr Sever katta qo'shin bilan Shimoliy Mesopotamiyaga yurish qiladi. Ardasher I qo'shinlari Rim legionlari bilan uzoq vaqt mobaynida qonli urushlar olib bordi. Ardasher I Mesopotamiya va Armanistonga egalik qilish uchun Rim imperiyasi bilan Sharqda olib borgan urushlari natijasida Sosoniylar davlati hududi kengayishi bilan tugadi.

Yangi tashkil topgan podsholikda quldorlik tizimi inqirozi boshlanib, feodal munosabatlar jadallik bilan rivojlandi. V asrning oxiriga kelib feodal munosabatlarning belgilari yanada yorqin namoyon bo'la boshladi.

Sosoniylar davlati tashkil topgan kundanoq faol tashqi siyosat olib bordi. Rim va uning vorisi Vizantiya bilan qarama-qarshilikka borishiga iqtisodiy omillar davlatni majbur etdi. Xususan, Sharq bilan G'arbni bog'lagan savdo yo'llari ustidan hukmronlikka intilish uchun ikki tomon ham Kavkaz orti mamlakatlarini egallashga xarakat qildi. Armaniston va Gruziyani (G'arbiy Gruziya – Lazika, Sharqiy - Kartli) ni egallanishi Eronni Qora dengizga olib chiqdi. Ikki daryo oralig'i va Armaniston uchun Rim bilan urushni Ardasher

boshlab bergan, uning o'g'li Shopur I (241-272) davom ettirdi. U bir necha katta g'alabalardan so'ng Kichik Osiyoga kirib keldi, 256-yilda Antioxiya egallandi, 260-yilda Rim qo'shini mag'lubiyatga uchratildi. Naqshi Rustam bitiklarida bu jangda imperator Valerian asir tushganligi yozib qoldirilgan. Shopur I ning tashqi siyosatdagi faoliyati bu bilan cheklanib qolmadi. Uning qo'shinlari 262-263-yillar davomida Suriya, Armaniston, Shimoliy Mesopotamiya hududlarini bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Shopur I sosoniy hukmdorlar orasida birinchilardan bo'lib turon hududiga ham bosqinchilik yurishlarini uyushtirdi. Bu davrda mazkur hududda hukmronlik qilayotgan Kushon davlati tarkibida bo'lgan Hirot, Seyiston, Marv, Girkaniya, Kushonshahr kabi viloyat va shaharlar sosoniylar tomonidan bosib olindi. Shuningdek, Shopur I mamlakatda bir qator islohotlarni ham amalga oshirdi. Qurilish ishlarining yaxshi yo'lga qo'yilishi orqali irrigatsiya inshootlarining soni ortdi. Mamlakatda yangi shaharlar bunyod etildi.

Undan keyin hukmronlik qilgan sosoniy hukmdorlar tarixda sezilarli iz qoldira olmadi. Buni uning hukmronligidan keyin 20 yil davomida mamlakatni uch sosoniy hukmdor idora qilganligi ham tasdiqlaydi. Forslarga qarshi urushga o'tgan rimliklar 283-yilda sosoniylarning poytaxtiga yaqinlashib qoladi. Poytaxtni egallashidan Imperatorning o'limigina asrab qoldi. 298-yilda Nisibinda bo'lgan jangda forslar yana mag'lub bo'ldi. O'rtada imzolangan Nisibin tinchlik shartnomasiga ko'ra Armaniston va Mesopotamiyaning shimoliy qismidagi beshta provinsiya Rimga berildi. Ikki davlat 40 yilga tinchlikka kelishib oldi.

Rim-Eron urushlaridagi yangi bosqich Shopur II (309-379) davrida boshlandi. Shopur II sosoniylar davlatini eng uzoq vaqt idora qilgan hukmdor sifatida tarixda qolgan. Uning hukmronlik davri qaysidir jihatdan tinimsiz urushlar bilan o'tdi. U g'arbda Rim imperiyasiga qarshi kurash olib bordi. Uning mustaqil tarzda davlatni boshqarishininig dastlabki yillari zodagonlarga qarshi kurashish, keyingi yillari esa davlatni kengaytirish va chegaralarni mustahkamlash bilan o'tdi. Shu maqsadda Fors ko'rfazidagi urushqoq arab qabilalariga qarshi urush olib bordi va Baxrayinni egalladi.

Eron bilan Rimning aloqalari xristianlikninig tarqalishi bilan bog'liq holda kechdi. IV asrning boshiga kelib bir qancha davlatlar (301-303-yillarda Armaniston, keyinroq Gruziya va Shimoliy Ozarbayjon) xristian dini bilan tanishdi va rasmiy dini sifatida qabul qildi. Armanistonda xristian dinini tarqalishi o'z-o'zidan uni Rimga qaram qilardi. Mamlakatdagi zodagonlar o'rtasida bo'linish bo'ldi. Bir guruh zodagonlar Rimga qo'shilish tarafdori

bo'lsa, boshqasi Eron bilan yaqinlashish tarafdori edi. 338-yilda Shopur II Rimga urush e'lon qildi va Armaniston va Shimoliy Mesopotamiyaga bostirib kirdi. Forslar g'alabaga osonlik bilan erishdi. Birinchi g'alabadan so'ng Shopur o'z qo'shinini g'arbdan olib mamlakatning shimoli-sharqiy chegaralariga tashladi. Bu yerda u xioniylardan mag'lub bo'ldi va ular bilan ittifoq tuzishga majbur bo'ldi. 363-yilda Eronga qilgan omadsiz yurishida imperator Yulian vafot etdi. Uning o'rniga saylangan imperator Eron uchun foydali bo'lgan shartnoma imzolashga majbur bo'ldi. 387-yilda imzolangan yangi tinchlik shartnomasiga ko'ra, Armaniston va Gruziya ikki hududga bo'lindi. Armanistonning g'arbiy qismi imperator boshqaruviga, sharqiy (Persarmeniya-Forslar Armanistoni) qismi Eronga berildi. Lazika Rim imperatori boshqaruvi ostiga, Kartli Eron ixtiyoriga o'tdi.

Ikki davlat o'rtasidagi tinchlik aloqalari ikkita qisqa urushni e'tiborga olmaganida butun V asr davomida saqlanib qoldi. Shimoldan kirib kelgan ko'chmanchi xalqlarning (xunlar) tazyiqi ikki mamlakatni ularga qarshi birlashishga majbur etdi. Ular birgalikda Kavkaz yo'lini himoya qilishga kelishib olishdi. Unga ko'ra Eron Kavkaz va Alan darvozasini mustahkamladi. Vizantiya qal'a qo'shinlari sonini oshirib, mudofaani kuchaytirdi.

Shopur II ning o'limidan so'ng 20 yil davomida toju taxt kohinlar va zodagonlarning xohishiga ko'ra bir necha shaxslar tomonidan boshqarildi. 399-yilda saroydagi o'zaro urushlarga chek qo'ygan Yazdigard I (399-420) taxtni egalladi. U sosoniy hukmdor Shopur III ning o'g'li bo'lib, Baxrom IV (388-399) ning vafotidan so'ng hokimiyatga keldi. Yazdigard I hukmronligining dastlabki davrda siyosiy vaziyat diniy masala bilan bog'liq bo'ldi. Aynan uning davridan boshlab zardushtiylik dini Sosoniylar imperiyasida keng yoyildi.

Tashqi siyosatda Yazdigardning asosiy maqsadi Armaniston hududlarini bo'ysundirishdan iborat edi. 414-yil Armaniston hukmdori Vramshapuxning vafot etishi bilan hokimiyat uning o'g'li Artashes qo'liga o'tdi. Shu davrdan boshlab ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi.

Yazdigardning asosiy tayanchi xalqning boshqa tabaqalari-hunarmandlar, savdogarlar, xristianlarning ta'sirli shaxslari bo'ldi. Yazdigard I Shopur II dan farqli ravishda Eronda xristian dinining tarqalishiga cheklovni bekor qildi, cherkovlar qurilishiga ruxsat berdi.

Xristian diniga ta'qib Baxrom V Go'r (421-438) (Uning sevgan mashg'uloti go'r (qulon) ovi bo'lganligi uchun ham u tarixda Go'r laqabini olgan) davrida qaytadan qo'yildi. Baxrom yoshligida Yaman podshohi No'mon va uning o'g'li Munzir tarbiyasida o'sgan. Yazdigard zulmidan bezor bo'lgan xalq u vafot etgandan so'ng, Ardasher nasliga mansub Xusravni mamlakat taxtiga ko'taradi. Bu voqeadan xabar topgan Baxrom lashkar tortib Eronga keladi. U otasining xatolarini takrorlamaslik va mamlakatda adolat, tinchlik o'rnatishga o'z a'yonlari va xalq oldida qasamyod qiladi. An'anaviy shartga muvofiq ikkita sherni o'ldirib, ular o'rtasidagi tojni oladi va podshohlik taxtiga o'tiradi. Aynan uning davrida Eronda juda ko'p dehqonlarning ish hayvonlari, qurollari, urug'lari yo'q edi. Xonavayron bo'lgan jamoa a'zolari yerlarni tashlab ketib, xazar qilinadigan hunarmandchilik va boshqa kasblar bilan mashg'ul bo'lganlar, ko'pincha daydilarga aylanganlar. Viloyatlar hukmdorlari Baxromga juda ko'p arznomalar bilan murojaat qildi, qishloqlar huvillagan, hayvonlar egasiz sang'ib yurgan, dalalarni o't-o'lanlar bosib ketgan. Dehqon xo'jaligining bir qismi xonavayron bo'lishi oqibatida mamlakat iqtisodiyoti zaiflashdi.

Uning davrida Eronda zardushtiylik dinini mustahkamlash va keng yoyish maqsadida yangi-yangi otashkadalar qurildi. Nestorianlik (xristianlikdagi oqimlardan biri) qattiq ta'qib ostiga olindi. Bu xarakat o'z navbatida 423-424-yillarda Eron va Vizantiya o'rtasida urushni keltirib chiqardi. Urushda Vizantiyaning g'alabasi nestorianlikka qarshi qaratilgan siyosatni bir oz susaytirdi. Mamlakat ichki siyosatida mavjud aristokratiyaning mavqeyi o'sib bordi. Ular mamlakat siyosiy hayotida hal qiluvchi o'ringa erishdi. V asrning 30-yillarida Ozarbayjon va Xuroson sasoniylar davlati tarkibiga qo'shib olindi. Uning davrida Eronga shimol va shimoli-sharqdan xalqlarning hujumi kuchaydi. Baxrom V Marvdagi jangda eftaliylarni yengdi va mamlakat chegarasini Amudaryogacha yetkazdi.

Yazdigard II ning hukmronlik yillari (438-457) Armanistonni qaytarish va u yerda zardushtiylikni mustahkamlash bilan o'tdi. Muxtoriyat talab qilgan Armaniston isyon ko'tardi. Arman hokimlari (naxarar) Vizantiyaning ko'magisiz bu ishni amalga oshira olmas edi. 451-yildagi ularning qo'zg'oloni bostirildi. Ammo, Armanistonga muxtoriyat va xristian diniga e'tiqod qilish huquqi berildi. Eftaliylar bilan kurashlar davom etdi. Talekon va Balxdagi hal qiluvchi janglarda ular tor-mor keltirildi. Hukmdor u yerda Shaxriston-i-Yazdigard qal'asini bunyod etdi.

Yazdigard II ning o‘limidan so‘ng ikki yillik o‘zaro urushlardan keyin, taxtga uning o‘g‘li Pero‘z (459-484) o‘tirdi. Uning davrida davlat og‘ir ahvolda qolgan edi. Ichki ahvolni tashqi dushman hujumi xavfi yanada og‘irlashtirib yubordi. Shunday bo‘lsa ham shahanshoh chegara qo‘shinlarini mustahkamlashni va uchta qal’a qurishni buyurdi. U Marv vohasini egallab, Hirot ostonalariga kirib kelgan eftaliylarga qarshi uzoq jangga kirdi. Biroq asirga tushib qoladi. Sosoniylar Vizantiyaga yordam so‘rab murojaat qildi va eftallar Vizantiya uchun ham tahdid ekanini uqtirdi. Vizantiya hukmdori tovon to‘lab, Pero‘zni tutqinlikdan xalos etdi. Pero‘z eftaliylarga Tolqon chegara shahrini topshirishni va’da qildi, biroq o‘z va’dasini ustidan chiqmay, 481-yilda ikkinchi marta harbiy yurish uyushtirdi. Pero‘z bu safar ham mag‘lubiyatga uchradi va eftaliylarga o‘zining Kubod ismli go‘dak o‘g‘lini tutqun etib qoldirdi hamda ikki yil davomida katta tovon to‘lab turish majburiyatini oldi. 484-yili Pero‘z o‘zining uchinchi harbiy yurishini amalga oshiradi. Bu gal u o‘z qo‘shini bilan birga eftaliylar tayyorlagan maxsus tuzoq “bo‘ri o‘rasi”ga tushib qolib halok bo‘ladi. Eftaliylar Pero‘z qo‘shinini batamom tor-mor qilgach, Eron xalqi zimmasiga katta miqdorda o‘lpon to‘lash majburiyatini yuklatadilar hamda Marv shahrini ishg‘ol etadi. So‘ngra ular Qobul vodiysi va Panjobni egallab, Qoroshar, Kuchu, Qashqar va Xo‘tanni istilo qilishdi. Shu tariqa eftaliylar Markaziy Osiyo, Sharqiy Eron, Hindistonning Shimoliy qismi va Sharqiy Turkistonni o‘z ichiga olgan yagona qudratli davlat barpo etadi. Lekin, Sosoniylarning sharqiy chegaralaridagi vaziyat tinchib qolmadi. Aholi quyi qatlamining qo‘llab-quvvatlashi natijasida Kavkaz ortida qo‘zg‘olon boshlandi. Qo‘zg‘olonga Kartli podshosi Vaxtang Gargasal va arman yo‘lboshchisi Vagan Mamikonyan boshchilik qildi. Ular Pero‘zning vorislarini yon bosishga majbur qildi. Shahanshoh Valash (Balash) (484-488) Armaniston, Kartli va Albaniya zodagonlari bilan bu mamlakatlarga muxtoriyat berish va xristianlik (monofizit) diniga e‘tiqod qilish hamda zodagonlarning huquqlarini tan olish bo‘yicha shartnoma imzoladi. Valashning xazinasini bo‘shab qolganligi uchun u qo‘shin to‘play olmadi. Hukmronligining katta qismini Valash boshqa bir kichik ukasi Zarex bilan o‘zaro kurashlarda o‘tkazdi. Oxir-oqibat u hukmronlikka qobiliyatsizligi uchun eftaliylar davlati tahdidi bilan taxtdan tushirildi. Valashning to‘rt yillik hukmronligidan so‘ng taxtni Pero‘zning o‘g‘li Kubod (Kavad) (488-531) egalladi.

III-V asrlarda Eronning ijtimoiy tuzumi va din

Sosoniylar davlatida qadimdan mavjud bo'lib kelgan aholining tabaqalanishida o'zgarishlar ro'y berdi. Agar Sosoniylargacha Qadimgi Eronda erkin kishilar uch toifaga - kohinlar, jangchilar, dehqonlarga bo'lingan bo'lsa, IV asrga kelib aholi to'rt guruhga: kohinlar, jangchilar, ulamo (o'qimishli kishi)lar, soliq to'lovchilar – raiyatga bo'lindi. Ular tepasida Shahanshoh turgan. Unga zardusht kohinlari boshlig'i – mobedan-mobed, qo'shin qo'mondoni eran-spaxbed, ulamolar boshlig'i - dagirbed, soliq to'lovchilar tabaqasi boshlig'i - vastrioshan-salarlar davlatni boshqarishda yaqin hamkor va yordamchilar bo'lgan.

Tabaqalar ham o'z ichida ierarxik tarzda bo'lingan. Ruhoniylarning oliy toifasini mobedlar tashkil etgan. Ular hududlardagi maglar (zardo'sht kohinlari) faoliyatini nazorat qilib borgan. Mobedan-mobed hukmdordan keyingi birinchi o'rinda turgan. Harbiy tabaqada eran-spaxbeddan so'ng shahdor – viloyatlarning yarim mustaqil hukmdorlari o'rin egallagan bo'lib, ular podsho xonadoni vakillari xisoblangan. Keyingi tabaqada vispuxrlar - Eronning qadimiy urug'i turgan. Ular muhim harbiy va davlat lavozimlarini merosiy tarzda egallagan. Keyingi o'rinda vazrug (buzrug)lar turgan. Ular qo'shin va ijro hokimiyatida ma'sul lavozimlarni egallagan. Harbiy tabaqaning asosini ko'p sonli ozodlar tashkil etib, Eron qo'shinining otliq askarlari yadrosi aynan ulardan iborat bo'lgan. Ulamolar tabaqasiga davlat xizmatchilari kirgan. Xususan, kotib, diplomatik hujjat va xatlarni to'plovchi, podsho biografi, tabib, astrolog, tarjimon va boshqalar kirgan. To'rtinchi – raiyat tabaqasiga bo'lsa dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar mansub bo'lgan.

Mamlakat aholisi ijtimoiy tabaqalanishining eng quyi bo'g'ini qullardan tashkil topgan edi. Bir qulning mamlakatdagi o'rtacha narxi 500 dirxamga teng bo'lgan. Davlatda jinoiy ishga qo'l urgan har qanday aholi qullikka duchor qilingan. Aholini erkinlikka chiqarishning murakkab shartlari mavjud edi. Qullar ma'lum shartlar asosida mulkka ega bo'lishlari, shartnomalar tuzishlari mumkin bo'lgan. Shuning bilan birga mamlakatda “qisman ozodlikka chiqish” tizimi mavjud bo'lib, unga asosan qul o'zi ishlab chiqargan mahsulotni ma'lum qismini olgan. Qullarning bir qismi jamoaga tegishli edi. Qul mehnatidan asosan irrigatsiya va ziroat ishlarida keng foydalanilgan. Vaqtlar o'tishi bilan qishloq xo'jaligida ulardan foydalanish asta-sekin kamayib borgan.

Yerga egalik munosabatlari yangidan shakllana boshladi. Tarixiy manbalarda sosoniylar sulolasi hukmronligi davrida yerga egalikning “dastkard” nomli turi ko‘p tilgan olingan. Ushbu yerlar asosan yirik mulkdorlar qo‘lida bo‘lib, unda ko‘pincha qullar mehnat qilardi. O‘z navbatida mamlakatning yirik yer egalarini hukmdor, zodagonlar va ruhoniylar tashkil etgan. Qishloqning erkin aholisi qatlami qishloq jamoa dehqonlaridan iborat bo‘lgan. Ammo qishloq jamoalari yerlarida unumdorlikning o‘shishi bilan hukmron qatlam vakillari soliqlarni ham oshira boshladi. Bu esa o‘z navbatida erkin dehqon jamoalarining sekin-asta majburiyat o‘tovchi tabaqaga aylanib borishiga olib keldi.

Davlat qurilishi. Davlat tepasida Shahanshoh (podshohlar podshosi) turgan. Merosxo‘rlikning qat’iy tartibi yo‘q bo‘lsa ham, ammo davlat boshlig‘i albatta sosoniylar xonodonining vakili bo‘lishi shart edi. Sosoniylar davlatida taxtni meros qoldirish “zinapoya” tartibida bo‘lgan. Unga ko‘ra agar aka ukaga taxtni meros qoldirsa, ukasi o‘zidan so‘ng taxtni akasi o‘g‘illariga meros qoldirgan.

Ma’muriy boshqaruv tepasida vazurg-frames (vazir-farmonдор) turib, u qat’iy belgilangan vazifasini bajargan. Markaziy hukumatning asosiy g‘amxo‘rlik qiladigan sohasi armiya, moliya va sug‘orish ishlari edi. Moliyaviy muassasalar soliqlar yig‘ish va jamoalarga tegishli ishlar bilan shug‘ullangan. Viloyatlar ularning tepasiga qo‘yilgan mahalliy hokim va hukmdorlar tomonidan boshqarilgan, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hududlar fors va parfinlarga mansub bo‘lgan oliy imtiyozli tabaqa vakillar tomonidan, ularning shaxsan Shahanshoh tomonidan uning vakili sifatida tayinlanishi orqali idora qilinardi, eng muhim va ahamiyatli hududlarga, masalan, O‘rta Osiyo bilan chegaradosh viloyatlarga podshoh xonadonining vakillari hukmdor qilib tayinlangan.

Sosoniylar davrida din. Sosoniylar davriga kelib davlat dini sifatida zardushtiylik belgilandi. Yangi sulolaning dastlabki shahanshohlari zardushtiylar kitobi Avestoning matnini to‘plash va tahrir qilish to‘g‘risida farmon berdilar va bu Shopur II davrida (309-379) tugallandi. Ushbu diniy matnlardan tashqari, falakiyotga, huquq, ahloq va boshqa sohalarga oid matnlar kiritildi. Avestoning qadimgi matni Sosoniylar davrida ko‘pchilik aholiga tushunarsiz bo‘lganligi uchun, keyinchalik unga maxsus izohlar tuzildi. Bu izohlar “Zend” (zand) nomini olgan.

Zardushtiylikning asosida dualizm - dunyoning yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmatdan iborat ekanligi va ular o‘rtasidagi to‘xtovsiz

kurashdan iboratligi yotadi. Bu kurash yorug'lik xudosi Axuramazda va zulmat xudosi Axriman o'rtasida bo'lib, kurashning oxirida yaxshilik, ezgulik, yorug'lik g'alaba qiladi. Inson bu kurashda Axuramazda tomonida turib ishtirok etishi kerak.

Zardushtiylarning har bir qishloq, shahar va viloyatda ibodatxonalari bunyod etildi. Kohinlar nafaqat diniy amallarni bajarishgan balki, ular qo'lida ta'lim berish va sud qilish huquqi ham jamlangan edi. Shuningdek, ular meros masalasida ham hal qiluvchi rol o'ynagan. Shu boisdan ham III-V asrlarda yangi diniy ta'limotlarga xalq orasida intilish kuchli bo'ldi.

Moniylik va uning ijtimoiy ahamiyati. Bu ta'limotning asoschisi Moniy 215-yilda Bobilda tug'ilgan va o'zining targ'ibotini 241-242-yillarda Ktesifonda boshlagan. Moniylik g'oyasining asosida ham xuddi zardushdiylikka o'xshab dualistik g'oya yotadi, ya'ni hayot boshlanishining ikki asosini: yorug'lik va zulmat, yaxshilik va yomonlikni tan olish, dunyo mana shu ikki asosning kurashidan iborat va olam taraqqiyotining oxirgi maqsadi yorug'likning g'alabasidir.

Moniylik dini asketizm (hayot noz-ne'matlaridan vos kechish) ni targ'ib qiladi: inson taomlarni iste'mol qilishdan o'zini tiyishi, axloqiy sof turmush tarzi kechirishi kerak. "Alohida", "saralangan" kishilar uyulanmasliklari va hatto o'simliklarni ham yulmasliklari kerak. Moniy fikriga ko'ra, yangi ta'limot mavjud diniy ta'limotlarning o'rnini bosadigan umumiy diniy qarash bo'lishi kerak edi. Shuning uchun ham u boshqa dinlardagi ibodat va an'analarni (urf-odatlarini) erkin o'zlashtira boshladi. Moniychilar asketizmni boylar va hukmron sinflarga qarshi qo'ydi.

Sosoniylar avvaliga moniylikning tarqalishiga unchalik monelik qilmadilar, ammo keyinchalik moniylikni targ'ibotining davlat va cherkovga qarshi qaratilganligi ma'lum bo'lgandan so'ng hukumat tomonidan bu oqim tarafdorlari qattiq quvg'inga olindi. Moniyning o'zi 276-yilda zardusht kohinlari tomonidan qatl etildi. Uning tarafdorlari yashirinishga majbur bo'lib, G'arbda va Vizantiyada panohtopdilar. Ammo bu yerda ham moniychilarni ta'qib etish Erondagidan kam bo'lgan emas. Moniylikka qarshi ruhda yozilgan xristian adabiyotlarining ko'pligi bu ta'limotning katta ta'sir kuchiga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Moniylikning ayrim tomonlarini keyinchalik Yevropada tarqalgan albigoychilar va Bolgariyada tarqalgan bogomillik xarakati kabi dahriy va sekstantlik harakalarida namoyon bo'ldi.

Eronda xristianlar. III-IV asrlarda Eronning Mesopotamiya, Xuziston va boshqa hududlarida xristian dini tarqaldi. Avval boshda Eron hukmdorlari

rimliklar ichkarisida o'z ittifoqchilariga ega bo'lishga umid qilib, mamlakatda juda ko'p xristianlarga boshpana berdilar. Lekin bu uzoq davom etmadi. Xristianlik Sosoniylarga dushman bo'lgan Rimning rasmiy diniga aylangach, ular quvg'in qilindilar va Eron hududlari xristian diniga muxolifatda bo'lgan turli dahriylik ta'limotlarini quvvatlay boshladilar.

Mazdak ta'limoti. Eronni boshqargan sosoniylar sulolasi hukmronligi davrida yirik ijtimoiy-siyosiy xarakatdan biri Mazdak ta'limoti bo'ldi. Mazdakiylik diniy-ijtimoiy ta'limot bo'lib, uning nomi ta'limotning rahbari va g'oyaviy asoschisi Bomdodning o'g'li Mazdak nomi bilan bog'liq. Ta'limot asoschisi Mazdak fors viloyatining Fesa shahridagi Zardusht-i Xurakon ibodatxonasining kohini bo'lganligi uchun ba'zida bu ta'limot zardushtakan nomi bilan ham ataladi. Mazdak o'z ta'limotida zardushtiylik, moniylik, ellin dunyosi falsafiy qarashlari va xristian dini sektalarining g'oyalarini jamladi. Ushbu xarakat ayniqsa mamlaktni 488-496, 499-531-yillar davomida idora qilgan sosoniy hukmdor Kubod davrida butun mamlakat bo'ylab keng yoyildi. Kubod zodagonlar va kohinlarning siyosiy va iqtisodiy qudratini zaiflashtirish maqsadida mazdakiylik xarakatini qullab quvvatladi. Ularning dasturiga mos keladigan bir qancha islohotlar o'tkazdi. 496-yilda bir guruh zodagonlar Kubodni taxtdan ag'darib, uning o'rniga ukasi Yamaspni (496-499) taxtga ko'tardilar. Kubodning o'zi eftaliylar hukmdori Axshunvar huzuriga qochib bordi. Keyinchalik bevosita eftaliylarning yordami evaziga taxtni qaytarib olishga erishdi. Shundan so'ng zodagonlarga qarshi qaratilgan siyosatini davom ettirgan holda mazdakiylik tarafdorlariga yuqori mansablar berdi.

Mazdakiylikning asosiy xarakatlantiruvchi kuchi xonavayron bo'lgan jamoatchi dehqonlar hamda hunarmandlar edi. Xarakatga vaqtincha qo'shilgan ozodlar va dehqonlar ham katta yordam bergan. Mazdakiylik Eron mahalliy aholisining siyosiy xarakatiga aylandi. 488-yili Mazdak tomonidan ilgari surilgan diniy falsafiy ta'limot moniylik va zardushdiylik bilan mustahkam aloqada edi. Mazdakiylikning moniylikdan prinsipial farqi yorug'likdan qorong'ulik, yaxshilikning yomonlik ustidan g'olib chiqishiga bo'lgan qat'iy ishonch edi. Bu g'alaba narigi dunyoda emas, bu dunyoda sodir bo'ladi. Yorug'lik kuchlari ongli ravishda, yomonlik kuchlari ongsiz, stixiyali ravishda g'alabasiga ko'maklashishi kerak deb xisoblangan. Yerdagi yomonlik ildizini quritish mumkin. Yaxshilik va yomonlik timsoli mulkiy tenglikda yaqqol ko'rinib turibdi. Aynan u birinchi navbatdayoq qilinmog'i darkor. Mazdakiylik xarakati sinfiy zulumkorlikka qarshi qaratilgan edi.

Mazdakiylik xarakati qatnashchilarining asosiy talabi bu - mulkni qayta taqsimlash, bu sohada tenglik o'rnatish, huquqiy tenglikni ta'minlash edi. Tortib olingan yer jamoa mulkiga qaytarilib berilishi lozim edi. Bu xarakatdan yuqori tabaqa vakillari, hatto shahanshoh Kubod I ning o'zi ham foydalanib qolishga xarakat qildi. Kubod bu yo'l bilan zodagonlar qudratini sindirishga uringan edi. U armiyaning asosini tashkil etgan ozodlar va dehqonlar bilan ham xisoblanishga majbur edi. Mazdakiylik eski davlat ijtimoiy asoslariga qarshi kurashdilar. Ular kasta va tabaqalar tugatilishini talab qildi. Ularning asosiy yo'nalishlariga ko'ra, qon to'kish mutlaqo mumkin emasdi. Shunga qaramay mazdakiylar xarakati ishtirokchilariga raqiblari qarshilik ko'rsatgudek bo'lsalar, ularni o'ldirishga ruxsat berilgan. Xarakat natijasida mamlakatda mavjud bo'lgan quldor zodagonlarning katta qismi qirib tashlandi. Ularning iqtisodiy qudratiga zarba berildi, kastaviy-tabaqaviy imtiyozlari bekor qilindi. Mazdakiylar xarakati birinchi navbatda yirik zodagonlarga qarshi qaratilgan edi. Xarakatdan keladigan asosiy foyda ozodlar va dehqonlar hissasiga to'g'ri keldi. Biroq xarakat davomida ijtimoiy kurash jamoa ichida ham rivojlanib ketdi. Barcha jamoa a'zolarining teng huquqligi ozodlar g'azabini keltirib chiqardi. Shu sababli ham ulardan iborat armiya xarakat dushmanlari lageriga o'ta boshladi. Undan tashqari Kubod 502-506-yillarda Vizantiya ustidan qilgan g'alabasi tufayli munosabatini o'zgartirib, u ruhoniylar va zodagonlar bilan kelushuv yo'liga o'tdi, chunki ular endi Shahanshoh uchun xavfli bo'lmay qolgan edi. G'alaba tufayli u xazinani to'ldirib, mavqeyini tiklab olishga erishgan edi. Xarakatdan ozodlar va dehqonlarning chiqib ketishi uni ancha zaiflashtirib qo'ydi. Dehqonlar otryadlari dastlabki g'alabalardan keyinroq uy-uylariga tarqalib ketardilar. Xarakat muvaffaqiyatsizlikga uchray boshladi. Kubod vaziyatdan foydalanib, mazdakiylar bilan bog'liq amaldor va maslahatchilarni lavozimlaridan chetlatgan, keyinroq ular quvg'in ostiga olingan. Bu jarayonga mazdakiylar va zardushtiylar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchilik ham sabab bo'ldi. Uzoq vaqt davom etgan mazdakiylar xarakati 529-yilga kelib to'liq mag'lub etildi. Mazdakiylik xarakatining mag'lub etilishida Xusrav I Anushirvonning hissasi katta bo'ldi.

Xushrav I hukmronligi davrida Eron

Xushrav I islohotlari. Eron sosoniylar davlati o'z taraqqiyotining cho'qqisiga Xusrav I Anushirvon (531-579) hukmronligi davrida erishdi.

Xusrav I Anushirvon hukmronligi davrida mamlakatda bir qator islohotlar o'tkazdi. Mamlakatni markazlashtirishga xarakat qildi. Yuqorida yuz bergan xalq xarakati hukmron sinfga eski boshqaruv usulini saqlab qolish mumkin emasligini ko'rsatdi. Shu boisdan ham tarixiy adabiyotlarda "O'lmas" nomini olgan yangi sasoniy hukmdor Xusrav I Anushirvon davlat rivoji va hukmdor hokimiyatini mustahkamlanishiga turtki bergan islohotlarni o'tkazishga xarakat qildi. Xalq xarakati paytida bosib olingan yerlarning katta qismi davlat ixtiyoriga o'tkazildi.

Soliq islohoti. Xusrav I Eron tarixiga yirik islohotchi sifatida kirdi. Davlat yerlari egalik munosabatlarini rivojlantirib, yer solig'ini tartibga soldi. Xusravning islohotiga qadar yer solig'i-xarag natura shaklida olingan bo'lib, uning miqdori hosilning $\frac{1}{8}$ dan $\frac{1}{3}$ qismigacha bo'lgan. Uning buyrug'i bilan ekin ekiladigan hamma yerlarning xisobi olinib, yiliga 2 marta olinadigan yer solig'i o'rnatildi. Moliya amaldorlari bo'lgan mirzala, yerlardan olinadigan hosilni tubdan tekshirib chiqib, har yili hosilga qarab soliq miqdorini belgilaydigan bo'ldilar. Islohot natijasida soliq yer maydoni yoki ayrim mevalar uchun esa tub soniga qarab belgilanadigan bo'ldi. Yer solig'i to'lash uchun o'lchov birligi sifatida 1 garib (tax. 0,2-0,3 ga) olindi. Yer solig'i shunga asosan xisoblangan. Masalan, 1 garib maydonda bug'doy yoki arpa ekan odam 1 dirxam soliq to'laydigan bo'ldi. To'rt tub xurmo yoki olti tub zaytun daraxti uchun esa 7 dirxam, 1 garib uzumzor uchun 8 dirxam soliq solingan. Yer solig'idan tashqari jon solig'i - gezit pul bilan almashtirildi. Kohinlar, amaldorlar, harbiylar va barcha davlat xizmatidagilar jon solig'idan butunlay ozod qilindi. Lekin ular ma'lum miqdorda yer solig'i to'lab turadigan bo'lishdi. Eronning 20 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan aholisi yiliga mulkiy imkoniyatiga qarab gezitni 4, 6, 8, 12 dirxamgacha to'lashi belgilandi. Xusrav I savdogar va sudxo'rlarning pul muomilasi sohasidagi amaliy tajribasidan foydalanish maqsaddida davlat moliya bo'limiga xizmatga yolladi. U mamlakat xazinasiga tushuvchi soliqlar miqdorini tartibga solish orqali xazinaning qudratini saqlab qolishni amalga oshirdi.

Harbiy islohoti. Moliyaviy ahvolini yaxshilab olgan Xusrav I mamlakatda harbiy islohotni ham amalga oshirdi. Mamlakatda doimiy armiyaga asos soldi. Xusrav zamonasiga qadar davlatdagi jangchilar faqat urush vaqtida yig'ib olinardi. U armiyani ham tubdan o'zgartirib doimiy armiyani tuzishga erishdi. Mamlakat armiyasi yirik 12 bo'linmaga ajratildi.

Og'ir qurollangan qo'shin soni ortib, ular savaron deb nomlandi. Doimiy armiya qo'shinlariga davlat xazinasidan oylik mablag' ajratildi.

Ma'muriy-hududiy islohoti. Xusrav I ning ma'muriy-hududiy islohotiga qadar Eron ma'muriy jihatdan urug' zodagonlari va vassallar tomonidan boshqariladigan hududlarga bo'lingan. Shahonshoh mamlakatni to'rtta qismga bo'ldi. Har bir qismning boshlig'i-padospan harbiy islohot natijasida shakllangan to'rt qismning harbiy boshliqlari-ispexbedlarga bo'ysundirildi. Lavozimlarga faqat shohning ko'rsatmasi bilan ayonlar tayinlana boshladi. Barcha sud ishlari ham shohga berildi. Vazurg - framatar (bosh vazir) ning vakolatlarini qisqartirdi va uning bir qismini qolgan amaldorlarga berdi. Shunday qilib, mahalliy va yuqori amaldorlarning hokimiyatini chekladi hamda o'zining hokimiyatini mustahkamladi.

Qurilish ishlari. Mamlakatdagi yo'llarni tartibga solish bilan birga yangi yo'llar qurilishiga alohida ahamiyat berdi. Keng miqyosda amalga oshirilgan qurilish ishlari natijasida bir qancha ko'priklar qurib bitkazildi. Mamlakatda yangi shaharga asos solindi. Sug'orish tarmoqlarining soni ko'payib bir qancha kanallari ishga tushirildi. Xusrav I zamonasida kanal, damba to'g'onlar va boshqa xil inshootlari qurilishi avj oldi. Ktesifonda muxtasham bir saroy qurirdi.

Sosoniylar mamlakatidagi bunday osoyishtalik davlatda ilm-fan va madaniyatning taraqqiy etishiga imkoniyat yaratib berdi. Shahonshoh fan va san'atga homiylik qildi. Xusravni o'zi ham yunon tilini bilgan va Platon asarlarini o'qib chiqqan. U turli olimlarga hatto Yustinian tomonidan Vizantiyadan haydalgan neoplatonchi faylasuflarga ham homiylik qildi. Uning buyrug'i bilan rasmiy voqealar saroyda yilma-yil yozib borildi. Yunon, Suriya va hind tilidagi adabiy asarlar tarjima qilindi. Shuning bilan bir qatorda uning hukmronligi davrida hind tilida yaratilgan bir qancha ilmiy asarlar paxlaviy tiliga tarjima qilindi. Eron davlati hududiga shaxmat o'yini kirib keldi va keng yoyildi.

Xusrav I ning tashqi siyosati. Mamlakat ichki hayotida bir necha muhim islohotlarni amalga oshirish bilan birga Xusrav I faol tashqi siyosat ham olib bordi. Uning hukmronligi davrida Eron sosoniylari davlati tashqi siyosatni bir necha yo'nalishda olib bordi. Birinchi navbatda u davlat chegaralarining xavfsizligiga ahamiyat qaratdi. Tashqi siyosatda bir necha yillar davomida Vizantiya, shuningdek eftaliylar, Yaman davlatlariga qarshi urushlar olib bordi. Tashqi siyosatning eng muhim nuqtasi bu Vizantiya bilan aloqalar edi. Hali Xusrav hokimiyatni egallamasdan avval 526-531-yillar davomida

Vizantiya bilan urush yuz berdi. Faqatgina uning hokimiyatga kelishdan keyin, 532-yilda Vizantiya bilan «Abadiy tinchlik» to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Ammo 540-yilga kelib sosoniy hukmdor ushbu shartnomani buzdi ya'ni Vizantiyaning qo'shinlari g'arbda va Shimoliy Afrikada bosqinchilik yurishlarida ekanligidan foydalangan eronlik askarlar mamlakat hududiga bostirib kirdi. 542-yilda sosoniylar qo'shini Antioxiyaga bostirib kirdi. Tez orada Xusrav I Antioxiyadan asir olinganlarni "Xisrav Antioxiyasi" atrofiga joylashtirdi. Vizantiya bilan olib borilgan ushbu urush to'xtab-to'xtab 20 yildan ortiq davom etdi. Mesopotamiya va Kavkazorti hududlari ham eronlik askarlar tomonidan egallandi. Ushbu olib borilgan urush har ikkala davlatni ham og'ir ahvolga solib qo'ydi. 561-yilga kelib ikki davlat o'rtasida 50 yilga mo'ljallangan sulh imzolandi. Unga ko'ra, ikki davlat o'rtasida eski chegaralar qayta tiklandi. Biroq 570-yilda bu shartnoma Xusrav I qo'shinlarining Yamanni bosib olishi natijasida buzildi. Bu holat Eron va Vizantiya o'rtasida yana urush chiqishiga sabab bo'ldi. Bu galgi urush 20 yil davom etdi. Xusrav I bu urushda flotdan ham foydalanishga xarakat qildi. Ammo Vizantiya bilan urushni nihoyasiga yetkazish Xusrav I ga nasib etmadi.

Sosoniylarning bu davrda tashqi siyosat yo'nalishidan yana biri eftaliylar davlatiga qarshi qaratilgan edi. Xusrav I 560-yildan boshlab eftaliylar davlatiga qarshi keng miqyosda harbiy xarakatlarni boshlab yubordi. Bu yurishlarda u turk xoqonligi bilan faol diplomatik aloqalar olib bordi. Xusrav I turk xoqonligining ko'zga ko'ringan shaxslaridan biri Istemining qiziga uylanish orqali qarindoshlik rishtalarini o'rnatdi. Turklarning yordami bilan sosoniylar o'z davlati chegaralarini Amudaryogacha cho'zilishiga erishdi. Ammo Xusrav I ning hukmronlik davri doim ham tinchlikda o'tmadi. Uning davrida mamlakatning bir qator hududlarida qo'zg'olonlar ro'y berdi. Ana shunday qo'zg'olonlardan biri 572-yilda Armaniston va Iberiya yerlarida ko'tarildi. Qo'zg'olonchilar bevosita Vizantiya imperatori tomonidan qo'llab-quvvatlandi. 576-yilda sosoniylar qo'shini Melit ostonalarida mag'lubiyatga uchradi. Xusrav vafot etganidan so'ng hokimiyat tushkinlikga yuz tuta boshladi.

Sosoniylar hukmronligining tugashi

579-yilda Xusrav I Anushirvonning vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Xurmuzd IV (579-590) keldi. Xurmuzd IV ning hukmronlik yillari Vizantiya

bilan to'xtovsiz urushlar, xazar va turklarga qarshi harbiy yurishlar, amaldorlar, zardusht kohinlari va xristian aholiga qarshi kurashlar bilan o'tdi. Xurmuzd IV hududiy manfaatni ko'zlab, Vizantiya va turklar bilan urushni davom ettirdi, ammo uning qo'lga kiritganlari forslar foydasiga emasdi. Vizantiyaliklar Armaniston va Kavkazning katta qismini forslardan tozalab, Mesopotamiya chegarasidagi ko'plab qal'alarni egalladi. Bir vaqtning o'zida turklar ham butun Xorazmni egallab, Girkaniyagacha bordi va Kaspiy qirg'oqlariga chiqdi. 589-yil kuz-qish faslida bo'lgan janglarda eronliklarning qo'li baland kelib, turklar ustidan g'alaba qozondi. Ayni vaqtda Xurmuzdning shafqatsiz va bebosh hukmronligi oqibatida Eronda ham ko'plab isyonlar yuzaga kelib, ittifoqchilar va vassallarning uzoqlashishiga olib keldi. Sosoniylar imperiyasi qobiliyatli qo'mondon Bahrom Chubin tarix sahnasiga chiqqan vaqtda inqiroz yoqasiga kelib qolgan edi. Feodallashayotgan zodagonlar markazga itoat etishdan bosh torta boshladi. Viloyatlarning katta hokimlari sosoniylarga qarshi uzluksiz qo'zg'olon ko'tarib turdi.

Kam sonli qo'shin bilan Bahrom Chubin Girkaniyada turklar ustidan g'alaba qozondi (588), keyin esa Amudaryoning janubiy sohilidagi qo'ldan ketgan ko'plab hududlarni qaytardi. Endi u qurolini Vizantiyaga qaratib, Martipolya yonidagi jangda g'alaba qozondi, ammo tezda Mavrikiy uni Nisibin yonida mag'lub qildi va Armanistonga haydab yubordi. Kolxidaga hujum qilishga uringan Bahrom Araks yonidagi jangda (589) mag'lubiyatga uchradi. Havas qilarli shuhrat va mashxurligining oqibatlarini anglab yetgan Xurmuzd uni qo'mondonlikdan chetlatdi, ammo Bahrom bo'ysinishdan bosh tortib qo'zg'olon ko'tardi. 590-yildagi Baxrom Chubin qo'zg'oloni eng yirik isyonlardan biri bo'ldi. Ushbu qo'zg'olon sosoniylar davlatini daxshatga soldi. 589-yilda Bahrom Chubin qo'shinlari Janubiy Ozarbayjonda joylashgan shoh Xurmuzd IV (579-590) ga qarshi yurish qildi. Huddi shu paytda poytaxtda amaldorlarning Bind va Bist boshchiligida fitnasi amalga oshirildi. Ular Xurmuzd IV ni taxtdan ag'dardi va ko'ziga mil tortdi. Taxtga uning o'g'li Xusravni o'tqazishdi. Xusrav II Parviz (590-628) yosh va o'zining qarindoshlariga buysunuvchi bo'lganligi bois Bahrom Chubinga qarshi qo'shin yubordi. Mag'lubiyatga uchragan shoh poytaxtni tashlab, Vizantiyaga qochib ketdi. Bahrom Chubin Ktesifonga kirib keldi va shoh deb e'lon qilindi. U mamlakatni bir yil boshqardi. Xurmuzdning o'g'li Chubinga qarshi urushda Vizantiya imperatori Mavrikiyga yordam so'rab murojaat qildi. Vizantiya qo'shinlari yordamida Bahrom Chubin tor-mor qilindi. Bahrom Chubin turk xoqoni huzuriga qochdi. Ammo u yerda sosoniylarning

diplomatik missiyasining borishi natijasida qatl etildi. Vizantiyaning yordami evaziga Xusrav II Parviz Vizantiyaga jiddiy yon bosishga majbur bo'ldi. 591-yilgi Eron va Vizantiya sulhiga binoan Kavkazortida (Armanistonning katta qismi (Van ko'ligacha) va Iberiyaning yarmi) gi chegara viloyatlari Vizantiya qo'liga o'tdi.

Vizantiya bilan do'stona aloqalar saqlab qolingan davrda (591-604) Eronda ichki kurashlar avj oldi. Saroy amaldori Bindning qatl etilishi natijasida, uning ukasi Xuroson noibi Bist 591-595-yillar davomida isyon ko'tardi. Bundan tashqari Gurgan, Tabariston qabilalarining isyoni va Nisibinda qo'zg'olon bo'ldi.

Vizantiya bilan do'stona aloqalarning saqlab qolinishi shohning xristianlarga nisbatan siyosatini belgilab berdi. Shu boisdan ham u cherkov va monastrlarni tiklashga hamda o'z amallari va bayramlarini nishonlashga ruxsat berdi. Xristianlardan bo'lgan tabib va tarjimonlar saroyga qabul qilindi. Xatto, vastrioshan-salar-raiyat boshlig'i ham xristian Yezdin bo'ldi.

Davlat tepasida turgan sosoniy hukmdor va ularning yirik zodagonlari ichki ziddiyatlarni tashqi urushlar yo'li bilan hal qilishga urindi. 604-yilda Vizantiya bilan yana urush boshlandi. Keyingi yillarda bo'lib o'tgan Vizantiya bilan urushlar sosoniylar davlatining zaiflashib qolganini ko'rsatib berdi.

Vizantiyada 602-yildagi qo'zg'olondan keyin Konstantinopolda Mavrikiy qatl etildi va imperatorlik taxtiga harbiylar tomonidan Foka (602-610) o'tirdi. 604-yilda Eron va Vizantiya o'rtasida navbatdagi eng katta urush boshlandi. Urushning birinchi bosqichida (622) g'alaba forslar tomonida bo'ldi. Eron tomonidan Vizantiyaga berilgan barcha hududlar - Mesopotamiya, Suriya, Armaniston qaytarib olindi, Misr egallandi va uch marta fors qo'shini Konstantinopol ostonalariga qadar yetib bordi. Urushning ikkinchi bosqichida (622-628) Vizantiya o'zining barcha yo'qotgan hududlarini qaytarib oldi. Sosoniylar qo'shinlari Vizantiya imperatori Irakliy (610-641) tomonidan tor-mor qilindi, u 628-yilda sosoniylar poytaxti Ktesifongacha yetib keldi. O'sha vaqtda sosoniylar shimoliy-g'arbiy va shimoliy-sharqiy chegaralarda Vizantiya bilan ittifoqdosh bo'lgan turk qabilalariga qarshi jang olib borishlariga to'g'ri keldi.

628-yilda Xusrav II Parvizning katta o'g'li Kubod II Sher (Kavad II) xristian (nestorian) amaldorlarning yordami bilan saroyda to'ntarish qildi va otasini taxtdan tushirib, o'zi taxtga o'tirdi. Firdavsiyning yozishicha, Kubod II Xusravning Vizantiya malikasi, Mavrikiyning qizi Mariyadan tug'ilgan

farzandi bo'lgan. U tug'ilganda ofat va kulfat keltiradi deb bashorat qilishadi. Shu boisdan ham Xusrav II o'g'li 23 yoshga to'lganda uni qamoqqa oladi. Taxt vorisi etib esa o'zining sevimli yori Shirindan tug'ilgan farzandi Mardonshohni tayinlaydi. Taxtga kelgan Kubod o'zining barcha aka-ukalarini o'ldirib yubordi. Kubod II Sher o'zining ahvolini yaxshilash uchun Vizantiya bilan ittifoqda turdi. Vizantiya imperatori Irakliy bilan 628-yil tuzilgan tinchlik shartnomasiga ko'ra, u Eronning bosib olingan yerlaridan voz kechdi va Misr, Suriya, Armaniston va G'arbdagi mamlakatlardan qo'shinlarini chiqardi. Mamlakatda ahvol og'irlashib, ocharchilik va o'lat tarqaldi. Kubod II sakkiz oylik hukmronlikdan so'ng, 628-yil oktyabrda kasallik tufayli vafot etdi. Taxtga uning yetti yoshli o'g'li Ardasher III (621-630) o'tqazildi. Shahanshoh yosh bo'lgani uchun asosiy boshqaruv Mex Azergushnasp qo'lida bo'ldi. Mamlakatda o'lat va ochlikning keng quloch yozishi Eronni qiyin ahvolga solib qo'ydi. Shunday vaziyatda turklarning Burishod boshchiligidagi hujumlari ahvolni yanada og'irlashtirdi. Shu boisdan ham mamlakatda isyonlar avj oldi.

630-yilda Ardasher III ni taxtga o'tqazishda undan maslahat so'ralmaganligi bahonasi bilan Farruxxon Shaxrvaraz (Olam to'ng'izi) Ktesifonga yurish qildi. Shaxrvarazning kelib chiqishi harbiylar tabaqasiga borib taqalgan. Xusrav II ning Vizantiya bilan urushlaridagi mohir sarkardalaridan biri bo'lgan. 603-yilda o'ziga Shaxrvaraz nomini olgan. 613-yilda Damashqda, 614-yilda esa Quddusda Irakliy armiyasini mag'lub etgan. 626-yilda Xalkidon qamali vaqtida Xusrav II uni o'ldirish haqida qo'shin qo'mondonlaridan biriga buyruq bergan. Ammo maktub uning qo'liga tushgandan so'ng, u qamalni to'xtatib, Vizantiya bilan muzokaraga kirishgan. 630-yil bahorda u poytaxtga yetib keldi. Yosh shoh Ardasher III poytaxt egallanmasdanoq o'zining qarindoshlaridan biri-Peruz tomonidan o'ldirildi. Farruxxon ham qirq yoki ellik kunlik hukmronligidan so'ng Xusrav II ning saroy amaldorlaridan biri tomonidan o'ldirildi. Taxtga Xusrav II ning qizi Buron (630-631) o'tqazildi. U malika Burondox (Burondox so'zi paxlaviycha "yomg'ir qizi", "osmon yaratgan qiz" ma'nolarini bildirgan) nomi bilan ham atalgan. Malika Buron mamlakatning sug'orish tizimini tiklashga, qurilish ishlarini yo'lga qo'yishga va xazinani to'ldirishga xarakat qildi. Ammo malika 631-yil oktyabrda bir haftalik kasallikdan so'ng vafot etdi. Peruz II ning qisqa hukmronligidan so'ng, mamlakat taxtiga Xusrav II ning ikkinchi qizi, malika Azarmedox (paxlaviycha "olov qizi", 631-632) keldi.

Sosoniylar davlatining inqirozi arab zaminida xalifalik tashkil topishi bilan tezlashib ketdi. Endi xalifalik qo'shinlari bu yerga tez-tez hujumlar uyushtira boshladi. Ayniqsa, sosoniylar sulolasining so'nggi vakili bo'lgan Yazdigard III davrida yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Yazdigard III Xusrav II ning nabirasi, Shahriyorning o'g'li edi. Yazdigard III mamlakatni 632-yildan boshlab, 651-yilga qadar idora qildi. Sosoniylar sulolasining bu hukmdori o'zidan avvalgi hukmdorlarning siyosatini davom ettirishga xarakat qildi. Ammo mamlakatni ichki ijtimoiy tanazzul, to'xtovsiz urushlar qamrab oldi. Oqibatda mamlakat xonavayron bo'lishi natijasida sosoniylar davlati holdan toydi. Bu esa o'z navbatida kuchga to'lib kelayotgan xalifalik uchun ayni muddao bo'ldi. Sosoniylar Yazdigard III hukmronligi davridan boshlab arablar istilosiga yetarli qarshilik qila olishmadi. 637-yilgi Qodisiya jangida arablar g'alaba qozonib, Ktesifonni egalladi. Ammo hali hanuz mamlakat hududining aksariyat qismi sosoniylar qo'l ostida edi. Biroq 642-yilda bo'lib o'tgan Naxovand jangidagi mag'lubiyatdan so'ng shimoli-sharqiy viloyatlarga Yazdigard III qo'lida qoldi. Keyingi janglarning birida hukmdor 651-yilda Marv atrofida o'ldirildi. Shu tariqa IV asrdan ziyodroq mavjud bo'lgan sosoniylar davlati ham rasman va amalda tugadi.

Foydalanilgan va tavsiya etiladigan asosiy hamda qo'shimcha adabiyotlar:

1. Matthew B. Encyclopedia of the middle ages. New York 1995.
2. Roberts J.M., Westad O.A. The history of the World. Oxford. 2013.
3. Васильев. Л.А. История Востока. М., 1998.
4. Дьянов. И.М. Очерки истории древнего Иране. М., 1961.
5. Жалменова О.П. История стран Азии и Африки в средние века. Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2005.
6. Луканин В.Г. Иран в эпоху первых Сасанидов Л., 1961.
7. Пигулевская Н.В. Византия и Иран на рубеже VI и VII в.в М.Л., 1946.

Nazorat uchun savollar.

1. Sosoniylar sulolasining hokimiyatga kelishi qanday sodir bo'ldi?
2. Sosoniylar davrida ijtimoiy tabqalanish?
3. Sosoniylar davrida din?
4. Xisrav I ning islohotlari haqida gapirib bering?
5. Sosoniylarning so'nggi hukmdorlari faoliyatiga to'xtaling?

MAVZU: ARAB XALIFALIGI: TASHKIL TOPISHI, TARAQQIYOTI VA PARCHALANISHI

Reja:

1. *Islomgacha Arabiston.*
2. *Qadimgi arab davlatlari.*
3. *Islom dininig vujudga kelishi va arablarni birlashishi.*
4. *Xalifalik dastlabki to'rt xalifa boshqaruvi davrida.*
5. *Ummaviylar davrida xalifalik.*
6. *Abbosiylar xalifaligi.*
7. *Abbosiylar xalifaligining parchalanishi.*

Tayanch atama va iboralar: *Arablar va Yaman, misvad-kattalar kengashi, Ximyarit podsholigi, G'assoniylar, Laxmidlar, Kind podsholigi, Hijoz va Makka, aus va xazraj, Lot, Uzza, Manat, islom, Makka, Madina, xalifa, Ummaviylar, Abbosiylar, xalq xarakatlari, oq kiyimlilar, ismoiliylar, Bog'dod, Damashq.*

Islomgacha Arabiston

Islom dinining beshigi bo'lgan Arabiston yarim oroli arablarning vatanidir. "Arab" kalimasi cho'llar, sahrolar, giyoh unmaydigan suvsiz, qurg'oq yerlar degan lug'aviy ma'noni anglatadi. Bu kalima qadim zamonlardan beri Arabiston yarim oroliga nisbatan ishlatilgan bo'lib, keyinchalik shu yerda yashagan va uni o'zlari uchun vatan qilib olgan xalqqa ham shu nom berilgan. Osiyo qit'asining janubi-g'arbida joylashgan bu zamin g'arbdan Qizil dengiz va Sinay yarim oroli bilan, sharqdan Fors va Ummon ko'rfazlari, janubdan Arab dengizi va Adan ko'rfazi bilan, shimoldan Iroqning katta qismi va Shom dashti bilan chegaralangan.

Arablar va Yaman. Yarim orol aholisining katta qismini ko'chmanchi-chorvadorlar tashkil etgan. Ular badaviylar (beduin) deb nomlangan. Badaviylar tuya, shuningdek, ot, qo'y, echki kabi hayvonlarni boqqan. VI-VII asrlarda badaviylarda ibtidoiy jamiyatning yemirilishi boshlandi. Urug' zodagonlari shakllana boshladi. Jamoadagi ba'zi kishilar huquqiy jihatdan ozod bo'lsada, o'zlarining boy urug'doshlariga ishlashga majbur bo'la boshladilar. Qullar soni juda oz bo'lib, ular asosan Afrikadan keltirilgan.

Arabistonda ko'chmanchi badaviylar bilan bir qatorda o'troq turmush tarzini kechiruvchi qadimgi sivilizatsiya davlatlar ham mavjud edi. Bunday

hududlarga birinchi navbatda janubiy Arabiston, ayniqsa uning janubiy-gʻarbiy qismi kiradi, bu hudud antik davr adabiyotlarida «Baxtli Arabiston» nomi bilan mashhur. Arablarda bu hudud Yaman deb atalgan boʻlib, u Hindiston, Efiopiya va hatto Xitoy bilan dengiz orqali savdo aloqalariga ega boʻlgan. Yaman miloddan avvalgi I ming yillikda suvga boyligi bois irrigatsiya tizimi rivojlanib, bu yerda dehqonchilik yuksak taraqqiy qildi. Arab ziyoratchilari arpa, zaytun, uzum va boshqa mevalarni yetishtirgan. Amaldorlarning bir qismi savdo, tashqi aloqalar, tranzitda ishtirok etishgan. Magʻrib, Sana, Zafar, Main, Nejrat va boshqa shaharlari yunon polislari kabi *misvad*-kattalar kengashi tomonidan boshqarilgan. Erkin dehqonlar jamoasi umumiy tarzda kanallar va boshqa sugʻorish inshootlariga egalik qilgan.

Yamanning yuqori darajada rivojlanishida uning vositachilik roli muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki uning shaharlari Misr va Suriya, Efiopiya va Hindiston savdosida muhim rol oʻynagan. Yamanga Hindistondan mahsulotlar kemalarda olib kelingan. U yerda tuyalarga yuklanib, karvon yoʻli orqali Falastin, Suriya va Misrga yetkazilgan. Yamanda IV asrga qadar Ximyarit davlati mavjud boʻlgan. Dehqonchilikdan tashqari bu yerda hunarmandchilik va savdo ham rivoj topgan. Yaman yerlari unumdor boʻlib, unda turli xil qimmatbaho ziravorlar va yoqimli iforli atirlar yetishtirilgan. Yamanda qurol-yarogʻ ham ishlab chiqilib, teriga ishlov berilgan. Janubiy Arabistonda bizga maʼlum boʻlgan davlatlardan eng qadimgisi Miney qirolligi boʻlib, u millodan avvalgi 1200-650-yillarda mavjud boʻlgan. Miney qirolligidan keyin Sabey qirolligi (mil.av. 950-115- yy.), Ximyarit qirolligi (mil.avv. 115-milodiy 525-yil) oʻz hukmronligini oʻrnatgan.

Yaman va Xajramautdagi navbatdagi davlat *Ikkinchi Ximyarit* podsholigi (tax. 300-525) boʻlib, u Efiopiya tomonidan bosib olingan. Keyinchalik, Yamanni Sosoniylar Eroni egalladi. Bu yerda 575-yilda sosoniylar noibligi tuzilib, u 625-yilgacha mavjud boʻlgan.

III-IV asrlarda Magʻrib tugʻonining buzilishi sababli Yamanda iqtisodiy ahvol ogʻirlashganligi bois koʻplab qabilalar shimolga koʻchib keta boshladi. Arab qabilalari etnik kelib chiqishiga koʻra janubiy arab yoki yaman (*kaxtan* va *kaxlan* guruhleri) va shimoliy arab (*mudar* va *rabia* guruhi) ga, ular oʻz navbatida bir necha kichik urugʻ va qabilalarga boʻlingan.

Vizantiya, Eron va gʻarbiy-arab savdo magistrali. Yamanda ibtidoiy jamiyatning yemirilishi bilan, u tashqi dushmanlarning hujumiga duchor boʻldi. VI asrda Yaman va Gʻarbiy Arabiston orqali oʻtgan savdo yoʻli uchun Vizantiya va Eron oʻrtasida kurash boshlandi. Vizantiya bu kurashda xristian

davlati *Aksum* (Efiopiya) dan foydalandi va Yamanga xristian dinini kiritishga xarakat qildi.

IV asr oxiri – V asr boshida Vizantiya bilan 200-yildan ortiq urushlardan so‘ng, 395-yilda Sosoniylar Eroni Armanistonning sharqiy qismini egalladi. Eron g‘arbdan sharqqa qarab yastangan dengizdagi va quruqlikdagi barcha yo‘llarni egallab oldi. Vizantiya Hindiston, Markaziy Osiyo va Xitoy bilan vositasiz savdodan to‘liq siqib chiqarildi.

Bunday sharoitda Vizantiyaning Osiyo va Afrikadagi savdosi uchun faqatgina bitta yo‘l qolgan edi – bu Qizil dengiz yoki Hijoz orqali Yamanga olib boradigan yo‘l. 516-yilda imperator Kanstansiya janubiy Arabistonga forslar ta’siri bilan kurash olib borish uchun xristian missiyasini yuboradi. Ularga qarshi 523-yilda Ximyarit podshosi “*xristianlar qirg‘ini*” uyushtirgandan so‘ng, Vizantiya ham Aksumda hokimiyatda turgan *abissiniylarga* yordam so‘rab murojaat qildi. Bu vaqtda Ximyarit davlatida ichki siyosiy kurashlar avj olgan edi. Ichki kurashlardan foydalangan Aksum hukmdori 525-yilda Yamanni Efiopiyaning noibligiga aylantirdi. Yaman egallanganidan so‘ng, mantiqan ular savdoda ham, strategik jihatdan ham muhim bo‘lgan Hijozni Makka bilan birga egallab olishlari kerak edi. Ammo Hijozni 570-571-yillarda noib Abrax tomonidan bosib olishga qaratilgan urinish abissiniy qo‘shinlarining mag‘lubiyati bilan tugadi.

Xristian-abissiniylarning Yamanda o‘zboshimcha xo‘jayinliklari mahalliy zodagonlar va Sosoniylar o‘rtasida ittifoqqa olib kelib, Ximyarit podshohlarining avlodlaridan biri Seyf ibn-Zi-Yazan yordam so‘rab Eronga murojaat qildi. 575-yilda Erondan dengiz yo‘li orqali yuborilgan qo‘shin abissiniylarni Yamandan quvib chiqardi. Mamlakat rahbari nomiga Seyf bo‘ldi. Lekin tez orada Yaman fors viloyatlaridan biriga aylantirildi va u abissiniylar ustidan g‘alaba qozongan Vaxraz avlodlari boshqaruvi ostiga o‘tdi.

Abissiniylar va sosoniylarning G‘arbiy Arabiston savdo magistraliga hukmronlik qilishlari Yaman va Makka zodagonlariga moddiy jihatdan zarar keltirayotgan edi, bu esa o‘z navbatida Yaman va Makka bilan bog‘liq arab aholisining iqtisodiy holatiga yomon ta’sir ko‘rsatdi.

Eron sosoniylarining satrapligiga aylangan Yaman faqat tranzit hududga aylandi va iqtisodi inqirozga uchradi. Ko‘plab arab qabilalari Arabistonning boshqa hududi - Hijozga ko‘chib o‘tishgan. Bu yerdan Yaman orqali Suriyaga karvon yo‘llari o‘tgan.

Qadimgi arab davlatlari

Shimol va sharqda Rim va Eron bilan qo'shni bo'lgan arab davlatlari ham iqtisodiy va madaniy munosabatda boshqalardan kam bo'lmagan holda rivojlanganlar. Miloddan avvalgi VI asrdan milodiy 115-yilgacha mavjud bo'lgan Nabatiy qirolligiga imperator Troyan barham beradi va uni Rim provinsiyasiga aylantiradi. Nabatiy qirolligi poytaxti bo'lgan Petra hozirgacha o'zining jozibador harobalari bilan lol qoldiradi. Shuningdek, Suriya sahrolari markazida joylashgan Palmira (oromiy Tadmori) III asrda Rim uchun ham, sosoniylar uchun ham xavfli bo'lib qoldi. 265-yilda Palmira hukumdori Ogenat shahanshoh Shopurga qaqshatqich zarba berdi va uni Suriyadan haydab chiqardi. Uning vorisi qirolicha Jinobiya Rim qo'shinlarini Kichik Osiyoning g'arbiga siqib chiqardi. Palmiraning qudratini sindirish uchun imperator Avrelian jiddiy kurash olib bordi. 272-yilda rimliklar tomonidan asirga olingan Jinobiya Rimga olib kelindi va gullab-yashnab turgan Palmira xarobaga aylantirildi.

G'assoniylar. Hozirgi Iordaniya hududida V-VI asrlarda G'assoniylar (Yamanning azd qabilasi) sulolasining hukmronligi o'rnatildi. Bu arab davlati Vizantiyaga qaram edi. G'assoniylar Damashqdan janubiy-sharqdagi hududlarga egalik qilgan. Oromiylar Messopotamiyasi bilan aloqalarda bo'lgan holda, G'assoniylar o'z arab tillarini saqlab qolib, oromiy tilini o'rgandilar. Shu bilan birga ular xristianlik dinini manofozit shaklida qabul qilganlar. V asrdan boshlab G'assoniylar Vizantiya tomonidan turib faol urushlar olib bordi. Vizantiya undan Eronga qarshi kurashda foydalandi. Davlat rahbarlari Konstantinopolga tashrif buyurishgan va imperatordan patritsiy va bilarx unvonini olishgan. Vizantiyaliklarga taqlid qilib G'assoniylar triumf, arka, terma, teatr va cherkovlar qurishgan. VI asr oxirida ichki urushlar girdobida qolgan G'assoniylar davlati zavolga yuz tutdi. Bu davlatga yakuniy zarbani 613-614-yillarda sosoniy Xusrav II Parviz berdi.

Laxmidlar. IV asrda Suriya cho'llarining qarama-qarshi qismida Frotning g'arbida Eron ta'siri ostida bo'lgan arablarning Laxmidlar podsholigi tashkil topadi. Ular huddi G'assoniylar singari Yamandan kelib chiqqan. Laxmidlar Eron chegaralarini Vizantiya va badaviylar hujumlaridan himoya qilgan. VI asrning ikkinchi yarmidan podsholikda xristianlik tarqala boshladi. VII asr boshida Xusrav II Parviz Laxmidlar kuch-qudrati ortib ketishidan qo'rqib, ularning hukmronligiga nuqta qo'ydi va arab hokimlarini boshqarish uchun eronlik noibni tayinladi.

Kind podsholigi. V asrda Arabiston markazida, Nejdeda Kind podsholigi tuzildi. U siyosiy jihatdan Ikkinchi Ximyarit podsholigiga qaram bo'lgan. Kind podsholigi VI asrning birinchi yarmida laxmid podshosi Munzir III tomonidan bosib olindi.

Hijoz va Makka. Yuqorida aytib o'tilgan davlatlarning barchasi Arabiston yarim orolining chekka hududlarida joylashgan edi va ular ma'lum darajada o'zlaridan ko'ra ko'proq madaniylashgan qo'shnilari ta'sirida bo'lgan. Yarimorolning g'arbiy qismida joylashgan Hijoz o'zining tarixi, qo'shnilari bilan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlari bilan ajralib turmagan va tarixi boy bo'lmagan. Markaziy Arabistondagi singari bu hududlar unumsiz tekisliklardan iborat edi va shu jihatdan "Baxtli Arabiston" va Suriyani ko'rinishlarini eslatib yuborardi. Bu yerda makkaliklar uchun yozgi qarargoh vazifasini bajaradigan Taif joylashgan. Taifning atirgullari, qavunlari, bananlari, uzumlari va boshqa maxsulotlari hozirgi kungacha mashhurdir.

Hijozdagi manzillardan yana biri Makkadan shimolda joylashgan Yasrib bo'lib, Muhammad o'limidan keyin bu hudud Madina nomini oldi. Bu nom «Shahar» ("Madina an-Nabiy" - payg'ambar shahri) ma'nosini anglatadi. Qishloq xo'jaligida xurmo yetishtirishning rivojlanishi Yasrib-Madinani Hijozning yashash uchun eng qulay makoniga aylantirdi. Aynan shu omil Hijozni arablar birlashishning markazi bo'lishiga zamin bo'ldi. Qolaversa Hijoz to islomgacha madaniy va qisman siyosiy markaz darajasiga erishgan edi.

Makka shahri Yamandan Suriyaga boradigan karvon yo'lida joylashgan. II asrda Ptolomey o'z asarida shaharni Makoraba nomi bilan qayd etgan. Bu nom janubiy arabcha (*sabycha*) "makrab"- "muqaddas joy" so'zidan kelib chiqqan.

Hijozning bosh shahri bo'lgan Makka Arabistonning diniy markazi edi. Makkadagi muqaddas joylaridan biri Kaaba bo'lib, bu joy arablarning alohida xurmatiga sazovar bo'lgan. Bu yerdan uzoq bo'lmagan joyda muqaddas suv-zamzam oqqan, arablarning xisoblashicha bu suv mo'jizaviy xususiyatlarga ega bo'lgan.

Makka nafaqat diniy markaz, balki savdo markazi ham bo'lgan. Bu yerda yarmarka bo'lib, ko'chmanchi aholi o'zining mahsulotlarini (teri, chorva) g'alla va hunarmandchilik mahsulotlariga ayirboshlagan. Har yili o'tkaziladigan Makka yarmarkalari hattoki chekka hududlarda joylashgan arab qabilalarini ham jalb qilar edi. Ushbu yarmarkalarda shoirlar qabila qahramoni sifatida ishtirok etishar edi, shuningdek, chaqqonlik va abjirlikka

asoslangan musobaqalar o'tkazilardi, qabilalar o'rtasida ittifoqlar tuzilardi, savdo ekspeditsiyalari rejalari tuziladi. Makka hukmdorlari qurayshlar, albatta obro'li arab qabilalari orasida yuqori o'rinlarni egallar edi. Arab muqaddas joylari himoyachilari bo'lgan qurayshlar Arabiston tekisliklaridagi qabilalar bilan uzviy aloqaga ega bo'lganlar.

Lekin, Makka faqatgina ichki ahamiyatga ega bo'lmagan. Makka «Ziravorlar yo'li» deb ataluvchi yo'lda joylashgan. Bu yo'l esa Yamandan O'rta yer dengizining sharqiy qirg'oqlarigacha borgan. Yaman va Suriyaga yo'l oluvchi Makka karvonlari, g'arb va sharq o'rtasida xalqaro almashinuv vazifasini bajargan.

VII asr boshida Arabiston. Arabiston yarim oroli qadimdan ko'chmanchi-charvadorlar istiqomat qilib kelgan. Arabiston yarim orolidagi charvadorlar manzilgohlari bilan egallangan bu sahro va cho'llar arablarda "badiya" deb atalgan, shu so'zdan arab-ko'chmanchilar nomi badaviylar kelib chiqqan. Yevropaliklar tilida beduinlar tarzida talqin qilingan.

Palma, tuya va quduq-mana shu uchlik badaviylarning xo'jalik asosini tashkil qilgan. Arab adabiyotida palmaga alohida e'tibor beriladi. Arablarda tuya nafaqat transport vositasi sifatida foydalanilgan, balki, turmush uchun muhim bo'lgan jun, teri, sut va boshqa mahsulotlarni ham undan olingan.

Arabistonning o'ziga hos tabiati sahro bo'ronlari badaviylar tabiatiga o'z ta'sirini o'tkazdi: kiyinish va ochlikka chidamlilik, o'z urug'iga nisbattan mardlik va sadoqat - arab badaviylarining asosiy sifatleri bo'lib, bu xususiyatlar barcha ko'chmanchilarga tegishli bo'lgan. O'z urug'laridan va qabilasidan tashqaridan inson yashashi mushkul bo'lgan. Hozirgi kunda ham arablar o'z ismlaridan ko'ra qabilalarning nomlanishini ustun qo'yishadi. Badaviylar urug' jamoasining asosi chodir xisoblangan. Oilalarni birlashtirgan chodirlar qavmni tashkil etgan. Bir nechta qavmlar qabilaga birlashishgan. Har bir qabila birlashmasining boshida shayx turgan, uning hokimiyati kengash tomonidan cheklashgan. Kengash oila va qavm vakillaridan iborat bo'lgan.

Islom dininig vujudga kelishi va arablarni birlashishi

Islom dinining vujudga kelishi arafasida arablar jamiyati. Arabistonning turli qismlarida arab jamiyatining ijtimoiy tuzilishi turli xil bo'lishi islomgacha barcha viloyatlarning va arab davlatlarining bir xil rivojlanmaganliklari bilan bog'liq. VI asr Arabistonning sahro hududlari

shunchalar qaloq bo'lganki, bu yerlarda ibtidoiy davrning patriaxal tartibining ilk ko'rinishlari mavjud bo'lgan. Nisbatan urug'chilik tartiblari yemirilayotgan joylarda oldinlari butun urug'niki bo'lgan ishlov beriladigan yerlar va yaylovlar, endi zadogon oilalarning shaxsiy mulkiga aylana boshladi. Arab qabilaviy zodagonlari qullarga ega edi. Rim patriitsylari singari shayxlar atrofida ozod qilingan qullardan qaramlar tabaqasi paydo bo'ldi. Ayrim hollarda butun bir kuchsiz qabila kuchli qabilaga qaram bo'lib qolgan. VII asrda badaviy qabilalari tarixida ilk bor qabila birlashmalari boshlig'i «malik» - podsho unvonini oldi.

Shuni aytish kerakki, Makka va Madina toifaviy kurash borasida eng shavqatsiz hududlar edi. Makkaning rivojlangan hunarmandchiligi birinchi navbatda qullar mehnatiga asoslangan edi. Makka qurayshlaridan bo'lgan qabilaviy zodagonlar mohir savdogarlar va Yaman mollarini yetkazib beruvchi bo'lishdan tashqari, ular ayni vaqtda yirik quldor ham edi.

Arablarning birlashishiga va ular tomonidan kuchli davlat tashkil etilishiga uzoq davr shakllangan yangi din-islom sabab bo'ldi.

Makkada asosan quraysh qabilasi yashagan. Ular orasida chakana savdo, hunarmandchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan ummaviylar boy xonadon edi. xoshimiylar bo'lsa kambag'allashib qolgan edi. Makkaliklar shuningdek Yamandan kelgan savdo tranzitida muhim rol o'ynagan.

Makka o'zini mustaqil boshqargan. Vaqti-vaqti bilan Kaaba yaqinidagi “*Majlislar uyi*”da muhim masalalarni hal etish uchun urug' oqsoqollari-shayxlar yig'ilgan. Makkadan 30 km shimolda Yasrib (yunoncha Yatrippa) joylashgan. Yasribda 5 ta arab qabilasi yashagan. *Aus va xazraj* qabilalari butga, qolgan uchta qabila bo'lsa yahudiylikka e'tiqod qilgan.

VI asrning boshida yagona shimoliy arab adabiy tili shakllandi. Bu tilda boy poeziyalar yaratildi. Ular asosan qasida tarzida yaratilgan. Shimolda ham, janubda ham islomga qadar *animizm* dini amalda bo'lgan. Shimoliy Arabiston va Makkada asosan uchta xudo: *Lot*, *Uzza* va *Manat* bo'lgan. Bular arablarning eski butlari bo'lib, ularning dunyo qarashlari bilan bog'liq edi. Bu davr keyinchalik “*johiliya*” nomini oldi.

Arablar orasiga birinchi kirib kelgan boshqa diniy ta'limot *yahudiylik* bo'ldi. Uni Vizantiyadan ko'chib kelgan yahudiylar olib kelgan. Yahudiylikning markazlari Shimoliy Hijoz, Yaman va asosan Yasrib bo'ldi. Xristianlik esa g'assoniylar orqali Suriyadan kirib keldi.

Islom dinining yoyilishi Muhammad payg'ambar faoliyati bilan bog'liq. U qurayish qabilasining xoshimiylar urug'idan edi. Uning bobosi

Abdumutalib va otasi Abdulloh uncha boy bo'lmagan savdogar bo'lgan. Abdulloh o'lgandan so'ng ayoli Aminaga faqat beshta tuya, bir necha qo'y va bitta qul ayol qolgan. Amina ham o'g'li Muhammad olti yoshga to'lganida vafot etdi. 570-yilda tug'ilgan Muhammadning bolaligi bobosi qo'lida o'tdi. 610-yildan o'zining targ'ibotini boshladi.

Makkada o'z targ'ibotini boshlagan Muhammad atrofida asta - sekin safdoshlari ko'paya boshladi. Xoshimiylar xonadonini o'ziga raqib deb xisoblovchi ummaviylar Muhammadning ta'siri oshishidan xavfsiraydi. Shu boisdan Makka ahli Abu Sufiyon boshchiligida Muhammadga qarshi chiqishdi. Tez orada Makkada navbatdagi urug' oqsoqollari yig'ilishi chaqirildi. Unda xoshimiylar urug'i garchi xohlamasada, urug' eski an'analariga ko'ra Muhammadni himoya qildi. Ammo Muhammad Makkada ortiq qololmasligini anglab yetdi. Muhammad Yasribdan o'ziga ko'mak topdi. U yerda asosan dehqonchilik qiluvchi *aus* va *xazraj* qabilalari yashab, ular Makka savdogarlaridan qarzdor edi. Muhammad Makka zadoganlariga qarshi kurashda yagona ittifoqchi sifatida *aus* va *xazraj* qabilalarini ko'rdi. Shu boisdan ikki marta Akaba sahrosida (620-622-yillar oralig'ida) *aus* va *xazraj* qabilalari bilan Muhammad va uning yaqinlari muzokaralar olib bordi. Muzokaralar yakuniga ko'ra ikki qabila ham yangi dinni qabul qilib, Yasribga musulmonlarni kiritish hamda himoya qilishga rozi bo'ldi. 622-yil 16 iyuldan - 20-sentabrgacha bo'lgan davrda musulmonlar va payg'ambarning Yasribga ko'chib o'tishi "hijrat" nomini oldi. *Aus* va *xazraj* qabilalarining Muhammadni tan olishi Madinada to'liq musulmonlar hokimiyatini o'rnatdi. Madinada nafaqat ibodat qilish joyi, balki jamoa yig'ilishi va qabul marosimi (elchi va boshqalarni) o'tkaziladigan joy sifatida masjid qurildi. Har kuni vaqti-vaqti bilan imom, ba'zan Muhammad, Abu Bakr yoki Umar boshchiligida ibodat qilish joriy etildi.

Madina aholisi Makka bilan urushlarga chek qo'yish maqsadida Makkaning Madina yaqinidan o'tadigan karvon yo'liga zarba berish kerak degan xulosaga keladi. 623-yil boshida ular Makka karvoniga hujum qilib, uni taladi. 624-yil martda Badr jangida makkaliklar mag'lub etildi. Jangda 600 makkalikka 317 nafar musulmon qarshi kurash olib bordi. 625-yilda musulmonlar yana Makka karvonlarini taladi. Bunga javoban Abu Sufiyon Madinaga 3 ming qo'shin yubordi. Uxud tog'ida bo'lgan jangda madinaliklar yengildi. Ammo mag'lubiyat Muhammadning obro'siga putur yetkazmadi. 627-yilda Abu Sufiyon 10 ming qo'shin bilan Madinaga hujum boshladi. Olti kun ichida Muhammad va uning tarafdorlari Madina atrofini xandak bilan

o‘rab oldi. Madina qamal qilindi. Ammo, qamal davomida makkaliklar orasida nizolar kelib chiqdi. Bir haftadan so‘ng Abu Sufiyon boshliq uch qabila orqaga qaytib ketdi. Qolgan qabilalar hech ish qilisholmadi. Bu jang tarixda “Xandaklar jangi” nomi bilan qoldi. Jangdan so‘ng musulmonlar Madinadagi oxirgi qarshilik kuchi *banu kureyz* qabilasini yengdi.

628-yilda payg‘ambar 1500 as‘hobalari bilan ibodat uchun Makkaga keldi. Qurayish qabilasi bilan olib borilgan uzoq muzokoralardan so‘ng “Xudaybiya shartnomasi” imzolandi. Shartnoma o‘n yilga mo‘ljallangan bo‘lib, musulmonlar Kaabaga qurolsiz ibodat uchun kelish, makkaliklar islomni qabul qilishi, Muhammad esa Makka karvonlarini talamaslik majburiyatini oldi. “Xudaybiya shartnomasi” imzolanishi bilan Muhammadning siyosiy obro‘si oshdi. Bu esa quraysh qabilasining ikki yirik vakili Xolid ibn al-Volid (Uxud tog‘ida g‘alaba qilgan) va Amr ibn al-Aslar tomonidan ixtiyoriy tarzda Makkaga kelib, islomni qabul qilishiga sabab bo‘ldi.

630-yil yanvarda Muhammad 10 ming qo‘shin bilan Makkaga keldi. Abbos* Muhammadning Makka yetakchisi Abu Sufiyon bilan uchrashuvini tashkil etdi. Shartnoma imzolanib, unga ko‘ra barcha makkaliklar islomni qabul qildi. Ular o‘z uylarida qoldi. Kaaba turli butlardan tozalandi va musulmonlarning bosh ibodatxonasi - “Masjid al-xaram” bunyod etildi. Abu Sufiyon arablarni birlashtirib, arablar yashamaydigan O‘rta yer dengizi hamda Osiyo karvon yo‘llarini egallashni ko‘zlagan edi. Shu sababli ham u Muhammad bilan shartnoma imzolagan. Shu yili arablar yagona davlatga birlashtirdi.

630-631-yillarda Taif va boshqa Arabiston yarim oroli aholisi islomni qabul qildi. Muhammad 632-yil 8-iyunda vafot etdi. Uni Makkada dafn etishdi.

Xalifalik dastlabki to‘rt xalifa boshqaruvi davrida

Muhammadning o‘limidan so‘ng, hokimiyatni kimga berish masalasida muhojirlar va ansorlar o‘rtasida bahs yuzaga keldi. Ikki tomon kelishib, musulmon jamoasi va arab davlati rahbari sifatida Abu Bakrni tanlashdi. Uni “*xalifa*”-“*o‘rinbosar*” deb atashdi.

Abu Bakr Muhammadning safdoshlaridan, uning qaynotasi (Oyshaning otasi) bo‘lib, yirik savdogar edi. Islomda «Xalifai ar-roshidin», ya’ni to‘g‘ri

* Abbos-Muhammadning amakisi.

yoʻldan borgan xalifalar, choryorlar deb atalgan dastlabki toʻrt xalifaning birinchisi. 632-634-yillarda xalifalik qildi. Abu Bakr Makkaning qurayish qabilasining *tamim* urugʻidan boʻlib, Islomdan oldin uning nomi *Abdullot* (Lot xudosining bandasi) boʻlgan. Islomga kirganidan keyin, Muhammad unga Abdulloh deb nom bergan. Biroq musulmonlar orasida Abu Bakr (Bakrning otasi) laqabi bilan tanilgani uchun, Abdulloh ismi unutilib ketgan. Islom dinini ikkilanishsiz qabul qilgani uchun, Muhammad unga «*Siddiq*» unvonini bergan.

Abu Bakr Muhammad bilan 622-yilda Makkadan Yasrib (Madina)ga hijrat qilgan. Badr, Uxud, Xandak va boshqa barcha janglarda ishtirok etgan. Muhammad vafotidan keyin birinchi xalifa etib saylangan. Arab qabilalari, *mushriklar*, yahudiylarning Madina hokimiyatiga qarshi koʻtarilgan qoʻzgʻolonlari (*Musaylimlar qoʻzgʻoloni*) ni bostirgan.

Abu Bakr Iroq va Suriya fathi uchun qoʻshin yubordi. 633-yili Sosoniylarga, 634-yili Falastin yerlariga yurishlar uyushtirdi. Uning davrida “Qurʻon”ni jamlash ishlari boshlangan. Ilk marotaba qurilgan Arab xalifaligini islomiy siyosat asosida boshqarib, Arabistonda islom dinini mustahkamladi. Abu Bakr ozgʻin, yumshoq koʻngilli va tabiatli, kamtar, xalqqa juda marhamatli boʻlgan.

U oʻlimi oldidan kengash chaqirib oʻzining yaqin safdoshi Umarni (634-yil) vasiyat yoʻli bilan oʻziga voris etib tayinlagan.

Umar ibn Xattob toʻrt xalifaning ikkinchisi boʻlib, 634-644-yillarda xalifalik qilgan. Toʻgʻrini egridan ajratishda oʻta hassos va odil boʻlganligidan Muhammad unga «*Foruq*» unvonini bergan. Islomgacha qurayshlarning siyosiy ishlarini yurgizar edi.

Umarning xalifaligi davrida Suriya, Falastin, Misr va Vizantiya hamda Erondagi Sosoniylar davlatlariga yurishlar uyushtirildi. Arablar Falastin va Suriyadagi hal qiluvchi janglarda Vizantiya qoʻshinlarini magʻlub etib, 640-yilda muhim port Qaysariyni egalladi. 640-641-yillarda Misr egallandi. Aleksandriya shahrini 642-yil sentabrda imzolangan shartnoma asosida qoʻlga kiritdi. 643-yilda Liviya egallandi va 647-yilda Vizantiyaga qaram Afrika hududlariga (arablar bu yerni Magʻrib deb nomlagan boʻlib, hozirgi Tunis, Jazoir, Marokko hududlari kirgan) hujum qildi. Bunga qadar arablar 641-yilda Yuqori Mesopotamiyani egallab, Armanistonga hujum qilib, poytaxti Dvin shahrini bosib olgan edi. Eronda majusiylik-olovga sigʻinishga aylanib ketgan zardushtiylik dini bekor qilindi. Eron hududlari butunlay islom chegaralari ichiga qoʻshildi.

Umar bir eronlik nasroniy qul - Lu'lua tomonidan zaxarlangan xanjar bilan o'ldirildi. Xalifalikka *Usmon ibn Affon* keldi va u 644-yildan 656-yilgacha xalifalik qildi. Usmon davrida asosan o'zining urug'doshlarini hokimiyatga olib kelishi natijasida ichki noroziliklar yuzaga keldi. Norozilarning bir qismi Alini xalifa bo'lishining tarafdorlari edi. Ular "shia Ali" ("Ali guruhi") nomini olgan. Guruhning asoschisi Muhammadning safdoshi Abu Zarr al-Gifar edi. Bundan tashqari yana uchta norozi kayfiyatdagi guruhlar-Kufa, Basra va Misrda yuzaga keldi. Ular Usmondan xalifalikni topshirishini talab qildi. Usmon ular talablarini bajarishga rozilik bildirdi. Ammo, uning urug'doshi va maslahatchisi ummaviy Marvon ibn al-Xakam Misrga elchi yuborib, isyonchilarni qatl etishni buyurdi. Xat ular qo'lga tushib qolgandan so'ng, Usmonni uyiga bostirib kirib, uni 656-yil o'ldirdi.

Umar davrida Eron sosoniylariga qarshi boshlangan urush, Usmon davriga kelib nihoyasiga yetdi. VII asr 30-yillar boshida sosoniylarning to'xtovsiz taxt almashinuvlari Eronni birmuncha zaiflashtiradi. Bunday vaziyatdan foydalangan badaviylar Mesopatamiyaning Ubilladan to Xirogacha bo'lgan hududlariga bostirib kira boshlaydi. 632-633-yil qishida taxtga Yazdigard III o'tirgach, arab qo'shini Eronga vassallik qaramida bo'lgan qo'shni hududlar-Mesopatamiyaning janubiy chegaralari va Baxraynga qarshi xarakat qila boshladi.

Baxrayn cho'l zonasining hukmdori al-Munzir Ktesifon podsholarining tartibsizliklari sabab Muhammad davrida islomni qabul qilgandi. Muhammad vafotidan so'ng ham al-Munzir islomga sadoqatligicha qoldi. Biroq, uning o'limidan so'ng Baxrayn arablari ikki guruhga bo'linib ketdi. Qays qabilalarining ko'pchiligi islomga sodiq qolishgan va Madinaga bo'ysungan; ularga qarshi kurashgan arablarning *bakr* qabilalari Ktesifondan panoh topishga urinishdi. Musulmonlarga qarshi guruh boshlig'i al-Xutam (asli qays qabilasidan) 400 ta o'z tarafdorlari va fors qamalchilari yordamida qays-musulmon jangchilarini mag'lub qildi va ularni Xadjar yaqinidagi al-Juvas qal'asida qamalga olishdi. Abu Bakr ularga yordam uchun al-Xadram boshchiligida uncha katta bo'lmagan qo'shin yuboradi. Qo'shin safi yo'l-yo'lakay kengayib bordi. Xadram qo'shini Xutam ustidan g'alabaga erishdi.

633-yil "Zanjirlar jangi" (fors askarlari bir-birini zanjir bilan bog'lab olgan edi) da Musanna bin Xaris sosoniylar ustidan g'alaba qozonib, Xiro shahrini egalladi. Xolid ibn al-Valid Ulleysda forslarni yana mag'lub etdi. Shu vaqtda forslar qo'shiniga boshchilikni Rustam qo'lga oldi, 634-yil

noyabrda Rustam qo'shinlari "Ko'prik ustidagi jangda" arablar ustidan g'alaba qozondi. Ammo, 635-yilda Buvaybe jangida forslar yana yengildi. Vaziyatni to'g'ri baholagan Rustam butun Eron hududidan qo'shin to'plashga kirishdi. 636-yil kuzida Rustam katta qo'shin bilan Xiro yaqinidagi Kadisiyaga yetib keldi. Arablarning Saad ibn Abu Vaqqos boshchiligidagi qo'shini qarshisiga chiqdi. Faqat to'rt oydan so'ng, 637-yil boshida Rustam jangga kirishga qaror qildi. Kadisiya jangida forslar yengilgach, Yazdigard III Zagros tog'iga qochdi. 637-yil yozda poytaxt Ktesifon egallandi. 648-649-yillarda bir necha qonli janglardan so'ng Fors, Kermon va Seyiston egallandi. 647-yili Kirenaika bosib olindi, 649-yili Kipr ishg'ol etildi. Arablar 651-yil Xurosonga bostirib kirdi va Marvni egalladi.

Qu'roni Karim. Qu'roning ayrim qismlari va suralari turli odamlar tomonidan turli buyumlarga-toshga, teriga va palma yaproqlariga yozilgan edi. Xalifa *Abu Bakr* davrida uni yagona kitob holiga keltirishga qaror qilindi. Xalifa Abu Bakr Muhammadning shaxsiy kotibi *Zayd ibn Sobit* (673-yilda vafot etgan) ga Qu'roning barcha qismlarini to'plab, kitob holiga keltirishni buyurdi. Uchinchi xalifa *Usmon* Zayd ibn Sobitga Qu'ronni qaytadan suralarini tartib bilan joylashtirishni va avval kiritilmaganlarini kiritishni buyurdi. Shunday qilib 651-yilda hozirgi Qu'roning ilk to'liq variant shakllandi. Zayd ibn Sobit tomonidan yozilgan kitobdan yana uch nus'ha ko'chirildi va Damashq, Kufa va Basra shaharlariga yuborildi. Zaydning yozgani Usmon qo'lida qoldi. Kitob 353 sahifadan iborat bo'lib, har bir sahifada 12 qatordan matn yozilgan.

Ali ibn Abu Tolib 656- yildan 661-yilgacha xalifalik qilgan. Muhammad Alini 5 yoshidan o'z tarbiyasiga olgan. Ali uning tarbiyasida voyaga yetgan.

Ummaviylar davrida xalifalik

Xalifalikdagi inqiroz va birinchi fuqarolar urushi. Alining xalifaligi ichki isyonlar avj olgan pallaga to'g'ri keldi. Uning xalifaligi davrida islom birligi siyosiy jihatdan parchalanadi. Mamlakatda fuqarolar urushi boshlandi. Ali xalifa etib saylangan bo'lsada, Abu Sufiyonning o'g'li Shom voliysi Muoviya uni tan olishni istamadi, Damashqda o'zini xalifa deb e'lon qildi. Ali taxt uchun kurashda g'alaba qozonolmadi. 657-yil iyulda Frot daryosi yaqinidagi Siffinda bo'lgan jangda Ali yengildi. Ali va Muoviya bir-birlarining xalifaliklarini tan oldi.

Shunday qilib, xalifalik uning davrida ikki mustaqil qismga - Kufa va Shom xalifaligiga ajralib ketdi. Ali tarafdorlaridan bir qismi (keyinchalik ular havorijlar-xorijiylar deb ataldi) uning bunday xarakatlaridan norozi bo'ldi va unga qarshi suiqasd uyushtirdi. Kufada masjidda u xorijiy Abdurahmon tomonidan o'ldirildi. Ali tarafdorlari keyinchalik islomdagi ikki asosiy oqimdan biri bo'lgan shi'alik (arabcha «shi'a» - guruh, bu o'rinda «Ali tarafdorlari» mazmunida) oqimini tashkil etgan. Ali shi'alarining birinchi imomi va shi'a imomlari shajarasini boshlab beruvchi xisoblanadi. Shi'alarda Ali avlodlaridan 12 imom, ba'zi firqalarda 7 imom e'tirof etilgan.

Shi'alar sunniylarning xalifalaridan hech birini e'tirof etmaydi, o'z imomlarinigina diniy rahnamo deb taniydi. Shi'alikka mansub bo'lgan ayrim kichik firqalarda, masalan, ismoiliylar firqasida, Alini xudo darajasiga ko'tarishga va uni ilohiylashtirishga xarakat qilingan.

661-yil Ali o'ldirilganidan keyin, uning tarafdorlari Hasanni Iroqda xalifa deb e'lon qildi va Muoviya hokimiyatiga qarshi kurashni yangidan boshlashga da'vat etdi. Lekin Hasan Muoviya bilan muzokaralar olib borib, hokimiyat da'vosidan voz kechib, Madinaga ko'chib ketdi.

Ummaviylarning ichki siyosati va ikkinchi fuqarolar urushi. Ummaviylar hokimiyatga kelgandan so'ng poytaxtni Damashqqa ko'chirdi. Ummaviylar davrida qator ma'muriy harbiy o'zgarishlar amalga oshirildi: xalifalik lavozimi nasliy merosga aylantirildi, davlat xazinasi va davlat devonxonasi tashkil etildi, arab tili davlat tili deb e'lon qilindi, yangi oltin, kumush va mis tanga chiqarildi, harbiy-dengiz floti tashkil etildi.

680-yili xalifa Muoviya o'lgandan keyin, Iroqda ummaviylarga qarshi xarakat faollashdi. Kufa shahri shi'alari Husaynni o'zlarining imomi deb tan olib, xalifalikka taklif etdi va Muoviyaning o'rniga bo'lgan o'g'li xalifa Yazidga qarshi qo'zg'olonga bosh bo'lishni so'radi. Makkadan Kufaga 70 jangchisi bilan kelayotgan Husayn Makka yaqinidagi Karbalo dashtiga yetib kelganida, xalifa Yazidning 4 ming kishilik qo'shinlari unga qarshi chiqdi. 681-yilda bo'lgan bu jangda shi'alar mag'lub bo'lib, Husayn (627-681) o'ldirildi. Shu munosabat bilan Karbalo shi'alarining asosiy muqaddas ziyoratgohiga aylandi. Husayn shahid bo'lgan bu sana (ashuro*) shi'alarda motam kuni sifatida har yili nishonlanib turiladi.

* Ashuro (arabcha «o'n kunlik») – shi'alarda o'tkaziladigan motam marosim kunlari. Shi'a musulmonlari har yili muharram oyining dastlabki o'n kunligida motam tutib diniy yurish qiladilar. Shi'alar ta'sirida sunniylar ham ashur oyini o'tkazadilar. Lekin sunniylarda bu marosimni ko'proq ayollar bajaradi.

Karbalo fojeasi butun Hijoz vodiysini g'alayonga solgan. Yazid xalifalikdan olib tashlandi. Makkada Abdulloh ibn Zubayr o'z amirligini-xalifa bo'lganligini e'lon qildi. Bu xalifalik 10 yilga yaqin davom etadi (683-692 yillar).

O'sha paytda Islom dunyosida uch xalifa o'rta chiqdi:

1. Iroqda Safaviy sulolasidan bo'lgan qo'mondon Muxtor.
2. Hijozda Makka va Madina aholisining xalifasi Abdulloh ibn Zubayr.
3. Suriya va Misrda ummaviylar hukmdori Abdulmalik.

Ummaviylar soliq tizimi. Ummaviylar davrida hunarmandlar, savdogarlar va chorvadorlardan zakot olingan. Zakot faqat musulmon bo'lgan shaxslardan olingan. Yeri bor arablar, arab bo'lmaganlar va islomni qabul qilganlar o'ndan bir miqdorida soliq to'lagan. Yer soliqlari orasida eng og'iri xiroj bo'lib, dastlab bu soliq faqat musulmon bo'lmaganlardan natura shaklida yoki hosilning ulushi xisobida (muqassama, hosilning 10 % idan to 50 % igacha) olinar edi. Shuningdek, xiroj Eron sosoniylarida bo'lgani kabi (ularda xaraj deyilgan), qa'tiy belgilangan pul bilan ham olingan bo'lib, har bir *jarib* yer miqdorida undirilgan. Abbosiylar davriga kelib xiroj davlat yerlari va mayda yer egalarining yerlaridan olinadigan bo'ldi. Har bir musulmon bo'lmagan erkaklardan uning iqtisodiy ahvolidan kelib chiqib, 12, 24 yoki 48 dirhamdan jizya - jon solig'i olingan. Hosilning 1/10 miqdorida olinadigan ushr faqat mulk yerlaridan, ya'ni xususiy yerlardan olinishi belgilandi.

Arab xalifaligidagi soliq tizimi dastlab Vizantiya va Sosoniylarning soliq tizimi asosida shakllantirilgan. Arablar bosib olingan hududlar bilan dastlab shartnoma tuzib, u yerdan o'lja olish bilan cheklangan.

Xalifa Abdumalikning hukmronligi davridan butun xalifalik hududlarida yerning va soliq to'lovchilarning ro'yxati tuzildi. Bu ro'yxatga tushgan dehqonlar o'z yerlarini tark etib ketishlari mumkin emasdi. Xalifalikning soliq yig'uvchi amaldorlari dastlab soliq olinadigan yer bilan tanishib chiqib, keyin shu yerdan qancha soliq olish mumkinligini belgilab berishardi. Soliqchilar aholining bir xil harajatlarini ham o'rta xisoblab shunga qarab soliq qiymatini oshirib borishgan.

Soliq amaldorlari yerni unumdorligiga ham e'tibor berishgan. Masalan, agar yer shaharga yaqin joyda bo'lsa, unda har 1000 tub uzumzordan 4 dinordan soliq olingan. Agar yer shaharga uzoq joyda joylashgan bolsa, unda 2000 tub uzumzordan 4 dinor olingan. Shuningdek, zaytun daraxti uchun ham

soliq belgilangan edi. Zaytun daraxti asosan Shimoliy Afrika, Suriya va Falastinda o'sardi. Bu holda soliqlar har bir zaytun daraxti uchun olingan.

Ummaviylar tashqi siyosati. VII asr oxiri-VIII asrning boshlariga kelib fuqarolar urushiga chek qo'yilgandan so'ng, ummaviylar bosqinchilik yurishlarini davom ettirdi. 667-yili arablar Xalkedon shahrini ishg'ol etib, Vizantiyani xavf ostida qoldirdi va Sitsiliyani vayron qildi. 698-yili vizantiyaliklar Karfagendan tamoman haydab chiqarildi.

VIII asrning boshiga kelib arablar Gibraltar bo'g'ozini hududlariga kirib keldi. 711-yilda Afrika noibligining sarkardasi Tariq ibn Ziyod 7 minglik qo'shini bilan yarim orolga kelib joylashdi. Shu vaqtdan boshlab bu yer Gibraltar (Tariq tog'i; arabchada Jebel Tariq) nomini oladi. 711-yilning 19-iyulida Tariq Afrikadan yordamchi kuch olib, 12 minglik qo'shin bilan 25 minglik qo'shinga ega bo'lgan vestgotlar qiroli Rodrigoni mag'lubiyatga uchratdi. Jangda vestgotlarning oxirgi qiroli halok bo'ldi. 712-yilda Toledo taslim etildi. Shu tariqa 711-715-yillarda Ispaniya hududlari egallandi.

Reyn bo'yi tizma tog'larini oshib o'tib, arab qo'shinlari 725-yilda janubiy Fransiya tomon xarakatlandi. 732-yilda Puate yaqinida Karl Martell tomonidan arablar ustidan qozonilgan g'alaba, arab qo'shinining shimolga keyingi xarakatini to'xtatib qo'ydi.

Arablar muntazam ravishda Bosfor va Marmar dengizi hududlariga hujum qilib, ikki marta Konstantinopolni (673-677 va 717) qamal qilgan bo'lsada, uni hududlarni bosib ololmadi. 741-yilda Akroin jangida mag'lubiyatidan keyin arablar Kichik Osiyoga yurishlarini to'xtatdi.

O'rta Osiyoga qilgan yurishlari natijasida 705-715-yillarda Xorazm, Farg'ona va Movoraunnahr hududlari egallandi. Xitoy bilan 751-yildagi jangdan so'ng, arablar O'rta Osiyo bilan cheklanib qoldi. 712-yilda Hindistonga bostirib kirdi. Muhammad ibn Qosim as-Saqafiy tomonidan Sind viloyati (hozirgi Pokistonning janubi) bosib olindi. Daybun (Qora chi) porti va Kiyrun (Haydarobod) shahri Muhammad ibn Qosim qo'lga o'tdi. Shimolda Multon hududlarigacha yetib borishdi.

Abbosiylar xalifaligi

Ummaviylar tomonidan davlat apparatini mustahkamlash va xazinani to'ldirishga e'tibor berilgan bo'lsada, ammo ijtimoiy ahvol og'irligicha qoldi. Xalifa Umar II (717-720) ning hokimiyatni mustahkamlash maqsadida shia va xorijiylarning rahbarlari bilan muzokaralari samarasiz tugadi. Ahvolni

o'nglash uchun islomni yangi qabul qilganlar xirojdan ozod etildi. Ammo xalifa o'limidan so'ng bu tadbir bekor qilindi. Xalifa Xisham (724-743) davriga kelib, soliqlar qattiqqo'llik bilan yig'ib olindi. Soliq to'lamaganlar qamoqqa olindi. Xalqning noroziligi ortib, qo'zg'olonlar boshlandi. Movaraunnahrda (728-737), Ispaniya va Mag'ribda (734-743), Kufada (744), Mesopotamiya, G'arbiy Eron va Janubiy Arabistonda (744-747) qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Navbatdagi xalifa Marvon II (744-750) shijoatli va qattiqo'l bo'lsada, sulolaning inqirozini to'xtatib qololmadi.

VIII asrning birinchi yarmida ummaviylarga qarshi bo'lgan yana bir guruh abbosiylar shakllandi. Ular Muhammadning amakisi Abbasning avlodlari bo'lib, ummaviylarni Muhammadning avlodlarini qirib yuborganlikda aybladi. Abbosiylarning olib borgan targ'iboti natijasida, ularni nafaqat barcha musulmonlar-arab va arab bo'lmagan, shialar va xorijiylar, hatto musulmon bo'lmagan aholi ham qo'llab-quvvatladi.

Xuroson eng og'ir nuqta bo'lgani uchun, u yerga abbosiylar o'z targ'ibotchisi Abu Muslimni yubordi. 747-yil 9-iyunda Marv vohasidagi qarorgohida sobiq qul Abu Muslim 4 ming qo'zg'olonchilarni yig'di. Ular qora kiyim kiydi. *Qora* Abbosiylarning rasmiy rangi edi (*Yashil* shialar, *oq va qizil* esa xorijiylar kiyimini rangi edi). Qo'zg'olon butun Eron va Iroqni qamrab olib, fuqarolar urushiga aylanib ketdi. Xurosondagi voqealarga xalifa Marvon II javob qaytardi. 748-yili Abbosiylar yetakchisi Ibrohimni qamoqqa tashladi va o'ldirib yuborishdi. Endi Abbosiylar xarakatiga ukasi Abul Abbas boshchilik qildi va Ummaviylarni tugatish uchun kurash boshlandi. 749-yil 28-noyabrda Abul Abbas Saffox *Kufa* shahridagi masjidda o'zini xalifa deb e'lon qildi. U xalq oldida chiqish qilib, ularni endilikda kanal va saroy qurilishiga jalb qilmaslikka va'da berdi.

750-yil yanvarda *Tus* yaqinida, *Gurgan*, *Nexavon* va *Katta Zab* daryosi hududida bo'lgan janglarda mag'lub bo'lgan ummaviylar armiyasi qarshilik qilishni to'xtatdi. Xalifa Marvon II *Misrga* qochdi va u yerda o'ldirildi.

Shunday qilib, yangi sulola - Abbosiylar davri boshlandi. Abbosiylar 945-1132-yillardagi tanaffuslar (bu davrda ularga faqat diniy hokimiyat tegishli bo'lgan) bilan 750-1258-yillarda boshqardi. Abbosiylar davrida xalifalik hududi qisqardi. Ummaviylardan bo'lgan Abdurahmon Ispaniyaga qochib borib, u yerda 755-yilda mustaqil Qurudoba amirligiga asos soldi. 788-yilda *Marokkoda* Ali urug'idan bo'lgan *zeyditlar* o'z davlatiga asos soldi.

Birinchi abbosiy xalifa Saffox (749-754) va uning ukasi Mansur (754-775) xalifalik markazini Suriyadan Iroqqa, doimiy tarzda ummaviylarga

qarshilik o'chog'i bo'lib kelgan *Anbar* shahriga ko'chirdi. 762-yilda Eron sasoniylarining poytaxti Ktesifon yaqinida Mansur loyihasi bo'yicha yangi poytaxt-Bog'dod bunyod etildi. Hokimiyatga kelgan abbosiylar xalqqa bergan va'dalarini hamda ularni hokimiyatga olib kelgan qo'zg'olon rahbarlarini unutdi. Hatto, ulardan xavfsiray boshladi. 755-yilda Mansur saroyiga qurollsiz kelgan Abu Muslim o'ldirildi.

Abbosiylarda davlat tuzilishi va feodal munosabatlarning rivojlanishi. Xalifalik Mansurdan Xorun ar-Rashid (786-809) boshqaruvi tugagunga qadar qudratli va markazlashgan davlat bo'lib qoldi. Boshqaruvda Eron sasoniylari va ummaviylarning tartiblari saqlab qolindi. Asosiy boshqaruv bosh vazir qo'lida edi. Markaziy hokimiyat vazirliklar asosida boshqarilgan. Vazirliklar *devon* deb nomlangan.

Hududlar xalifaning noiblari-*amirlar* tomonidan boshqarilgan. Amirga harbiy va ma'muriy-tartib ustidan nazorat qilish huquqi berilgan. Sud ishlari qozilar qo'lida bo'lib, ular *fiqh* va *shariat* asosida sud ishlarini olib borgan. Boshqa din vakillari (*zimmiylar*) o'zlarining diniy rahbarlari tomonidan sud qilingan.

Abbosiylar davrida yerlarning katta qismi davlatga tegishli edi. *Mulk yerlari*-xususiy yerlar bo'lib, ular abbosiylar xonadoni vakillariga tegishli edi. Shuningdek, yerlar harbiy xizmatlar uchun umurbod muddatga berilgan. Bu yerlar *qatiya* deb nomlangan. *Iqto* yerlari ham bo'lib, u davlat oldidagi xizmatlar uchun berilgan. Agar iqto egalarining vorislari ham davlat oldida yaxshi xizmat qilsa, yerlar meros qilib qoldirilgan. Iqto mavqeyi va amaliga qarab, bir qishloqdan butun boshli viloyatgacha berilgan. *Vaqf* yerlari diniy idoralarga tegishli yerlar bo'lgan.

Xiroj solig'i davlat yerlari va kichik xususiy yerlardan olingan. Mulk yerlaridan 1/10 miqdorida soliq olingan. Abbosiylar xonadoni yerlaridan, iqto va vaqf yerlaridan davlatga soliq olinmagan. Ular renta ko'rinishida yoki yer egasining xohishi bilan boshqa tarzda davlatga to'lov to'lab turgan.

Xalifalikdagi xalq xarakatlari. Saltanatga kelgan Abbosiylar endi Ummaviylarga nisbatan qonli intiqom siyosatini yurgiza boshladi. Abbosiylar hokimiyatga kelgan dastlabki davrda eronliklarga suyangan holda arab isyonchilarini bostirishga erishgan bo'lsa, keyinchalik arablarga suyanib, eronliklarga zo'ravonliklar o'tkazdi. Mehnatkash xalqqa soliqlarni kamaytirish haqidagi va'dalar va'daligicha qolib ketdi. Shu tariqa ular ham eronliklarning, ham arablarning e'tiboridan tushdi. Natijada butun xalifalikda, ayniqsa Xurosonda, Eronda va Movarounnahrda abbosiylarga qarshi

qo'zg'olonlar avj olib ketdi. Ayniqsa, 755-yilda xalifa Mansur tomonidan Abu Muslimning hoyinona o'ldirilishi bunday xarakatlarni yanada kuchayishiga sabab bo'ldi. Abu Muslimning o'ldirilishiga qarshi uning yaqin izdoshlaridan bo'lgan Sunbod Mug' tomonidan 755-yilda boshlangan qo'zg'olon, Sharqiy Xurosondagi Ustad Sis qo'zg'oloni, 776-783-yillarda bo'lib o'tgan Muqanna boshchiligidagi «Oq kiyimlilar qo'zg'oloni», 806-810-yillarda Samarqandda boshlanib, butun Movarounnahrni larzaga keltirgan Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo'zg'olonlar bunga yorqin misol bo'la oladi.

Sunbod qo'zg'olonidan bir necha yil o'tgach xalifaga qarshi yana xalq xarakati boshlanib, unga *Adam* va arxangel *Gavril* boshchilik qilgan (asli kelib chiqishi eronlik bo'lgan). Ular xalifa al-Xashim saroyiga yaqinlashib, undan ijtimoiy sohada aniq islohotlar o'tkazilishini talab qilgan.

776-yilda o'zini boshida "Xudo timsoli" mujassamlashganligini targ'ib qilgan Hoshim ibn Hakim tomonidan qo'zg'olon boshlandi. U o'z vaqtida Abu Muslimning yordamchisi bo'lgan. U boshi va yuzini ko'k parda bilan o'rab yurgan, shuning uchun al-Muqanna, ya'ni "*Niqobdor*" degan laqab olgan. U savodli, aqlli va tadbirkor bo'lgan. U Mazdak g'oyalariga asoslangan ijtimoiy tenglik va erkin hayotga da'vat etuvchi ta'limotni targ'ib etgan. Muqanna atrofida o'z tarafdorlarini to'plagan. Qo'zg'olon ishtirokchilari oq kiyimda xarakat qilganlari uchun bu qo'zg'olon tarixda "*Oq kiyimlilar*" qo'zg'oloni deb nom qoldirdi.

Abbosiylar davrida asosiy isyonchilar sifatida xurramiylar* tarix sahniga chiqdi. Vizantiyaliklar Xurramiylar bilan yaxshi aloqada bo'lib, Bobek boshchiligidagi (816-837) qo'zg'olonni hozirlashdi. Vizantiyaliklar xurramiylarga harbiy yordam berishib, xalifalikka qarshi qaratishdi. Bunga javoban arab xalifasi Ma'mun Kichik Osiyoga vizantiyaliklarga qarshi 4 marta qo'shin yuborishga majbur bo'ldi (830, 831, 832, 833-yillar). Xurramiylar xarakati Bobekka 838-yili xalifalikka qarshi qayta kurashida ham yordam berishdi. Ayniqsa bu Amoriy shahrida yaxshi natija berdi. Xalifa

* Xurramiylar, xurramiya (fors. xurramdin – "xush, xurram e'tiqodga ega") - sunniylikka qarshi bo'lgan moniylik-mazdakiylikka xos oqimlarning umumlashma nomi. VIII-X asrlarda Eronda ularning shiori ostida g'alayonlar bo'lgan. Ular nafaqat shariatni, balki umuminsoniy axloqiy normalarni ham inkor etganlar, ular barcha man etilgan narsalar joiz deb, jumladan, boshqalarning mol-mulki va hatto ayollariga egalik qilishni ham joiz deb hisoblashgan. Ular Abu Muslim, Maxdiy, Abu Muslimning qizi Fotimaning o'g'li Feruzga ibodat qilib, butun faoliyatlarini islomni buzishga qaratganlar. Ular zardushtiylarning g'oyaviy merosxo'ri bo'lib, mafkurasining asosini dualizm - yorug'lik bilan zulmat o'rtasidagi kurash tashkil qilgan. Ular kishilarning umumiy tengligi, soliq va majburiyatlarni bekor qilish, moddiy boyliklarni teng taqsimlashni yoqlab chiqishgan. Xalifalikdagi barcha qurolli xalq harakatlarini qo'llab-quvvatlashgan.

Ma'mun o'limi oldidan ukasi va vorisi Mutasimga (833-842) xurramiylarga qarshi qattiqqo'llik bilan kurashish vazifasini qo'ydi. Yangi xalifa armiyani qaytadan tuzib, Afshin boshchiligida qo'shinni jangga shayladi. Bu orada xurramiylar xalifa bilan o'zlari uchun ma'qbul bo'lgan shartnomalarni imzoladi. Bobek Vizantiya imperatori Feofil bilan ittifoq tuzdi. Ammo bu paytga kelib qo'zg'olon o'z ahamiyatini yuqotib bo'lgan edi. 837-yil avgustda, bir yillik qamaldan so'ng qo'zg'olonchilarning Talish tog'idagi Bazz qal'a-qarorgohi egallandi. Bobek alban knyazi oldiga qochdi. Uni xalifaga ushlab berishdi va u xochga qoqilib o'ldirildi.

Xalifalik sharqida bo'lgani kabi g'arbdagi qo'zg'olonlar ham xalifalikni larzaga soldi. Yaman va Hijozda shi'alar ko'tarildi (eng yirigi 786-yilda bo'ldi). Xalifa Alining o'g'li Xasanning chevarasi Idris I ibn Abdulloh 786-yilda Hijozda Ali tarafdorlari qo'zg'olonida faol qatnashib, dastlab Misr hududiga, so'ngra Marokash hududiga qochadi. U berberlar ko'magida 789-yilda Marokashning shimoliy hududida Idrisiylar sulolasiga asos soldi. Bu davlat 905-yilda Ismoililar sulolasi tomonidan bosib olindi. Irdis I (789-828) va uning o'rniga taxtga chiqqan Irdis II (793-828) davrida islom madaniyati islomni qabul qilgan berber qabilalari orasida keng tarqaldi. 814-815-yillarda esa Iroqdagi shi'alar Abu Saray boshchiligida isyon ko'tardi. Quyi Iroqda 18-yil (820-yildan) *zutt*-chorvador va baliqchi qabilaning (taxminlarga ko'ra ular *sigan* (*lo'li*) lar bo'lib, Hindistondan V asrda kelgan.) g'alayoni bo'lib o'tdi. 831-yil Misrda bolalari va xotinlarini qul qilib sotilishiga qarshi qo'zg'olon bo'ldi.

Abbosiylar xalifaligining parchalanishi

Abbosiylar xalifaligining parchalanishi xalifa Ma'mun davrida (813-833) boshlandi. Ichki isyonlar sabab, ayniqsa Bobek qo'zg'oloni bois xalifalikning ichki ahvoli og'irlashdi. Shuningdek, u ukasi Amin bilan kurashda ko'rsatgan yordami uchun ko'plab xonadonlarga yuqori lavozimlar bergan edi.

Xuroson amalda Ma'mun davrida yarim mustaqil bo'lib, Toxiriylarning (821-873) to'liq boshqaruvi ostida edi. 821-yilda Somoniy to'rt aka-uka Movarounnahrni idora qilish huquqini qo'lga kiritdi. Keyinchalik o'z davlatiga asos soldi. Hozirgi Tunis va Jazoir hududlarida Ag'labiylar (800-909) sulolasi boshchiligida yarim mustaqil amirlik tuzildi. 868-yilda Misrda ham turk sulolasi bo'lgan Tuluniylar o'z amirligini tuzdi. Bu davlatlar xalifaga nomigagina qaram edi. Xalifa tomonidan ularga yorliq berilib,

hokimiyati rasman tan olingan. Shunday qilib, xalifalikning parchalanishi IX asrning birinchi choragida boshlandi va X asrning oʻrtalarigacha davom etdi.

Xalifa Mutasim (833-842) tomonidan yosh turk gʻulomlari (gʻulom-arabcha, “*yosh*”, “*qul*”, “*harbiy xizmatchi*”) qoʻshini tuzilgan edi. Bobekka qarshi kurash davrida gʻulomlarga xalifa tomonidan katta huquqlar berildi. Oxir oqibatda ular kuchayib, xalifani oʻz yoʻrigʻiga solib oldi. 861-yilda esa gʻulomlar xalifa Mutavvakilni oʻldirishdi. Keyingi toʻrtta abbosiy xalifa ular qoʻlida qoʻgʻirchoq hukmdor boʻldi.

X asr boshiga kelib, xalifalik qoʻl ostida faqatgina Arab Iroqi va Gʻarbiy Eron qoldi. 945-yilda bu hududlar Eronning Buidlar (945-1055) sulolasi qoʻshinlari tomonidan egallandi. Shundan boshlab xalifalar qoʻlida faqat diniy hokimiyat qoldi.

Zanjilar qoʻzgʻoloni, ismoiliylar va karmatlar. IX asrning 60-70-yillarida koʻtarilgan Zanjilar xarakati (qoʻzgʻoloni) (869-883) xalifalikda feodal munosabatlarga, qulchilikka qarshi xarakat edi. “Zanji”lar Afrikadan keltirilgan qora tanli qullarning nomlanishi boʻlib, *Basrada* kanal qazilishida ularning 15 000 nafari ishlagan. Zanjilar qoʻzgʻoloni 869-yilda boshlanib, 14 yil davom etdi. Qoʻzgʻolonga shialardan boʻlgan Ali ibn Muhammad al-Barquy rahbarlik qildi. Zanjiylar xalifalikka qaqshatqich zarba berdi. Basra shahri va uning Obbol, Vasit, Axvaz bandargohlarini, Quyi Iroq va Xuzistondagi shaharlarni egalladi. Uzoq olib borilgan kurashlar natijasida qoʻzgʻolon bostirildi.

Bu paytda “islomni begona gʻoyalardan tozalash” shiori ostida, aslida musulmonchilikka qarshi gʻoyalarni targʻib qiluvchi, eski majusiylilik va mazdakchilikni tiklashga xarakat qiluvchi oqimlar ham yuzaga keldi. Shunday oqimlardan biri Ismoiliylar xarakatidir. Bu xarakat deyarli 400 yil davomida barcha Islom mamlakatlarida, ayniqsa Baxraynda, Misrda, Markaziy Osiyo va Eron tarixida alohida oʻrin tutib keldi.

VIII asr oʻrtalarida *oltinchi* shia imomi Jafar as-Sodiq oʻzining vorisi sifatida katta oʻgʻli Ismoilni emas, boshqa oʻgʻli Muso Kozimni tayinladi. Oltinchi imomning oʻlimidan soʻng shialarning bir guruhi Muso Kozimni tan oldi. Qolgan bir guruhi Ismoilning oʻgʻli Muhammadni imom sifatida tan oldi. Ismoil tarafdorlarining uyushmasi – shiʼalikning *ismoiliylar* oqimi sifatida maydonga chiqdi. Oʻz ichida ismoiliylar ham ikkita sektaga boʻlingan. Birinchisi *fotimiy ismoiliylar* boʻlib, ular imom Muhammad ibn Ismoilning avlodlarini tan oladilar. Ikkinchi oqim esa, *yettita* imom

bo'lishi kerak deb xisoblab, Muhammad ibn Ismoilni so'nggi imom deb bilgan. Keyinchalik ular *karmatlar* deb nomlangan.

Har ikki sekta ham o'zlarining maxfiy jamiyatlarini tuzib, targ'ibotlarini olib borgan. Ismoililar o'rtasidagi bo'linish dastlabki paytda unchalik aniq ko'zga tashlanmagan. Zanjiylar qo'zg'olonida karmat nomi bilan atalgan otryad ishtirok etgan. Taxminan 890-yilda Iroqda karmatlarning katta qo'zg'oloni boshlandi. Unga Xamdan Karmat boshchilik qildi. Karmatlar qullardan tashqari barchani tengligini talab qilishdi. Karmatlar qo'zg'oloni Iroqda 906-yilga kelib bostirildi. 900-902-yillarda Suriyada ham karmatlar qo'zg'oloni bo'ldi.

1055-yilda xalifalikning poytaxti saljuqiylar hukmdori To'g'ulbek tomonidan egallangandan so'ng xalifalikda saljuqiylar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Bu sulola vakillari turk g'ulomlari otryadlari va buidlardan farqli ravishda xalifalar ichki siyosatiga aralashmaganlar. Bunga saljuqiylarning islomning sunniy oqimiga e'tiqod qilishlari ham sabab bo'lgan.

1118-yilda Saljuqiylardan G'arbiy Eron, Iroq va Ozarbayjon hududlarini sulton Mahmud tortib olib, Iroq sultonligiga asos soldi. 1194-yilga kelib xorazmshoh Takash (1152-1200) unga zarba berib, sultonlikni tugatdi. Shundan so'ng Iroqda Abbosiy xalifalar yana yarim asrdan ziyod hukmronlik qiladi. 1258-yilda mo'g'ul xoni Xulaguxon tomonidan so'nggi xalifa Al-Muxtasimning (1242-1258) o'ldirilishi va Bag'dodning mo'g'ullar tomonidan egallanishi bilan rasmiy ravishda Arab xalifaligi tarixi yakunlanadi.

Foydalanilgan va tavsiya etiladigan asosiy hamda qo'shimcha adabiyotlar:

1. Hanawalt B.A. The middle ages: an illustrated history. Oxford University Press. Oxford., New York 1998.
2. Matthew B. Encyclopedia of the middle ages. New York 1995.
3. Roberts J.M., Westad O.A. The history of the World. Oxford university press. 2013.
4. Беляев Е. А. Арабы, ислам и Арабский халифат в ранние средневековья. М., 1965.
5. История стран зарубежной Азии в средние века. М., 1970
6. История стран Азии и Африки в средние века. М., 1987
7. Крымский А.Е. История арабов и арабская литература. М., 1991.
8. Мец А. Мусульманский ренессанс. М., 1973.

9. Фильштинский И.М. История арабов и халифата (750-1517 гг.). М., 2006.

Nazorat uchun savollar:

1. Arab xalqlari yashagan hududlar?
2. Islomgacha bo'lgan Arabiston yarim orolidagi davlatlar haqida gapirib bering?
3. Arablarda yagona dinning paydo bo'lishiga zaruriyat va shart-sharoitlari?
4. Muhammad payg'ambar faoliyatiga to'xtaling?
5. Choryorlar kimlar?
6. Ummaviylar davrida xalifalikni ichki va tashqi siyosati qanday bo'ldi?
7. Arab xalifaligi davlat boshqaruvi va soliq tizimi?
8. Yer egaligi munosabatlari?
9. Ko'tarilgan qo'zg'olonlar?
10. Arab xalifaligining parchalanib ketishi?

MAVZU: XI-XV ASLARDA XITOIY

Reja:

1. *Besh sulola va o' n qirollik davrida Xitoy.*
2. *Lyao imperiyasi. Shimoliy Xitoy xalqining kidanlar bosqiniga qarshi kurashi*
3. *X-XIII asrlarda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi.*
4. *Xitoyning tangutlar, kidanlar va chjurchjenlar bilan munosabatlari.*
5. *Mo 'g'ullar bosqini va hukmronligi yillarida Xitoy.*
6. *Min sulolasi boshqaruvi yillarida Xitoy.*

Tayanch atama va iboralar: *Suy, Tan, Sun, si tyan, gun tyan, guan tyan, xan, kidanlar, Lyao, tangutlar, chjurchjenlar, Buyuk Shu davlati, Van An-shi, G'arbiy Sya, mo'g'ullar bosqini, "oq nilufar gul", min sulolasi, tashqi siyosat,*

Besh sulola va o' n qirollik davrida Xitoy

Xan sulolasi qulagandan so'ng, 265-589-yillar Xitoy tarixiga "Olti sulola" davri nomi bilan kirdi. Bu davrda Xitoyni oltita sulola: G'arbiy Szin (265-316), Sharqiy Szin (317-420), O'ng Sun (420-479), Janubiy Tsi (479-502), Janubiy Lyan (502-559) va Janubiy Chen (557-589) boshqardi.

581-yilda Xitoyda yangi Suy imperiyasiga asos solindi. Suy sulolasi hukmronligi Xitoyda 581-yildan to 618-yilgacha davom etgan. Suy sulolasiga Yan Szyan asos solgan bo'lib, u imperator Ven-Di nomi bilan 581-604-yillarda imperiyani idora qildi. Imperator Ven-Di 589-yilda Xitoyning janubi va shimolini birlashtirib, xitoylik bo'lmagan elatlarning shimoldagi hukmronligiga chek qo'ydi. Suy imperiyasining poytaxti Chanyan shahri edi. Suy imperiyasi dehqonlar qo'zg'olonining avj olishi va ichki nizolar natijasida barham topdi. 618-yilda Tayyuan (hozirgi Shansi viloyati) noyibi Li Yuan hokimiyatni egallab, yangi Tan sulolasiga asos soldi. Osiyoning qudratli davlati bo'lgan Tan imperiyasining gullab-yashnagan davri imperator Syuan-Szun (713-755) hukmronlik qilgan paytiga to'g'ri keldi. Avlodlar xotirasida bu davr Xitoy madaniyatining yuksalgan davri sifatida muxrlanib qoldi. VII asrdan mamlakat iqtisodiyotida bir qator yutuqlarga erishildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini samarali yetishtirish maqsadida yerdan foydalalanishda yangidan taqsimot o'tkazildi. Qayta

ishlov berilgan yer maydonlari kengayib yetishtirilgan mahsulot turlari ko‘paydi. Mamlakat janubida ko‘proq shakarqamish yetishtirila boshlandi. Yangi kanal va suv omborlarining qurilishi natijasida oldinlari ishlov berilmay kelingan yerlar ham o‘zlashtirila boshlandi. VII asr davomida aholining soni ham anchagina ko‘paydi. Oldingi qishloqlar o‘rnida shaharlar soni oshaboshladi. Zamonaviy mehnat taqsimoti tufayli hunarmandchilik rivojlanib, bu hol mamlakatning yanada rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

VIII asrda agrar o‘zgarishlar bilan bir qatorda sulolaviy inqirozlar yuz bera boshladi. Birinchi navbatda g‘aznaga qishloq xo‘jaligidan kelayotgan tushum sezilarli darajada pasaydi. Imperiya o‘zining oldingi vassallik hududlaridan ayrila boshladi. 751-yilda Talos vodiysida arablar bilan bo‘lgan jangda mag‘lubiyatga uchragan Xitoy Buyuk ipak yo‘lida oldingi tutgan mavqeyidan ayrildi. Undan oldinroq Koreya ham Tan sulolasidan ajralib chiqqan edi. Shimoliy-sharqda Xitoy yerlariga kidan qabilalari xavf solmoqda edi. Janubi-g‘arbda (Yunan) da Nanchjao davlati kuchaydi. Tibetliklar va uyg‘urlar hujumi ham nihoyasiga yetmadi. Xitoy dehqonlar tinkasini quritgan holda yuqoridagi davlatlarga qarshi kurash olib borishga majbur bo‘ldi. Xazina esa yanada bo‘shab boraverdi. Imperator saroyida ham siyosiy guruhlar orasida kurash avj oldi. Jamiyatning asosiy muammolaridan biri mamlakat birligiga putur yetayotgani bo‘ldi.

711-yildayoq shimolni ko‘chmanchi chorvador qabilalar xavfidan himoya qilish, savdo yo‘llarining xavfsizligini ta‘minlash maqsadida g‘arbdagi kuchli davlatlar va Tan hukumati „Tzedushi“ nomli general-gubernatorlik institutlarini tashkil eta boshladilar. VIII asr o‘rtalaridan gubernatorlar orasida An Lushan alohida ajralib turgan. U qo‘shni qabilalardan saralangan qo‘shin to‘plagan holda 755-yilda Chanan hududlariga yurish qilib, Tan imperiyasiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Qo‘zg‘olon bostirilgan bo‘lsada, ammo xalq ham uyg‘ondi. Muqaddas xisoblangan “Osmon o‘g‘li” deb nomlangan imperatorga salbiy nazar bilan qaray boshladi.

780-yilda birinchi vazir Yan Yanya taklifiga binoan soliq tizimi to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Yangi soliq tizimi joriy etilib, bundan buyon soliq yerning miqdori va holatiga ko‘ra belgilanadigan bo‘ldi. Barcha aholi o‘z yeri turiga ko‘ra 9 guruhga bo‘lindi. Bu islohotga binoan oldinlari soliqlardan ozod etilgan shaxslar ham soliq to‘laydigan bo‘ldi. Shuningdek, shaharlarda yashovchilar va hunarmandlar ham soliq to‘laydigan bo‘ldi. Yoz va kuz fasllarida undiriladigan ikki marotabali soliq joriy etildi.

Xitoyda shaharlarning rivojlanishi hunarmandchilik ishlab chiqarish kengayishi bilan bog'liqdir. Metallni qazib olishda qayta ishlash alohida o'rin egallagan. XI asr mamlakatda mis qazib olish IX asrga qaraganda 30 barobar oshgan. 1078-yil butun Xitoyda temir ruda qazib olish 75 mingdan 150 ming tonnagacha yetgan kumush va boshqa rangli metallar qazish ishlari ham kengaydi. Temirchilik ishi keng yoyildi.

Besh sulola va o'n qirollik davri. 907-yilda Chju Ven saroyda to'ntarishni amalga oshirdi va so'nggi Tan imperatorini asir oldi. Tan sulolasi zavol topdi. Mamlakat mayda davlatchalarga bo'linib ketib, ularning rahbari esa bir-biri bilan „osmon o'g'li“ unvoni uchun kurashga kirishdi. Tan sulolasining janubiy va markaziy qismida mustaqil qirolliklar paydo bo'ldi. Tarixga „besh sulola va o'n qirollik“ nomi bilan kirgan davr boshlandi. Bu tarixiy davr xronologik jihatdan 907-yildan 960-yilgacha bo'lgan davrni ya'ni Tan sulolasining qulashidan yangi butun Xitoyni birlashtirgan Sun sulolasining hokimiyatga kelguniga qadar bo'lgan davrni qamrab olgan. Aslida uning xronologik chegarasi turli muddatlarni qamrab olgan. Janubda birinchi mustaqil qirollik 891-yilda vujudga kelgan. 907-yilda janubdagi qirolliklar soni yettitaga yetgan. Janubiy Xitoydagi qirollik Sun sulolasi bo'lsa mamlakat ustidan hukmronligini 979-yilda o'rnatgan. Shu boisdan ham 907-960-yillar shartli ravishda olingan. 90 yil davomida Xitoy shimolida hokimiyat besh sulola (So'nggi Lyan (907-923), So'nggi Tan (923-936), So'nggi Szin (936-946), So'nggi Xan (947-950) va So'nggi Chjou (951-960) qo'lida almashildi. Janubda va markaziy viloyatlarda bo'lsa o'nta mustaqil qirollik yuzaga keldi.

Lyao imperiyasi. Shimoliy Xitoy xalqining kidanlar bosqiniga qarshi kurashi

Kidanlar. Lyao imperiyasi. X asrda „besh sulola va o'n qirollik“ davrida Xitoyning shimoli-sharqiy chegaralarida (Mo'g'uliston va unga tutash Manchjuriya hududida) mo'g'ul ko'chmanchi chorvador-ovchi qabilasi kidanlar o'zlarining mustaqil davlatiga asos soldi.

X asrning boshida kidanlarda hokimiyatni ila qabilasining Elyuy urug'idan bo'lgan Abugi (Apoka, Ambogyan) egalladi. 907-yilda u o'zini imperator deb e'lon qildi va merosiy monarxiyaga asos soldi. Davlat dastlab „Kidanlar davlati“, 947-yildan bo'lsa „Buyuk Lyao“ (907-1125) deb atalgan. Lyao imperiyasida shaharlar bunyod etilib, hunarmandchilik va savdo rivoj

topdi. Abugi tomonidan davlat apparati va qonunchilik ishlab chiqildi. X asrning 20 yillariga kelib, kidanlarda o'zlarining yozuvi shakllandi. Buddizm tarqalib, kitob bosish (ksilografiya) yuzaga keldi. Kidan adabiyoti, san'ati va adabiy tili yuzaga keldi. Shaharlarda maktablar va oliy ta'lim muassasalari ochildi.

Kidan imperiyasi qo'shnilari bilan tinimsiz urushlar olib bordi. Ayniqsa Xitoy uning asosiy raqibi edi. 916-926-yillarda kidanlar G'arbiy Manchjuriyada yashovchi manchjur-tungus qabilasini buysundirdi, uyg'ur yerlarini egalladi. Boxay qirolligi tobe etildi. Shuningdek, Xitoyning shimoli-sharqiy va shimoliy yerlari (Shansi va Xebey provinsiyasi), shu bilan birga Xitoy hududidagi So'nggi Szin, So'nggi Xan va Shimoliy Xan (936-979), janubiy Xitoydagi Uyue qirolligi (893-978), Janubiy Tan (937-975), Koryo qirolligi (918-1392), tangutlarning G'arbiy Sya qirolliklari kidanlarning vassalligini tan oldi. Kidanlar davlati Sharqiy Osiyodagi eng qudratli davlatga aylandi. X asr o'rtalarida ularga qarshi faqat Xitoy xalqi qoldi.

Shimoliy Xitoy xalqining kidanlar bosqiniga qarshi kurashi. Xitoy xalqi kidanlarning birinchi bosqinchilik yurishlari boshlangan vaqtanoq ularga qarshi kurash boshladi. 916-yilda Abugi o'zining otliq qo'shinini hozirgi Pekin hududlariga yuborganda, mahalliy qo'shin va aholi ularga qaqshatqich zarba berdi. Keyingi kurashlarda shimoliy hududlarning barcha aholisi ishtirok eta boshladi. Harbiy markazlar vazifasini budda ibodatxonalari bajardi. Joylarda bir necha yuzdan o'n minggacha yetadigan vatanparvar qo'shinlar tuzildi. 944-yilda Lyao qo'shinlari janubga o'zlarining navbatdagi yurishini amalga oshirdi. Shimoliy Xitoydagi So'nggi Szin (936-946) sulolasi hukumat vakillari va qo'mondonlarining passiv xarakati va to'g'ridan-to'g'ri xoinligiga qaramay xalq vatanparvarlari dushmanga qaqshatqich zarba berib, bir necha hududlarni ozod qilishdi.

936-yilda Shansi provinsiyasi feodali, shato qabilasidan bo'lgan Shi Szin Tan shimoliy Xitoy taxti uchun bo'lgan kurashda kidanlar yordami bilan g'olib chiqdi. Lyao imperiyasi hukmdori unga So'nggi Szin imperatori unvonini berdi. Bunga minnatdorchilik sifatida Shi Szin Tan Shansi va Xebey provinsiyalaridagi muhim hududlarni kidanlarga taqdim etdi. Shi Szin Tan o'zini Lyao hukmdorining o'g'li deb e'lon qildi. Har yili oltin va ipakda o'lpon to'lashga rozi bo'ldi.

946-yilga kelib bir guruh Xitoy sarkardalarining xoinligi sababli kidanlar Kayfin shahrini egallab oldi. So'nggi Szin imperatori, Shi Szin Tanning vorisini o'ldirdi. Ammo Kayfin va unga yaqin hududlarning o'n minglab

aholisi dushmanga qarshi qo'zg'olonda ishtirok etdi. Kidanlar ularni shavfqatsizlarcha bostirdi.

959-yilga kelib, So'nggi Chjou armiyasi imperator Chay Jun va sarkarda Chjao Kuan-in boshchiligida kidanlarga qarshi katta jangga kirdi. Chay Jun qo'shinlari Xebey viloyatidagi bir qancha hududlarni ozod qilishdi. Ammo yurishlardan birida Chay Jun og'ir yaralandi va vafot etdi. 960-yilda Chjao Kuan-in (960-976) o'zini imperator deb e'lon qildi. Shu davrdan boshlab, uch yuz yildan ziyod davom etgan Sun sulolasi (960-1279) ning boshqaruvi boshlandi. Sun sulolasining poytaxti 1127-yilga qadar Kayfin, keyin esa Xanchjou shahri bo'ldi. Sun sulolasi dastlab markaziy hokimiyatni mustahkamladi.

X-XIII asrlarda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi

Xitoyning birlashuvi va markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi xo'jalik va madaniyatning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ekin maydonlarining kengayishiga olib keldi. Paxtachilik rivoji, to'quvchilik taraqqiyotiga xizmat qildi. Xuanxe, Byanxe havzalarida irrigatsiya tizimi yaratildi. Sun davriga kelib, metall ishlab chiqarish ham rivoj topdi. Hunarmandchilikning temirchilik sohasining rivojlanishi qishloq xo'jaligi va harbiy qurollar yasashini kengayishiga olib keldi.

Sun sulolasi davrida yerlar quyidagi guruhlariga bo'lingan: si tyan - xususiy yerlar, gun tyan - jamoa yerlari, guan tyan - davlat yerlari. Davlat yerlari o'z navbatida quyidagi guruhlariga bo'lingan: tun tyan - harbiy va ma'muriy inshoot yerlari, chji tyan - amaldorlarga tegishli yerlar, syue tyan - o'quv muassasalariga tegishli yerlarga taqsimlangan. Sun sulolasi davrida asosiy yer solig'i yun shuy bo'lib, u hosilning 20% miqdorida yoz va kuzda ikki marta olingan.

XII asr boshiga kelib, navigatsiya sohasida magnitli kompasdan foydalana boshlandi. Kitob bosishning rivojlanishi natijasida katta katta poligrafiyalar yuzaga keldi. X-XIII asrlarda Xitoyda tashqi savdo rivoj topdi. Guanchjou va Syuanchjou shaharlari dengiz savdosidagi asosiy markazlarga aylandi. Sun imperiyasi 50 dan ortiq davlatlar bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'ygan. Uning import mahsulotlari 200 xildan ziyod edi.

Tashqi savdodagi barcha mahsulotlar ustidan davlat monopoliyasi o'rnatilgan bo'lib, 11 ta portda dengiz bojxonasi tashkil etildi. Hunarmandlar

savdogarlar bilan birga “xan” deb nomlangan turli birlashmalarga birlashdilar. XIII asrda Xanchjouda 414 ta xan bo‘lgan.

Tovar-pul munosabatlarining o‘tib borishi oqibatida pulga ehtiyoj kuchaydi. Bu esa tanga pulning asosiy homashyosi bo‘lgan bronzaga talabni oshirib yubordi. Ammo bronza yetishmaganligi bois pullar temirdan zarb qilinadi. X asrning oxiridan XII asr boshiga qadar Xitoyda 200 mlrd tanga (umumiy og‘irligi 750 ming tonna) zarb qilindi. Bu hol mamlakatda metallning katta qismini faqatgina tanga zarb qilishga sarflanishiga olib keldi. Buning yechimi sifatida X asrning oxiri - XI asrning boshida qog‘oz pul paydo bo‘ldi.

Sun imperiyasida barcha dehqonlar mutlaqo shaxsiy qaram bo‘lgan. Mehnatkash ommaning og‘ir ahvoli ularni yirik yer egalariga qarshi chiqishlariga sabab bo‘ldi. Sun sulolasi boshqaruvining so‘nggi ellik yilida 200 ga yaqin katta va kichik qo‘zg‘olonlar sodir bo‘ldi.

X asrning 60-yillaridan XI asrning 40-yillariga qadar imperiyaning janubi-g‘arbiy qismi isyonlarning asosiy markazi bo‘lib qoldi. 993-997-yillarda Van Syao-bo, Li Sunya va Chjan Yuya boshchiligida qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tdi. 994-yilning yozida qo‘zg‘olonchilar Sichyani hududining katta qismini egalladi. Chendi hududida qo‘zg‘olonchilar “Buyuk Shu davlati”ni tuzib, ma’muriy organlari tashkil etdi. Davlat o‘zining tangalarini zarb qildi. 995-yilning kuziga kelib, uning yetakchilari o‘ldirildi. Qo‘zg‘olon asta-sekinlik bilan so‘nib, 997-yilga kelib bostirildi.

XI asrning 40-yillaridan boshlab feodallarga qarshi xarakatning o‘choqlari shimolga ko‘chdi. 1043-yilning yozida Shandunda askarlar Van Lun boshchiligida isyon ko‘tarishdi va unga dehqonlar hamda shahar ahli kelib qo‘shilishdi. Ularning barchasi qo‘zg‘olon yadrosini yaratib berdi.

Xuanxedan shimol va janubda buddaviylarning maxfiy diniy-siyosiy jamiyati - Miletzuya o‘zining ta’sirini oshirdi. Sekta rahbarlari bir vaqtning o‘zida shimoliy Xitoydagi o‘nta viloyatda qo‘zg‘olon tashkillashtirdi. Xarakat markazi Beychjou shahri bo‘ldi. Qo‘zg‘olon 1047-yil dekabrda boshlandi. 1048-yil boshida xarakat bostirildi. XII asrning 20-30-yillarida Sun imperiyasida sinfiy kurashlar o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Bu vaqtda janubiy va markaziy provinsiyalarda norozilik chiqishlari sodir bo‘ldi. 1120-1122-yillarda Fan Lo boshchiligida katta qo‘zg‘olon bo‘ldi. Qo‘zg‘olon 1122-yil kuzgacha davom etdi.

XI asrning 30-40-yillariga kelib, o‘zaro ichki urushlarda to‘xtalish davri bo‘ldi. Davlatdagi tabaqalar orasida munosabatlarning yaxshilanishi hamda

doimiy chet el bosqini xavfi amaldorlar va olimlarni iqtisodiy, siyosiy, harbiy va madaniy o'zgarishlar qilishga undadi. Fan Chjun-yan (989-1052), Li Gou (1009-1059) kabi islohotchilar ma'muriy apparatni isloh qilishga xarakat qildi.

XI asrning 40-yillariga kelib islohotlarning amaldagi qadamlari qo'yildi. Islohotlarning eng jadallashgan davri 1069-1076-yillarda hukumatni boshqargan Van An-shi davri bo'ldi. Van An-shi (1021-1086) katta amaldor oilasida dunyoga keladi. 1042-yilda davlat imtixonidan o'tib, tuman hokimi lavozimiga tayinlanadi. 50-60-yillarda Van o'zining mamlakatni inqirozdan olib chiqishga qaratilgan dasturini imperatorga taqdim etadi. 1069-yilda u bosh vazir yordamchisiga aylanadi. 1070-yilga kelib bosh vazir etib tayinlandi.

Imperator Chjao Syuy (1067-1085) ning ko'magida Van An-shi va uning tarafdorlari "yangi qonunlar" nomi bilan ma'lum bo'lgan islohotlarni boshlab yuboradi. Davlat lavozimiga imtixonlar va xalq shikoyatlarini ko'rib chiqish tizimi qaytadan ishlab chiqildi. Endi oddiy xalq vakillari ham davlat lavozimiga imtixonda qatnasha boshladi.

Iqtisodiy sohada markaziy hokimiyatning moliyaviy-iqtisodiy holatini yerlarni yangidan ro'yxatdan o'tkazib va soliq tizimini yo'lga qo'yib yaxshilashga xarakat qilindi. Ammo Van An-shiga qarshi norozi kayfiyatdagi kuchlar yuzaga keldi. Bu guruh tepasida Sim Guan turdi. Ular umumiy ma'noda islohotlarga emas, balki, Van An-shining siyosiy yetakchiligi oshib ketishiga qarshi chiqdi. Bu kurash natijasida saroyda guruhlariga bo'linib ketish sodir bo'ldi. Van An-shi islohotchilar orasida fikrlarning turlicha bo'lib ketishi natijasida lavozimini bo'shatib berdi. Ammo islohotlar 1086-yilgacha davom etdi. Imperator Chjao Syuy o'limidan so'ng yosh imperatorga regent sifatida tayinlangan onasi saroyini boshqaruvini Sim Guanga topshirib qo'ydi. Sim Guan yangi siyosatni rad etib, an'anaviy boshqaruv tizimini tikladi. Biroq Sim Guan tezda o'ldi. Shu bilan birga regent malika ham vafot etdi. Shundan so'ng yosh imperator Chje-szun islohotlarni qayta tiklashga xarakat qildi. Ammo faqatgina yirik feodallar manfaatiga xizmat qiluvchi islohotlarga tiklandi.

Xitoyning tangutlar, kidanlar va chjurchjenlar bilan munosabatlari

Tangutlarning G'arbiy Sya davlati. X asrning oxiri-XI asrning boshlariga kelib Xitoyning shimoli-g'arbiy chegaralarida yangi xavf - Si Sya

(982-1227) – Gʻarbiy Sya (xitoyliklar uni shunday atagan) yuzaga keldi. Davlatga qadimgi koʻchmanchi syan qabilasining vorisi tangutlar asos soldi.

“Besh sulola va oʻn qirollik” davrida tangutlar Xitoy boshqaruvi ostida boʻlib, uning hukmdori nomigagina vassal qaramlikni tan olgan edi. 982-yilga kelib, tangut yoʻlboshchisi Sun saroyi bilan aloqalarni uzdi. Yangi mustaqil davlatga asos soldi. Tangut jamiyati feodal-patriarxal shaklda edi. Ijtimoiy tuzumda, davlat apparati tarkibida va harbiy tashkilotlarda patriarxal-urugʻchilik tizimi saqlanib qolgandi. Tangut urugʻ oqsoqollari qoʻlida koʻp sonli kuchli qoʻshin bor edi.

Deyarli 250 yil mavjud boʻlgan Gʻarbiy Sya davlatida tangut xalqining oʻziga xos madaniyati shakllandi va XII asrda ravnaq topdi. Tangutlarning oʻz yozuvi, diniy va dunyoviy adabiyoti, maktab va akademiyasiga, tarixi yoritilgan xronikalariga ega boʻldi. Oʻziga xos musiqa madaniyati va sanʼati yuzaga keldi.

Butun XI asrda Gʻarbiy Sya Sun sulolasi bilan kurash olib bordi. 1006-yilda tangutlar qiroli Sun sulolasi bilan tinchlik shartnomasini imzoladi. Shunday qilib, Sun sulolasi mustaqil tangut davlatini mavjudligini tan oldi.

Gʻarbiy Sya davlati Yuan-xao (1031-1048) davrida kengaydi va mustahkamlandi. 1038-yilda Yuan-xao imperator unvonini qabul qildi. U kuchli qoʻshin tuzdi. Ayniqsa uning “temir zirxli” otliqlari qoʻshinda asosiy rol oʻynardi. 1040-1044-yillarda ikki davlat uchun ogʻir kechgan urush boʻlib oʻtdi. Tuzilgan tinchlik shartnomasiga koʻra, har yili Sun sulolasi tangutlarga katta miqdorda tovon toʻlashi belgilandi. Keyingi davrda ikki davlat oʻrtasida Xitoyning chjurchjenlar bosqini sababli kuchsizlanganni bois urush kelib chiqmadi.

XII asrning toʻrtinchi choragi boshida kidanlar chjurchjenlarga yurish qilganda tangutlar Lyao davlatiga yordam berdi. Ammo tezda tangutlar qudratli chjurchjenlar tomonidan tor-mor keltirildi.

Sun imperiyasining kidanlar bilan kurashi. XI asrning oxiriga qadar Sun sulolasining asosiy va xavfli raqibi kidanlar boʻlib qoldi. Kidanlar imperiyaga tinimsiz yurishlarni amalga oshirardi. Imperiya ularni qiyinchilik bilan qaytarib turdi. 979 va 986-yillardagi muvaffaqiyatsiz urushlardan soʻng 1004-yilda Kayfun yaqiniga kidan qoʻshinlari kirib keldi. Sun sulolasi Xitoy uchun juda ogʻir boʻlgan kelishuvni imzolashga majbur boʻladi. Har yili imperiya kidanlarga katta hajmda oʻlpon toʻlashi belgilanadi.

1042-yilda kidanlar Sun va Gʻarbiy Sya oʻrtasidagi urush holatidan foydalanib, Xitoy hukumatiga yangi shartlar qoʻyadi. Kidanlarga toʻlanadigan

to'lov miqdori oshirildi. 1075-yilda Lyao hukumati Shansi hududini o'z boshqaruviga berishni talab qildi. Bu kidanlarning xalqaro siyosiy maydondagi so'nggi xarakati bo'ldi.

Chjurchjenlarning Szin davlati. XII asrga kelib imperiya uchun tungus-manjur qabilasi bo'lgan chjurchjenlar asosiy xavfga aylandi. XII asr boshlariga kelganda chjurchjenlarda ibtidoiy jamiyat ildizlari barham topib, ular feodal munosabatlarga asoslangan jamiyatga o'tishdi. Chjurchjen qabilasi Vanyan urug'ining harbiy-siyosiy yetakchiligida birlashdi. Ularda davlatchilik yuzaga keldi.

1113-yilda vanyan qabilasi yo'l boshchisi Aguda (1115-1123) X asrdan buyon chjurchjenlar ustidan hukmronlik qilib kelayotgan kidanlarga qarshi isyon ko'tardi. Kidanlar yerlarini egalladi. Ikki yil o'tib, mustaqil qirollikka asos soldi. Uni Szin deb nomladi. Aguda imperatorga aylandi. Szin imperiyasi ilk feodal harbiy davlat edi. XII asrning birinchi choragi oxiriga kelib, imperiya harbiy-siyosiy kuch jihatdan yetakchi davlatga aylandi.

XII asrning boshiga kelib Lyao imperiyasi xo'jalik, siyosiy va harbiy sohada katta yo'qotishlarga uchradi. Tinimsiz urushlar davlat zaxiralarini tugatib, xalqning ahvolini og'irlashtirdi. Imperiya ichida ham muntazam ravishda qaram qabila va xalqlarning isyonlari sodir bo'ldi. Shu bilan birga kidanlarning qaram dehqonlari, erkin kishilari, qullari, askarlari ham ochiqdan-ochiq hukumatga qarshi chiqa boshladi.

1118-yilda Sun sulolasi Szinning harbiy kuchidan foydalanib, Lyaoni mag'lub etish va X asrda unga o'tib ketgan Shimoliy Xitoy yerlarini qaytarish maqsadida chjurchjenlar bilan muzokaralar boshlaydi. Muzokaralar natijasida Szin - Sun ittifoqi tuzildi. Ammo bu Xitoy uchun og'ir bo'ldi. Chjurchjenlarga har yili katta miqdorda tovon to'lashdan tashqari chjurchjenlarga saroy ichki hayotiga aralashuviga imkon beruvchi boshqa imtiyozlar berildi.

1125-yilda Kidanlar imperiyasi quladi. Kidanlarning bir qismi Tolos va Chu daryosi havzasiga kelib joylashdi. Bu yerda qoraxitoylarning G'arbiy Lyao davlatiga asos soldi. G'arbiy Lyao 1211-yil mo'g'ullar bosib olguncha mavjud bo'ldi. 1125-yilning qishidayoq chjurchjenlar Sun imperiyasi bilan tuzilgan kelishuvni buzib, Xitoy hududiga bostirib kirdi. 1127-yilning boshida Szin armiyasi Kayfin shahrini egalladi. Sun imperatori va oila a'zolari asir olindi. Shu tariqa chjurchjenlar Xuanxe daryosidan shimoldagi hududlarni egallab oldi.

1127-yil iyunda Xenanda asirlikdan qochgan imperator o'g'li o'zini "oy o'g'li" deb e'lon qildi. Shu davrdan Sun sulolasi boshqaruvining ikkinchi davri-Janubiy Sun (1127-1279) tarixi boshlandi. Xanchjou Janubiy Sunning poytaxtiga aylantirildi.

Mo'g'ullar bosqini va hukmronligi yillarida Xitoy

1205-yilda (Temuchin hali Chingizxon unvonini qabul qilmagan paytda), keyinchalik 1207 va 1209-yillarda mo'g'ullar qo'shini tangutlarning G'arbiy Sya qirolligiga harbiy yurishlarni amalga oshirdi. Tangut hukmdori o'zini Chingizxonning vassal deb tan oldi. 1211-yildagi chjurchjenlarga qarshi yurishda o'z qo'shini bilan ishtirok etdi. 1215-yilda mo'g'ullar Pekinni egalladi. Shu davrdan boshlab mo'g'ullarning Xitoy hududidagi hukmronligi boshlandi.

1234-yil fevralda mo'g'ul va janubiy sunlarning birlashgan qo'shinlarining xarakatlari Szin saroyining oxirgi panohi bo'lgan Saychjou shahrining qulashi bilan tugadi. Imperator Ay-Szun (1224- 1234) o'z joniga qasd qilib, u tomonidan belgilangan voris isyonkor askarlar tomonidan o'ldiriladi, shu tariqa Chjurchjen davlati tarix sahnasidan ketdi.

1235-yilda mo'g'ul xonlarining navbatdagi bo'lib o'tgan qurultoyida bir vaqtning o'zida qo'shinlarni G'arbga, Markaziy Osiyoga, Koreyaga va Xitoyga qarshi yurish qilishlari masalasi ko'rib chiqildi. Janubiy Sun davlatiga qarshi jangovar xarakatlar 1235-yilning noyabr oyida boshlangan. 1236-yil Xitoy uchun fojiali bo'ldi. Fevral oyida janubiy Shensi qabilasida kuchli janglar boshlanadi. Dashtliklar Myanjou markazini ishg'ol qilib, gornizon qo'mondonini asirga oladi va o'ldiradi. Mo'g'ullar dastlabki zarbani Daan uyezdiga yo'naltirib, asosiy jangovar kuchlarini Sichuan yo'lini qo'riqlaydigan, Xitoy qo'shinlarining katta guruhi joylashgan Sinye qal'asiga qaratdi. Bu holda qobiliyatli sarkarda Sao Yu-ven qurshab olingan xalqadagi armiyani halos etib, yordamga boradi. Bir qancha janglarda g'oliblikni qo'lga kiritgan sarkarda Sao Yu-ven mo'g'ullarni chekinishga majbur qiladi.

Taxtga Mengu (1251-yil, iyul) o'tirgandan keyin mo'g'ul zodagonlarining eng muhim tashqi siyosati maqsadlaridan biri Janubiy Sun imperiyani zabt etish bo'lib qoldi. 1257-yilning oxirida Ulug' Xon Janubiy Sunga qarshi yangi jangovar yurish masalasini maxsus yig'ilishda bayon qilib, harbiy xarakatlarning strategik rejasini tuzdi. Unga ko'ra mo'g'ul

qo'shinlari 1258-yilda Sun kuchlarini bir zarbada yanchib tashlash uchun turli yo'nalishlarda (shimol, g'arb va janubi) bir vaqtda zarba berish belgilandi.

1267-yilning dekabrda Xubilay mo'g'ullar tomoniga o'tgan Sun bosh qo'mondalaridan Lyu Chjen tomonidan Janubiy Xitoyga so'nggi zarbani berish taklifini qabul qiladi. Birlamchi zarbani Lyu Chjen Xanshuy pastki oqimida nazorat qilinayotgan va mustahkam qo'riqlanayotgan Syan'yan qal'asiga qaratadi. Lyu Chjen fikricha Syan'yanni bosib olsa, mo'g'ullar Xan orqali Yanszi daryosiga o'tib, u yerdan suv yo'llari orqali shahar markaziga kuchli hujumni boshlashi mumkin edi.

1271-yilda Xubilay Xitoydagi mo'g'ullarning hukmdoriga aylandi. O'zining sulolasini Yuan (1271-1368) deb nomladi. Shu davrdan boshlab Xubilay o'zining asosiy kuchlarini Janubiy Xitoyni to'liq buysundirish uchun yo'naltirdi. Mo'g'ul xonining otliq qo'shini Sun armiyasini janubi-sharqqa siqib chiqardi. 1276-yilda Janubiy Sun imperiyasining poytaxti-Xanchjou shahri egallandi. Bu bilan Xitoy xalqining kurashi to'xtab qolmadi. Kurashga Xitoy xalqining milliy qahramoniga aylangan Ven Tyan-syan (1236-1282) boshchilik qildi. 1275-yilda u ko'ngillilardan tashkil topgan armiyani yuzaga keltirdi. U Szyansi provinsiyasini mo'g'ullar qo'lidan ozod qilishga erishdi. 1278-yilda mo'g'ullar xitoylik xoin feodallarning ko'magida Ven qo'shinlarini mag'lub etdi. Uning o'zi asir olinib, bir necha yildan so'ng Pekinga olib kelinib, qatl etildi. 1280-yilda mo'g'ul qo'shinlari Sun sulolasining so'nggi harbiy kuchlarini dengizda bo'lgan jangda mag'lub etdi. Shu bilan Xitoyni egallash nihoyasiga yetdi. Bu bilan asrlar davomida asosan ikki qismga – janub va shimolga bo'linib rivojlanib kelayotgan Xitoy mo'g'ullar tomonidan birlashtirildi.

Mo'g'ullar Xitoyda aholini milliy va diniy mansubligiga ko'ra to'rt tabaqaga bo'ldi. Birinchi tabaqaga mo'g'ullarning o'zi kiritildi. Ikkinchi "chet ellik" tabaqasini esa mo'g'ullar bosib olgan yoki ular bilan aloqasi bo'lgan bir necha xalqlar tashkil etdi. Uchinchi toifaga shimoliy xitoyliklar, kidanlar va chjurchjenlar kirdi. To'rtinchi tabaqani esa janubiy xitoyliklar (Janubiy Sun imperiyasining aholisi) tashkil etgan. Xitoy aholisi o'rtasidagi tabaqalanish qonuniylashtirildi. Hukumat lavozimlarini faqatgina dastlabki ikki tabaqa vakillari egallashi belgilandi. Shu davrdan boshlab Xitoy tarixida davlat apparatida lavozimlarga hatto Yevropaning turli davlatlaridan bo'lgan shaxslar ham saylana boshladi. Ular ichida venetsiyalik savdogar Marko Polo (1254-1323) mashxur xisoblanadi. Bu davrda Xitoyga chet elliklar (savdogarlar, hunarmandlar, diplomatlar, sayohatchilar) ning kirib kelishi

ko‘paydi. Xatto, 1294-yilda xon qabulida bo‘lgan Rim papasining elchisi, monax Jovanni Monte Korvino umrining oxiriga qadar Xitoyda qolgan. 1318-1325-yillarda Xitoyda italiyalik sayohatchi, missioner Odoriko di Pardenone (1286-1331) yashagan.

Xitoy xalqini mahalliy rahbarlarsiz boshqarish mumkin emasdi. Chunki, Xitoy feodallari orasida maxfiy kelishuvlar va isyonlar avj olib ketgandi. Bunday isyonlardan biri 1262-yilda Shandunda, 1282-yilda Pekinda bo‘ldi. Buni tushunib yetgan mo‘g‘ullar, oxir-oqibatda mamlakatni boshqarish uchun Shimoliy Xitoy feodallarini chaqirishga majbur bo‘ldi. Faqatgina fuqarolik va ma‘muriy organlardagi yuqori lavozimlar hamda harbiy rahbarlik lavozimlari mo‘g‘ullar qo‘lida qoldi.

Deyarli 90 yil davom etgan mo‘g‘ullar hukmronligi yillarida muntazam ravishda ularga qarshi Xitoy xalqining norozilik chiqishlari bo‘lib turdi. Yuan sulolasi vazirlaridan birining xisobiga ko‘ra 1283-yilning o‘zida 200 dan ziyod katta va kichik ommaviy xalq namoyishlari sodir bo‘lgan.

XIV asrda Xitoy xalqining mo‘g‘ullarga qarshi kurashida “oq nilufar gul” deb atalgan maxfiy jamiyati muhim rol o‘ynadi. Jamiyatning oshkora chiqishlari XIV asrning 20-yillarida boshlanib, Shandun, Xenan va Xebey provinsiyalarini qamrab oldi. Yildan-yilga jamiyatning faoliyati kengayib bordi. 30-40-yillarga kelib jamiyat shimoli-sharqiy provinsiya Sichuanga yoyildi.

Uzoq davom etgan Xitoy xalqining kurashida mo‘g‘ullarga hal qiluvchi zarbani Chju Yuan-chjan qo‘shinlari berdi. 1356-yilda uning qo‘shini yangi imperiyaning asosi bo‘lib xizmat qilgan Nanszinni egalladi. Shundan so‘ng Xitoyning janubi bosqinchilar qo‘lidan ozod qilindi. Shu davrda ma‘muriy va harbiy organlar tashkil qilindi. 1356-yilda yerlarni qaytadan berish, qishloq xo‘jaligini yo‘lga qo‘yish hamda soliqlarni tartibga solish maqsadida maxsus organ tashkil etdi.

Min sulolasi boshqaruvi yillarida Xitoy

1367-yilning oxiriga kelib Chju Yuan-chjan armiyasi shimolga - Pekinga katta qo‘shin bilan hujum boshladi. 1368-yil yanvarda Chju Yuan-chjan o‘zini Xitoy imperator deb e‘lon qildi. Yangi sulola Min (1368-1644) nomini oldi. Sentabr oyiga kelib Pekin egallandi. Nankin esa poytaxt qilindi. Biroq yangi hukumat qo‘liga to‘lig‘icha Xitoyning provinsiyalari o‘tmagan edi.

Hokimiyatga kelgan Chju Yuan-chjan markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun bir qancha ishlar qildi. Agrar sohada u min-tyan - qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yerlarni taqsimlashda dehqonlarga bir qancha imkoniyat berdi. Shu bilan birga zaxira yerlar - guan-tyanning taqsimlanishi ustidan qattiq nazorat o'rnatdi. Yerlar yersiz va kam yerli aholiga bo'lib berildi. Ko'plab dehqonlar bo'sh yotgan yerlarga ko'chirilib, qishloq xo'jaligida bir necha sohalarga asos soldi.

Soliq tizimini ham tartibga solib, oz miqdorda soliqlar joriy etildi. Qishloq xo'jaligidagi bir necha kategoriyadagi yerlar soliqlardan ozod etildi. 1370-yilda aholini ilk bor ro'yxatga oldi, uning maqsadi barcha fuqarolarni xisobga olish va qishloq xo'jaligi yerlari hajmini aniqlash edi. Chju Yuan-chjanning agrar sohada amalga oshirgan siyosati kuchli markazlashgan imperiyaning yaratilishiga zamin bo'ldi.

Lekin, yangi imperiyaning dastlabki boshqaruvi yillarida yuan sulolasini tiklashga bo'lgan xarakatlar uning tashqi siyosatdagi asosiy xavfidan biriga aylandi. Oz miqdorda qurolli kuchga ega bo'lgan Yuan sulolasi Xitoyni berib qo'yishni istamadi. Shu boisdan u Mo'g'uliston hududida turib Xitoyga yurish boshladi. Min sulolasining qo'llagan diplomatik choralari tufayli ular bilan tinchlik bitimi imzolandi. Bu davrda yana yapon qaroqchilari Xitoy uchun asosiy xavfdan biriga aylandi. 1369-yilda yaponlarning qaroqchi flotlari Shandun provinsiyasining dengiz bo'yi hududlariga hujumlarini amalga oshirdi. Keyinchalik qaroqchilar janubi - sharqiy provinsiya - Chjetszyanga hamda boshqa dengiz bo'yi hududlariga hujum uyushtirdi. Bu esa hukumat tomonidan dengiz bandargohlarini yopib qo'yilishiga hamda aholini ochiq dengizga chiqishining ta'qiqlanishiga olib keldi.

Bu davrda shuningdek, mo'g'ullarning Xitoy chegara hududi yaqinida qolgan kuchlari ham mamlakatga xavf solib turardi. Min ma'muriyati shu boisdan 1371-yilda Gansu va Sichuan hududlariga, 1382-yilda Yunnan va 1387-yilda- Lyadounga harbiy xarakatlarni amalga oshirdi. Shu tariqa hozirgi Xitoy hududlaridan mo'g'ullar batamom siqib chiqarildi.

Chju Yuan-Chjanning o'limidan so'ng Xitoyda taxt uchun kurash boshlanib ketdi. 1400-1402 yillarda Xitoydagi hokimiyat uchun o'zaro kurash Chju Yuan-Chjan o'g'illaridan biri bo'lgan, Pekin shahri va uning atroflariga egalik qilgan Chju Di boshchiligi ostidagi feodallar guruhining g'alabasi bilan yakunlanadi. 1402-yilda Chju Di imperator deb e'lon qilindi. Chju Di markaziy hokimiyat apparatida o'zaro kurashlar davrida yo'q bo'lib ketgan, otasi tomonidan asos solingan konfutsiy-tan boshqaruv modelini (yuqori

palata, ijro hokimiyatidagi yettita markaziy vazirlik, provinisyalardagi boshqaruvni fuqarolik va harbiy sohalar bo'yicha ajratish, imtihon tizimi va boshqalar) qayta tikladi. Bu tizim deyarli yuz yil davomida o'zini samarali ekanligini ko'rsatib berdi.

Mo'g'ullarning imperiya hududidagi boshqaruviga batamom chek qo'yilgandan so'ng (mo'g'ullar shimolda, hozirgi Mo'g'uliston chegarasiga qadar siqib chiqariladi), min armiyasi janubga, Vitnam hududlariga bir necha muvaffaqiyatli yurishlarni amalga oshirdi. Bundan tashqari, Xitoy floti Chjen Xe boshchiligida 1405-1433-yillarda Janubi - Sharqiy Osiyo davlatlariga, Hindiston va hatto Afrikaning sharqiy sohillariga yetib borishdi. Ularning oldida keng vazifalar qo'yilgan edi: geografik kashfiyotlarni o'rnatish va iloji boricha Xitoy imperiyasi ta'sirini kengaytirish. Juda qimmatli ekspeditsiyalarda o'nlab kemalar ishtirok etdi, ularning bortida 30 mingga yaqin kishi bor edi. Bu ekspeditsiyadan maqsad Janubi - Sharqiy Osiyo mintaqasida Min imperiyasini hukmronligini o'rnatish va Amir Temurga qarshi kurashishda ittifoqdoshlarni topish edi. Shu bilan birga bu davrga kelib, Xitoy siyosatchilari va dengizchilari uchun Sumatra, Yava va Filippin katta qiziqish uyg'otgan. Amalda Xitoy kemalari nafaqat Janubi - Sharqiy Osiyo davlatlariga, balki G'arbda Hindiston, Seylon, Fors ko'rfazigacha suzib borishga erishdi. Chjen Xe boshchiligidagi ekspeditsiyalar Xitoy davlatining nafaqat quriqlikdagi, balki uzoq dengiz ekspeditsiyasini tashkil etish qudratini ko'rsatib berdi. Ikkinchi (1407-1409) va uchinchi (1409-1411) ekspeditsiyalari oldingi marshrut bilan mos tushgan. Keyinchalik Chjen Xe kemalari Xitoydan uzoq mamlakatlarga borib yetgan. To'rtinchi ekspeditsiya (1413-1415) paytida ular Fors qo'ltig'idagi Urmuzd (Hurmuz)ga qadar, keyingi sayohat vaqtida (1417-1419) esa Lasu (Qizil dengizdagi Mers-Fotima shahridagi manzilgoh) va Afrikaning Somaliya qirg'oqlaridagi bir qator shaharlarga - Mogadisho, Brabu, Chjube va Malindaga qadar yetib boradi. Oltinchi suzish vaqtida (1421-1422) Chjen Xe floti yana Afrika qirg'oq bo'ylariga yetadi va nihoyat, oxirgi xisobga ko'ra yettinchi sayohati (1431-1433) vaqtida asosiy eskadra Urmuzga qadar, ekspeditsiyaning ba'zi ishtirokchilari esa hatto Makkaga yetgan. Bu harbiy ekspeditsiya xazinadan katta mablag' sarflanishi xisobiga amalga oshirildi. Mamlakat uchun hech qanaqa foyda olib kelmadi. Shu boisdan ham oxir-oqibatda katta mablag' evaziga saqlab kelinayotgan flot kemalari buzib yuboriladi.

XV asrnig 40 yillarida Min hukumati Xitoydan tashqaridagi mintaqalarda tashqi siyosiy faoliyatini tugatishga qaror qildi. Bunga ikki omil

sababchidir: resurslarning tugashi xalqlar tomonidan xavfning vujudga kelishi, Janubiy yoʻnalishdagi faol tashqi siyosatning tugatilishi mamlakatning yopilishi bilan kuzatilgan. 1446-yili Xitoydan uzoq davlatlarning elchilari joʻnatilgan. 1552-yili butun flotni Xitoy sohillariga chaqirib olish va yirik tonnali kemalarni qurishni toʻxtatish qarori qabul qilingan.

XVI asr davomida yevropaliklar bilan aloqa oʻrnatildi. Xitoy sohillarida birinchilardan boʻlgan yevropaliklar ham savdogar, ham qaroqchilar boʻlishgan. Bungacha Xitoy faqat arablar va eronliklar bilan savdo aloqalarini rivojlantirgan. Bu savdo aloqalaridagi muhim nuqta xisoblangan Malakka orolini 1511-yilda portugallar egallashdi. Guanchjouga kelgan portugaliyaliklar imperiya bilan muntazam aloqalarni oʻrnatgan. Ular Xitoy bilan savdo aloqalarini yaxshilab dengiz boʻyi shaharlariga koʻchib kelgan. Biroq XVI asr oʻrtalarida Xitoy hukumati tomonidan ularning bu shaharlardagi faoliyati taqiqlangan, portugaliyaliklar uchun Guanchjoudan uzoq boʻlmagan hududdagi kichik porti - Makao portugal koloniyasi qoldirilgan. Portugallardan keyin, gollandiyaliklar kelishgan va 1624-yilda Tayvan orolini egallagan. Savdogarlardan tashqari Xitoyda katolik missionerlari ham kelishgan, ularning eng mashhuri Matteo Pichchi (1552-1610) edi. U Xitoyda xristianlikni tarqatish va imperiyaning oliy amaldorlari oʻrtasida Yevropa davlatlari haqida maʼlumotlarni tarqatish uchun koʻp ishlar qildi. Matteo Pichchi saroyga kiritilgan yevropaliklardan birinchisidir va umrining qolgan qismini Xitoyda oʻtkazgan.

XVI asrning boshlariga kelib Moʻgʻulistonni oʻz qoʻli ostida birlashtirgan Dayanxan (1500-1543) Min imperiyasining shimoliy chegaralariga bostirib kirdi. Moʻgʻullarning Xitoyga bosqinlari yana doimiy tus oldi. Bosqinlar faqatgina 1570-yilda Janubiy Moʻgʻuliston xoni Oltinxon (1507-1583) bilan Min hukumatining tinchlik kelishuvi imzolanishiga qadar davom etdi. Kelishuvga koʻra chegara hududlarda koʻchmanchi moʻgʻullar erkin savdo qilishi uchun bir necha bozorlar bunyod etildi. Bundan tashqari Pekin har yili oʻlpon toʻlab turish vazifasini oldi. Bu esa moʻgʻul zodagonlarini qoniqtirardi va shu boisdan ular yurishlarga chek qoʻydi.

XVI asrning 40-yillariga kelganda yaponlarning Xitoy sohillariga qaroqchilik yurishlari qaytadan avj oldi. 1549-yilda Chjetszyan va Futszyan viloyatlari yaponlar tomonidan egallandi. 1550-yilda yapon kemalari Yanszi daryosi havzasiga kirdi va daryoning quyi oqimida joylashgan, Xitoyning

“janubiy poytaxti” – Nanszin shahrini egalladi. Shahar faqatgina 1567-yilda mahalliy aholining ko‘magida yaponlardan qaytarib olindi.

Yaponiyani birlashtirgan Tayatomi Xidoyosi qo‘shni davlatlarni zabt etish rejasini tuzdi. 1592-yili yaponlar Koreyaga bostirib kirdi. Koreya hukumatining iltimosiga ko‘ra Min hukumati yapon intervensiyasiga qarshi kurash boshladi.

1598-yilga kelib yaponlar Koreya hududidan quvib chiqarildi. Ammo bu vaqtga kelib Xitoyning shimolidagi Lyaodunda yangi xavf – manchjurlar davlati yuzaga kelgan edi. XVI asrning 80-yillarida manchjurlarni Nurxachi (1559-1626) o‘z qo‘l ostida birlashtirdi. Dastlabki vaqtlarda Nurxachi Pekinga o‘lpon to‘lab turdi. 1609-yilga kelib manchjurlar Pekinga tovon to‘lashni to‘xtatib, Min sulolasidan mustaqil ekanligini e‘lon qildi. Yangi davlat XII-XIII asrlarda mavjud bo‘lgan chjurchjenlarning davlati kabi Szin (oltin) deb ataldi. Szin davlati 1618-yilda Xitoy hududlariga bosqinchilik yurishlarini boshladi.

Narxachining vorisi Abaxay (1626-1643) bir necha muvaffaqiyatli g‘alabalardan so‘ng 1636-yilda o‘zini imperator deb e‘lon qildi va davlatni Sin (toza) deb qaytadan nomladi. Abaxay davrida Janubiy Mog‘uliston buysundirildi, 1637-yilda Koreya hududlariga yurish amalga oshirildi hamda Koreyaning vassal qaramligi haqidagi kelishuv imzolandi.

Min sulolasi tomonidan tashqi dushmanga nisbatan taslimchilik siyosatini amalga oshirishi og‘ir ahvolda bo‘lgan xalqni norozilik chiqishlariga sabab bo‘ldi. 1628-1638-yillarda Xitoy shimolida qo‘zg‘olonlar bo‘lib o‘tdi. Qo‘zg‘olonlar dehqonlarning urushlariga aylanib ketdi. Shimoldagi dehqonlar qo‘shiniga Li Szi-chen boshchilik qildi. Janubda bo‘lsa qo‘zg‘olonchilarni bir guruhiga rahbarlik qilayotgan Chjan Syan-chjun o‘z davlatini tuzdi. Min qo‘shiniga bo‘lsa San-guy boshchilik qilib, u manchjurlar yordamida dehqonlar qo‘zg‘olonini bostirish uchun xarakat qildi. Manchjurlarning yordami qo‘zg‘olonni bostirilishiga hamda 1644-yil 6-iyunda dehqonlar qo‘lida turgan Pekinni egallanishiga olib keldi. Shu tariqa Xitoyda dehqonlar qo‘zg‘oloni bostirildi. Xitoy boshqaruvi esa Abaxayning o‘g‘iliga topshirildi. U imperator sifatida Pekinda taxtga o‘tirdi va Xitoy tarixida Min sulolasining hukmronligiga barham berib, yangi Sin (1644-1912) sulolasi boshqaruvini boshlab berdi.

Dehqonlarning qarshilik xarakatlari endi manchjurlarga qarshi milliy kurashga aylanib ketdi. Xarakatning rahbarlari - Li Szi-chen (1645) va Chjan Syan-chjun (1646) larning janglarda halok bo‘lishi dehqonlar qo‘zg‘oloni

kuchsizlantiridi. Xitoyda manchjurlarga qarshi kurash 1683-yilgacha Tayvanda olib borildi. Shu yili Tayvan hududlari ham egallangandan so'ng manchjurlar hukmronligi Xitoy hududlarida to'liq qaror topdi.

**Foydalanilgan va tavsiya etiladigan asosiy hamda
qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Matthew B. Encyclopedia of the middle ages. New York 1995.
2. Roberts J.M., Westad O.A. The history of the World. Oxford. 2013.
3. История Китая. Под.ред. А.В. Меликсетова М., 2002
4. История Китая с древнейших времен до наших дней. Отв.ред. Симоновская Л.В. и Юрив М.Ф. Изд. Вост-лит. М., 1974.
5. История стран Азии и Африки в средние века. М., 1987.
6. Жалменова О.П. История стран Азии и Африки в средние века. Тамбов. 2005.
7. Очерки история Китая с древности до «опиумных» войн. Ред.ред.Думана Л.И. и Филиппова А.М. Изд. Изд. Вост-лит. М., 1959.

Nazorat uchun savollar.

1. Xitoyda besh sulola va o'n qirollik davriga qadar qanaqa sulolalar hukmronlik qilgan?
2. Besh sulola va o'n qirollik davri haqida gapiring?
3. Sun sulolasining qaror topishi qanday kechdi?
4. Sun sulolasi boshqaruvi davrida sodir bo'lgan xalq qo'zg'olonlari?
5. Xitoyga qo'shni qabilalarning hujumi haqida gairib bering?
6. Mo'g'ullar tomonidan Xitoyni egallanishi qanday kechdi?
7. Min sulolasi hokimiyatga kelishi haqida gapiring?
8. Xitoyning manchjurlar tomonidan bosib olinishi haqida gapiring?

MAVZU: YAPONIYA (XII ASR OXIRIDAN XVI ASR OXIRIGACHA)

Reja:

1. *Yaponiyada syogunat tizimining qaror topishi.*
2. *Xodzyo xonadonining hokimiyat tepasiga kelishi. Jamiyatning tuzilmasi.*
3. *XII asr oxiri – XIII asr boshlarida agrar tuzum.*
4. *Xubilayning Yaponiyaga yurishlari.*
5. *Feodal urushlarning qayta boshlanishi. Xodzyo boshqaruvining qulashi.*
6. *1336-1392-yillardagi “Shimol va janub sulolalari” urushi. Ikkinchi Asikaga syogunligining o‘rnatilishi.*
7. *Koreya va Xitoy bilan munosabatlar (XIV-XV asrlar). Yaponiyaning tashqi savdosi.*
8. *“Onin yillari urushi”. Yirik feodal knyazliklarning tashkil topishi.*
9. *Yapon dehqonlarining ahvoli.*
10. *“Urushayotgan viloyatlar bosqichi”. Oda Nabunaga faoliyati.*
11. *Yaponiyaga yevropaliklarning kirib kelishi. Xristianlikka targ‘ibotning boshlanishi.*

Tayanch ibora va atamalar: *Syogun, bakufu, samuray, “syugo”, “dzito”, sikken, eks-imperator, gokenin, xigokenin, “bonge” yoki “tige”, eta, gogebun, “kamikadze”, (“basyaku” yoki “umakasi” – “qarzdor ot”, ronin, “erkin shahar”, “tanegasima”*

Yaponiyada syogunat tizimining qaror topishi

XII asr oxiridan Yaponiyada feodal tartiblar o‘zining taraqqiyot davriga ko‘tarilishni boshladi. G‘arbiy Yevropa davlatlariga nisbatan kechroq bu bosqichga qadam qo‘yishini Yaponiyaning o‘ziga xos rivojlanish yo‘li bilan izohlanadi. O‘rta asrlar davrining ilk bosqichida feodal munosabatlar bilan birga patriarxal qulchilikka asoslangan quldorchilik munosabatlari ham mavjud edi. Faqatgina o‘rganilayotgan davrga kelganda siyosiy jihatdan davlat qaror topishi ham o‘z yakuniga yetdi, ya’ni syogunat tizimi shakllanib, siyosiy hokimiyat davlatning markazi bilan birga joylardagi qudratli feodal xonadonlar qo‘lida ham to‘plandi.

Yaponiyada syogunat tizimining qaror topishi 1192-yilga borib taqaladi. Shu yili yapon imperatori Minomoto-Yorimoto feodal xonadoni boshlig‘iga

“varvarlarni bo‘ysindiruvchi buyuk qo‘mondon” (yaponcha “seyi taysyogun” yoki qisqacha “syogun”) rutbasini beradi. Syogunlik tizimi feodal xonadonlarning iqtisodiy, harbiy va siyosiy munosabatlaridagi kuchli harbiy-feodal diktaturasini namoyon etib, ular harbiy qatlam bo‘lgan samuraylarga tayangan. Syogunlik tizimining qaror topishi Minamoto xonadonining butun mamlakat ustidan oliy hokimiyatga egaligini, uning davlatning barcha harbiy kuchlari ustidan cheklanmagan nazoratga egaligini rasman tasdiqlagan va mustahkamlagan.

Yangi hukumatning (“bakufu”, ya’ni syogun hukumati, ma’nosi “dala qarorgohi”) poytaxti sifatida Kamakura shahri (Xonsyu orolining sharqiy qismi) tanlandi, shu boisdan ham tarixiy adabiyotlarda Yaponiya tarixidagi birinchi Minamoto syogunligi ba’zan Kamakura syogunligi ham deb ataladi. Minamoto xonadoni tomonidan poytaxt sifatida Kamakura shahrining tanlanishi uning imperatorlik saroyining siyosiy ta’sirini kuchsizlantirishga va undan mustaqil bo‘lgan hukumat tuzishga intilganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga Minamoto azaliy yapon an’analariga sodiqlik ramzi sifatida imperatorlikning minimal hokimiyatini saqlab qoldi, chunki monarxiya feodal tartiblarni va bu yerdagi siyosiy guruhlarining g‘oyaviy birligi ramzi edi.

Minamoto xonadoni vakillari Tayra xonadoniga qarshi kurash jarayonidayoq yangi davlat boshqaruv apparatini tashkil etishni boshlab yuborgan edi. Syogunga bo‘ysindirilgan hokimiyatning markaziy organlari samuraylar ishlari bo‘yicha boshqarmadan, oliy qonunchilik organidan va oliy suddan iborat bo‘lgan. Mamlakatning barcha provinsiyalariga Minamotoga yaqin kishilardan gubernatorlar yoki protektorlar (“syugo”) tayinlagan. Ularning asosiy majburiyati mavjud kamakura tuzumiga qarshi ko‘tarilgan har qanday g‘alayonlarni bartaraf etishdan iborat bo‘lgan. Ular mahalliy aholi harbiy majburiyatlarni qanday bajarayotganligini nazorat qilishdan tashqari, politsiya va sud hokimiyatini bajargan, o‘zlariga berilgan hududlardagi harbiy qismlarga qo‘mondonlik qilgan. Undan tashqari feodallarga tegishli barcha mulklarda doimiy ravishda maxsus vakolatli vakillar yoki pomeste boshliqlari (“dzito”) mansabi bo‘lgan. Ular pomestelar egasi bo‘lgan feodallarning faoliyatini kuzatishdan tashqari, aholining oziq-ovqat bilan ta’minlashi uchun zarur bo‘lgan guruch hosili va harbiy soliqlar to‘lanishini nazorat qilgan.

Xodzyo xonadonining hokimiyat tepasiga kelishi. Jamiyatning tuzilmasi

1199-yilda Minamoto xonadonining boshlig'i Yoritomo vafot etgach, syogunlikni uning bevasi Masako va qaynotasi Xodzyo Tikimasa boshqardi. U o'ziga sikken – hukmdor unvonini olib, amalda hukumatning rahbariga aylanib oldi. 1219-yilda Minamoto xonadonining oxirgi syoguni bo'lgan Sanetomo o'ldirilgach, davlatning barcha muhim mansablari Minamoto xonadonining qarindoshi bo'lgan Xodzyo xonadoni qo'lga o'tib, uning despotik hokimiyati XIV asrning birinchi choragigacha davom etdi.

Minamoto va Xodzyo xonadonlari o'rtasida markaziy hokimiyat uchun olib borilgan o'zaro urushlardan imperatorlik xonadoni foydalanib, o'zining boy bergan oldingi hokimiyatini tiklashga xarakat qildi. 1219-yilda eks-imperator Gotobaning qurolli isyoni boshlandi, bu davr tarixga "Syokyu yillari isyoni" (Syokyu 1219-1221-yillarda hukmronlik qilgan) nomi bilan kirdi. Lekin bu kurashda Gotoba mag'lubiyatga uchraydi (1221), uning 600 ga yaqin tarafdorlari, ular asosan saroy mulozimlari edi, mol-mulki musodara qilinib, mamlakat bo'ylab surgun qilindi. Shu kabi isyonlarni yangidan ko'tarilmasligi va o'z hokimiyatini kuchaytirish maqsadida Xodzyo poytaxt Kiotoga alohida vakolatli mansabdorni – rezidentni yuborib, unga alohida harbiy kuchlar ajratdi.

Kamakura syogunligi davrida jamiyat quyidagi tabaqalarga bo'lingan: eng yuqorida hukmron qatlamni samuraylar tashkil qilgan, ular kamakura syogunligining tayanchi bo'lgan. Ular o'z navbatida ikkiga bo'lingan: bevosita syogunga vassal bo'lgan samuraylar – gokenin, boshqa feodallarga, ibodatxona va monastirlarga vassal bo'lgan samuraylar – xigokenin.

Jamiyatning hukmron qatlamiga poytaxtdagi imperatorlik mulozimlari ham kirgan bo'lib, ular syogun hokimiyatiga dushman munosabatda edi. Ular Kiotodagi imperatorlik saroyining unvon, rang va mansablariga ega bo'lsalarda, ammo real siyosiy hokimiyatdan mahrum etilgan edi. Mamlakatning asosiy yer fondi yirik feodal xonadonlari qo'lida to'plangan edi. Ular bilan birga diniy feodallar – budda ruhoniylar ham jamiyatning yuqori qatlamini tashkil etib, katta-katta yer-mulklarining sohiblari bo'lgan. Ular dunyoviy feodallarga qaraganda o'z yerlarida mehnat qilayotgan dehqonlarni kamroq asoratga solishi bilan ajralib turardi.

Jamiyatning quyi qatlamini “oddiy xalq” – “bonge” yoki “tige” tashkil qilib, ular tarkibi dehqonlardan, hunarmand va mayda savdogarlardan iborat edi. Yapon jamiyatida eng quyi qatlamni eta* kastasi tashkil qilgan.

XII asr oxiri – XIII asr boshlarida agrar tuzum

XII asr oxiri – XIII asr boshlarida Yaponiyada yerlarning nisbatan qudratli feodal xonadonlar qo‘lida to‘planishi kuchayib bordi. Tayra xonadonini mag‘lub etgan Minamoto ularning barcha yer-mulkini maxsus yorliq – gogebun asosida o‘z yaqinlariga feod tarzida tarqatib berdi. Shu tariqa mayda pomesteli yer egaligi shakliga asoslangan xususiy feodal yer egaligi evolyutsiyasi boshlandi. Dehqonlar endi ishlab berish majburiyatidan tashqari mahsulot majburiyatini ham to‘lashga majbur etila boshlandi. Odatda ular guruch hosilining 40 dan 60 % gacha mahsulot rentasini to‘lashgan. Ba’zi hududlarda paxtadan ham mahsulot rentasi to‘langan. Undan tashqari dehqonlar qal’alarning qurilishi va ta’mirida, irrigatsiya tizimlarini ishga tushurishga majburiy jalb qilingan. Yana dehqonlar turli xil soliq va yig‘imlarni to‘lashdan tashqari, feodal-samuray drujinasi tarkibida piyoda askar sifatida harbiy majburiyatni ham bajarishi kerak edi.

Xubilayning Yaponiyaga yurishlari

Xitoyda Yuan mo‘g‘ul sulolasi hokimiyatini to‘la qaror topdirgan Xubilay Yaponiyani ham o‘z imperiyasi tarkibiga kiritishni maqsad qildi. Bu niyatini amalga oshirish uchun u 1266-1273-yillarda Yaponiyaga bir necha elchilik missiyalarini yubordi. Ularda Yaponiyani zudlik bilan tobe bo‘lish, aks holda ularga qarshi urush boshlanishi talabi yetkazildi. Lekin sikken Xodzyo Tokimune (1251-1284) bu talablarni rad qilib, mudofaa inshootlarini mustahkamlashga kirishdi. Bundan xabar topgan Xubilay 1274-yilda Koreya hududi orqali Yaponiyaga juda katta harbiy flot yubordi. 15 ming mo‘g‘ul va xitoy, 8 ming yomon tayyorgarlik ko‘rgan koreyslardan, 7 ming yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan koreys va xitoy dengizchi desantlaridan iborat bu flot dastlab muvaffaqiyatga erishib, Susimu va Iki orollarini egallashga muvaffaq

* Eta – feodal Yaponiyasidagi pariylar kastasi. Ularning kastasi merosiy asosda o‘tgan va asosan hayvonlarni so‘yish, ularning qismlarini qayta ishlash, terilarini shilish, shuningdek ahlal tozalash ishlari bilan shug‘ullanganlar. Eta kastasi “murdor qilinganlar”, ya’ni harom qilinganlar hisoblangan, ularning kastasi “daxlsiz” bo‘lgan, sababi budda arkonlariga ko‘ra hayvonlarni o‘ldirish taqiqlangan edi. Kasta a’zolari huquqsiz bo‘lib, faqatgina maxsus ajratilgan yerlarda istiqomat qilishlari mumkin edi. Kastadan tashqarida nikoh qurishlari ham man qilingan.

bo'ldi. Biroq janubiy provinsiya Kyusyudan kelgan yordamchi qo'shin vaziyatni Yaponiya tomoniga o'tishiga xizmat qildi. 3 mingga yaqin katta kemalar va 400-500 kichikroq qayiqlardan iborat Xubilay flotining mayda qayiqlaridan tashqari 700 ta katta kemalari cho'ktirildi. 13,5 ming yuan askari yapon suvlariga cho'kib ketdi.

Birinchi yurish mag'lubiyati Xubilayni to'xtatib qolmadi. U 1275-yilda yangi talabnoma bilan o'z elchilarini Yaponiyaga yubordi. Bu safar syogun Xodzyo Tokimune nafaqat Xubilayning talabini rad qildi, balki elchilarni o'limga mahkum etishga botina oldi.

1279-yilda Janubiy Xitoyni to'la bo'ysindirgan Xubilay asosiy e'tiborni Yaponiyaga qaratdi. 1281-yilda boshlangan ikkinchi ekspeditsiyaga ko'psonli mo'g'ul va koreys harbiylaridan tashqari, 100 ming nafar janubiy xitoy qo'shinlari ham safarbar qilindi. 23-iyun 14-avgust kunlari dengizda va quruqlikda ayovsiz va shiddatli janglar bo'lib o'tdi. Jangning oxirgi ikki kuni amalda urushning taqdirini hal qildi. Sababi Kyusyu orollaridan dengiz to'foni ko'tarilib, mo'g'ul flotini yakson qilib tashladi. Yapon tarixiy adabiyotlarida bu shamol "ilohiy shamol" – "kamikadze" nomini oldi. 3500 mindan ortiq kema va qayiqlardan bor yo'g'i 200 ga yaqin kema va qayiq bu shamoldan omon qoldi. Ikkinchi ekspeditsiyaning halokatga uchrashining asosiy sababi dengiz to'foni bo'lish bilan birga yana harbiy boshliqlarning yo'l qo'ygan xatolari edi. Chunki ixcham va kichik bo'lgan yapon kemalari og'ir va qo'pol bo'lgan mo'g'ul kemalaridan to'fon paytida tezroq xarakatlana olishi va yo'nalishini osonlik bilan o'zgartirishlari bilan farq qilar edi.

Feodal urushlarning qayta boshlanishi. Xodzyo boshqaruvining qulashi

Mo'g'ullarga qarshi urush mamlakatning notekis rivojlanayotganligini yana bir karra ko'rsatib qo'ydi. Mamlakatning rivojlangan va nisbatan kuchsiz taraqqiyot qilgan qismlari o'rtasidagi tafovut siyosiy kurashlarning boshlanishiga olib keldi. Bu keskinlik yana janubi - g'arbiy feodallarning kuchayishi hamda hukmron Xodzyo xonadonining zaiflashuvi bilan tezlashib ketdi, chunki syogunlik provinsiyalardagi feodallar ustidan nazoratni qo'ldan boy berib qo'ygan edi. Hatto syogun hokimiyatini ag'darishga qaratilgan fitnalar amalga oshirila boshlandi.

Mavjud murakkab sharoitdan eks-imperator Godaygo o'z hokimiyatini qayta tiklashga intilib, Xodzyo xonadoniga dushman bo'lgan qudratli feodal xonadonlari bilan shu maqsad yo'lida maxfiy ittifoq tuzdi. Lekin tez orada bu maxfiy kelishuv fosh qilinib, Godaygo uzoq Iki oroliga surgun qilindi.

Shunga qaramasdan Godaygoni qo'llab-quvvatlagan janubi - g'arbiy feodallar Xodzyo qo'shinlariga bir qancha halokatli zarbalar berishga erishdi. Natijada imperatorlik hokimiyati qayta tiklandi. Bu davr tarixda "Kemmu restavratsiyasi (qayta tiklanishi)" nomi bilan qoldi (Kemmu 1333-1335-yillarda hukmronlik qilgan imperatordir).

Lekin Godaygo hokimiyatining tiklanishi ham uzoq davom etmadi. Bu safar imperator bilan Xodzyo xonadonining qulatilishini ta'minlagan qo'shin boshliqlari o'rtasida kelishmovchilik kelib chiqdi. Ilgari Xodzyoning asosiy harbiy qo'mondonlaridan biri bo'lgan Asikaga Takaudzi xiyonat yo'lga kirib, imperator tomoniga o'tib ketadi. Imperator bilan harbiy qo'mondonlar o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelganligidan u o'zining hokimiyatini o'rnatish yo'lida foydalanishga qaror qildi. Godaygo urushdan oldin feodallarga bergan va'dalarini – ularga yer va mansab berishni bajara olmadi. Uning ustiga uning buyrug'i bilan joriy qilingan yangi soliqlar va hech bir ta'minotga ega bo'lmagan qog'oz pullarning Xodzyoga qarshi kurash kompaniyasi xarajatlarini qoplash uchun chiqarilganligi ko'plab feodallarning noroziligiga sabab bo'ldi.

G'oliblar lageridagi o'zaro kelishmovchiliklardan xabar topgan Xodzyo revansh olishga urinib ko'rdi. Lekin Asikaga Takaudzi uni mag'lubiyatga uchratdi. Kiotoni egallab, o'zining qarorgohi sifatida Kamakurani tanladi va o'zini 1335-yilda syogun deb e'lon qildi. Shu davrdan boshlab Yaponiya tarixidagi ikkinchi – Asikaga syogunligi boshlandi (1335-1573). Asikaga Takaudzi syogunligining e'lon qilinishi bilan Minamoto Yoritomo davrida shakllantirilgan hukumat apparati qayta tiklandi, Nitta Yosisada mulklarini musodara qildi. Bu xarakati bilan u Godaygo va uni qo'llab-quvvatlovchi butun janubi - g'arbiy feodal xonadonlarga o'ziga xos urush uchun "chaqiriq" yubordi.

1336-1392-yillardagi "Shimol va janub sulolalari" urushi. Ikkinchi Asikaga syogunligining o'rnatilishi

Dastlabki to'qnashuv 1336-yilda, asosan Kioto va Xiogo hududlarida ro'y berib, Asikaga bu urushlarda hal qiluvchi g'alabaga erishmadi. Xieydzan

ibodatxonasiga mahkum qilingan imperator Godaygo va uning yaqinlari qamalni yorib o'tib, tog'li Yosino okrugiga qochib ketishga erishdi. Shu vaqtdan boshlab Yaponiya tarixida "Shimol va Janub sulolalari" urushi ("Nambokutyō") yoki "qo'shhokimiyatchilik" (1336-1392) deb ataluvchi davr boshlandi. Nitta Yosisada qo'llab-quvvatlashiga tayangan Godaygo markazi Yosino bo'lgan "Janubiy sulola"ga ("Nantyo") rahbarlik qilgan. Asikaga Takaudzi tomonidan qo'llab-quvvatlangan imperator Komyo markazi Kioto bo'lgan "Shimoliy sulolaga" ("Xokutyō") rahbarlik qilgan.

Ikki dushman lagerlar o'rtasidagi uzoq davom etgan kurashlar natijasida Asikaga o'z xonadonining real hokimiyatini o'rnatishga erishib, imperatorning nominal hokimiyatini saqlab qoldi. Ikki lager o'rtasidagi kurash 1392-yilga kelib intiho topdi. Yakunda imzolangan kelishuvga muvofiq ikki sulola valiahdlari navbatma-navbat taxtga o'tirishi belgilandi. Kioto mamlakatning yagona poytaxti deb e'lon qilindi.

Yarim asrlik bu kurash mamlakat iqtisodiyotiga qattiq zarba bo'ldi. Harbiy harajatlar tufayli moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan Asikaga avval bir qator provinsiyalarda, keyinroq o'z hokimiyati o'rnatilgan mamlakat bo'ylab soliq soldi. Harbiy soliq va ishlov beriladigan yerlardan davriy ravishda yig'iladigan ko'tarilgan soliq ayniqsa og'ir edi.

O'zaro urushlarning oxiriga yetishi ikkinchi syogunlik bo'lgan "Asikaga bakufu" (1378-yildan) yoki "Muromati bakufu" (hukumat ko'chib borib joylashgan Kiotodagi tumanlardan birining nomi) deb nomlangan syogunlikning to'la qaror topishiga imkoniyat yaratib berdi. Ma'lum ma'noda bunga Minamoto Yoritomo tomonidan joriy qilingan, keyinchalik yo'qotilgan davlat apparatining qayta tiklanishi ham ta'sir qildi. Unga ko'ra, alohida Kioto hukmdori mansabi joriy qilinib, bu mansabni Asikagaga yaqin bo'lgan feodal xonadonlar – Siba, Xosokava va Xatakeyamalar navbatma-navbat egallaydigan bo'ldi, qolaversa Kanto va Kyusyu gubernatorlari mansabi ham joriy qilindi.

Asikaga syogunligining qaror topishi mamlakatdagi feodal tarqoqlikka to'la chek qo'ymadi.

Kamakura syogunligining agrar siyosati, uning feodal qonunchiligi va XIV asr oxirigacha cho'zilgan o'zaro urushlari yapon dehqonlarining noroziligiga sabab bo'ldi. Butun XIV asr davomida (1333-1392) 6 marta dehqonlarning norozilik chiqishlari, shu jumladan to'rtta qo'zg'oloni kuzatildi.

Koreya va Xitoy bilan munosabatlar (XIV-XV asrlar).

Yaponiyaning tashqi savdosi

Xodzyo hukmronligining oxirida va ikkinchi Asikaga syogunligi hukmronligi boshlanish pallasida hukumat mo'g'ullar hujumi vaqtida uzilib qolgan Xitoy va Koreya bilan munosabatlarni tiklashga xarakat boshladi. Yapon kemalarida Xitoyga budda ruhoniylari yo'l olgan bo'lsa, o'z navbatida Xitoydan Yaponiyaga yoshlarga ta'lim berish va monastirlarda faoliyat ko'rsatish uchun ruhoniylar keldi.

“Shimol va Janub sulolalari” urushi davrida, ayniqsa XIV asrning o'rtalaridan Yaponiyaning Koreya va Xitoy bilan munosabatlari keskinlashib ketdi. 1340-yildan to 1386-yilgacha yaponlar besh marta Koreya sohillariga qaroqchilik hujumlarini uyushtirishi bunga sabab bo'ldi. XIV asrning oxiridan yapon qaroqchilari Xitoyning sohillarida ham, Shandundan to Fuszyn provinsiyasigacha bo'lgan hududlarda qaroqchilik bilan shug'ullana boshladi.

Ichki muammolarga o'ralashib qolgan Asikaga xonadoni xorijiy mamlakatlar bilan savdo qilish huquqi bo'yicha savdogarlarga litsenziyani berish bo'yicha monopol huquqni eng yirik ibodatxonalardan biri bo'lgan Tenryudziga (Kioto) ishonib topshiradi. XIV asrning o'rtalaridan boshlab ushbu ibodatxona muntazam ravishda Xitoyga “Tenryudzi ibodatxonasi kemalari” nomini olgan kemalar yuborib turgan.

XV asrning boshlariga kelganda Yaponiya va Xitoy hukumatlari noma almashishdi, savdo kelishuvini imzolashdi. XV asrning birinchi choragidan ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalari jadallik bilan rivojlanib bordi, bu savdoda suv sig'imi 500 dan 2500 kokugacha* bo'lgan 14 ta kema ishtirok etgan. Yaponiyadan Xitoyga guruch, oltin, simob, oltingugurt, o'rmon mahsulotlari va qimmatbaho daraxt navlari, yog'ochdan yasalgan va loklangan chiroyli mahsulotlar, pardalar, yelpig'ichlar, bronza idishlar va uzun, kalta qilichlar olib borilgan. 1483-yilda Xitoyga kelgan birgina savdo missiyasi bu yerga 37 ming dona sotish uchun qilich keltirganligi ma'lum. Xitoydan Yaponiyaga paxta tolasi, ipak xom-ashyosi, ipak mahsulotlari, chinni idishlar, kitoblar, rasmlar, narkotik moddalar, kimxob, parfyumeriya, sandal daraxti, tibbiyot asboblari, antikvar mahsulotlar olib ketilgan. Xitoy savdogarlari 200-300%gacha daromad olishgan. Xitoydan Yaponiyaga olib

* 180 litrga teng suyuqlik o'lchovi birligi

ketilayotgan mahsulotlar ichida eng ko‘pini xitoy mis tangalari (“eyrakusen”) tashkil qilgan. Xitoy bilan tashqi savdoda Yaponiyaning janubiy-g‘arbidagi Simadzu, Otomo, Outi, Xosokava va Yamanadagi yirik feodallar, shuningdek Sakai, Xakata, Xioto va boshqa dengizbo‘yi shaharlari savdogarlari katta foyda ko‘rishgan. Xitoyda yapon mahsulotlari Yaponiyaning o‘zidagidan ko‘ra 4-5, ba‘zan hatto 10 marta qimmatroqqa sotilgan.

Yaponiya Ryukyu orollari bilan ham savdo munosabatlarini o‘rnatgan bo‘lib, ushbu oroldan kelgan kemalar Bonosu (Sasuma) portiga ba‘zan kelib turgan. Yapon kemalari bo‘lsa tez-tez Ryukyu portlariga, asosan Naxaga kelgan. Bu yerdan ular Koreya va Xitoyga sotish uchun Indoneziya va Malayyadan keltirilgan mahsulotlarni sotib olishgan.

Yaponiyada “Shimol va Janub sulolalari” urushi tugagan vaqt (1392) Koreyada Li sulolasining hokimiyatga kelgan paytiga to‘g‘ri keldi. Shu boisdan deyarli bir paytda yapon-koreys savdo aloqalari rivojlanishni boshladi. XV asrning o‘rtalarida Kyusyu feodal knyazlari (Otomo, Simadzu) va Susiminig So feodal xonadoni Koreya bilan yiliga koreys portlariga 50 ta yapon savdo kemalari kirishi haqida shartnoma imzoladi. Ko‘pgina yapon savdogarlari Koreyaning janubiy qismidagi uchta bandargohlarda doimiy tayanch manzillari tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Yaponiya Koreyaga soda, mis rudasi, turli xil tibbiyot asboblari, ziravorlar va bo‘yoqlar chiqargan bo‘lsa, u yerdan sopol idishlar, ignalar va boshqa to‘qimachilki mahsulotlari olib kelishgan.

“Onin yillari urushi”. Yirik feodal knyazliklarning tashkil topishi

“Shimol va Janub sulolalari” urushi davrida Yaponiyada ko‘plab iqtisodiy va moliyaviy resurslarning yo‘qotilishi qaramasdan, XV asr boshlariga kelganda o‘zaro kurashlar yangi kuch bilan boshlandi. Deyarli 70 yil davomida mamlakatning turli hududlaridagi feodal xonadonlar – Date va Kakada (1413-yil), Kitabatake va Seki (1414-yil), Satake va Usunomiya (1422-1423-yillar), Kitabatake va Outi (1439-1440-yillar), Xatakeyama, Xosokava, Uesugi, Yamana va Yuki (1436-1467-yillar) Asikaga syogunligiga qarshi kurashib keldi.

Ular ichida “Onin yillari urushi” (1461-1477) ayniqsa jiddiy tus oldi. Bunga Xakatakeyama ikki feodal xonadonlari o‘rtasida yetakchilik uchun kurash sabab bo‘ldi. Bu urushga boshqa feodal xonadonlar ham tortildi. Ishtirokchilarning kuchlari tugagachgina, 1477-yilga kelib urush oxiriga

yetdi. Urushning asosiy oqibatlaridan biri – bu Asikaga syogunligi hokimiyatining kuchsizlanishi, mamlakatda feodal tarqoqlikning kuchayib ketishi, urush arafasi umumiy soni 260 tagacha yetgan feodal xonadonlar oʻrtasidagi separatik tendensiyalar kuchayib ketishi boʻldi.

Provinsiyalardagi feodal xonadonlarning kuchayib borishining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy sababi yerga feodal mulkchilik evolyutsiyasining yakunlanishi natijasida yirik feodal (“daymyo” – soʻzma-soʻz “katta nom”) knyazliklarning paydo boʻlishi edi. Bu jarayon XIV-XV asrlarda boshlandi va hunarmandchilik, mahalliy bozorlarning, savdoning, shaharlarning va togʻ-kon ishining rivojlanishi bilan bogʻliqdir. Qolaversa bu jarayon yerlarning yirik yer egalari qoʻlida toʻplanishi asosida kuzatildi. Yapon jamiyatida fundamental tuzulmaviy oʻzgarishlarga olib kelgan knyazlik yer egaligining paydo boʻlishi ishlab chiqarish jarayoni rivojiga va feodal knyazlar daromadining oshishiga turtki berdi. Masalan, XV asrga kelganda 122 ta feodal xonadonlar yiliga oʻrtacha 14.4 mln koku guruch, shu jumladan eng boy xonadonlar (Siba, Xosokava, Outi va Uesugi) 2.4 mln koku daromad olishgan. Syogunning yillik daromadi turli davrlarda 500 mingdan to 1 mln koku atrofida oʻzgarib turgan.

Taʼsirli knyazlar xashamatli qasrlar qurishgan, ular atrofida mahalliy bozorlarni va shaharning savdo-hunarmandchilki markazlarini joylashtirgan. Ulgurji savdo qiluvchilar va otkup operasialari bilan shugʻullanuvchi sudxoʻrlarning iqtisodiy ahvoli mustahkamlandi, pulga ehtiyoji yoʻq feodallar oʻz mulklaridan toʻplanadigan soliq va oʻlponlarni otkup tarzida boshqalarga bergan.

Yapon dehqonlarining ahvoli

XIV –XV asrlarda boʻlib oʻtgan oʻzaro urushlar katta ijtimoiy oqibatlarga olib keldi. Bundan asosan ishlab chiqaruvchilar tabaqasi katta zahmat koʻrdi. Ular dehqonlar boshiga ogʻir kulfat boʻlib tushdi, bir tomondan dehqonlar feodallarning jabr-zulmiga tortilsa, ikkinchi tomondan sudxoʻrlar ularning “qonini soʻrar” edi. Obikor yerlar XV asr davomida 946-mingdan 855 tyogacha* qisqarib ketdi. “Onin yillari urushi” tugagandan keyin, 1479 va 1482-yillarda yangi soliq va yigʻimlar joriy qilindi. Qudratli dunyoviy va diniy feodallar qoʻlida yerlarning toʻplanishi kuchayib bordi.

* Tyo – 0.992 gektaga teng oʻlchov birligi.

Dehqonlarni asosiy ekspluatatsiya shakli - bu mahsulot rentasi bo'lib, asosan u guruch bilan to'langan. O'zi to'plagan hosilning bir qismini dehqonlar qo'lida qoldirish xisobiga, feodallar va hukmron tabaqa ularni go'yoki hosilni ko'proq olish uchun intilishiga turtki bergandek bo'lishgan. Lekin mahsulot rentasi barshina rentasiga to'liq aylanmadi. Kam unumdor yerlardan dehqonlar feodalga guruch hosilining 10-30%gacha, o'rtacha unumdor yerlardan hosilning 40-50%, unumdorligi yuqori bo'lgan yerlardan hosilning 60% va hatto 80% mahsulot rentasi sifatida olingan.

Mahsulot rentasidan tashqari yapon dehqonlari qo'shimcha soliq va yig'imlar to'lashga majbur etilgan. Ularning ahvoli Yaponiyada tez-tez qaytalanib turadigan stixiyali kulfatlar, hosilsizlik va ochlik natijasida yanada og'irlashgan. 1420-1498-yillarda ana shunday tabiiy kulfatlar 8 marta sodir bo'ldi. Yashash uchun kurashgan dehqonlar oxirgi chora sifatida qonundan tashqari holatlarda o'z yerlarini sotishga majbur bo'lishgan. Natijada Yaponiyada yersiz dehqonlar soni o'sib ketdi, ular yirik yer egalari yerga ijara asosida, oldingi holatdan battar og'irroq shartlar asosida ishlashga majbur bo'lgan. Bo' hosilini feodalga mahsulot rentasi sifatida bergan dehqonlar, kelgusi yil hosili uchun mablag'lari yo'qligi sababli sudxo'rlardan urug'lik va pullarni qarzga olgan. bu qarzdorlikdan kamdan-kam dehqonlarga qutilib keta olgan, ko'p hollarda dehqonlar ham feodaldan, ham sudxo'rdan umrbod muddatga qarzdor bo'lib qolgan.

XV asrga kelib dehqonlarning ahvoli og'irlashib borganligi o'z-o'zidan ularda hukmron tabaqaga qarshi isyonlar ko'tarishiga olib keldi. Dehqonlarning aksilfeodal chiqishlari turli shakllarda amalga oshirildi. Ular feodal va sudxo'rlar ekspluatatsiyaga, to'xtovsiz davom etayotgan o'zaro ichki kurashlardagi talonchiliklarga qarshi chiqishdi. Butun XV asr davomida (1418-1499) Yaponiyada dehqonlarning 98 ta qo'zg'oloni sodir bo'lib, ulardan 44 tasida dehqonlar qarzdorligini tugatish talab qilingan bo'lsa, 37 tasi yer maydonlari masalasidagi turli munozaralarga aloqador bo'ldi, yana 9 tasini yuk tashuvchilar ko'targan bo'lsa, 3 ta qo'zg'olonga "Ikko" budda sektasi rahbarlik qilib, u diniy mazmun kasb etdi. Shulardan Yamasiro provinsiyasida 34 ta, Yamatoda 21 ta qo'zg'olon sodir bo'lgan.

Ko'p hollarda bu qo'zg'olonlarda dehqonlar, ishsizlar, turli yuklarni tashuvchi, hatto otlar ko'taradigan darajadagi yuklarni tashuvchi hammollar ("basyaku" yoki "umakasi" – "qarzdor ot" demakdir), hunarmandlar, mayda savdogarlar, o'z xo'jayiniga ega bo'lmagan roninlar (quyi tabaqa samuraylari "erkin odam" degan ma'noni anglatadi) yoki qochoq samuraylar, umuman

olganda ma'lum bir kasbdan va doimiy yashash joylardan maxrum etilgan odamlar ommasi ishtirok etgan. Ularga ba'zan xonavayron bo'lgan aristokratlar va asosan mayda feodallardan iborat bo'lgan jamiyatdan norozi bo'lganlarning bir qismi qo'shilgan. Garchi qo'zg'olonchilarning asosiy tarkibini oddiy kishilar tashkil qilsada, ammo xarakatga qishloq oqsoqollari, "Ikko" budda sektasi a'zolari va mayda feodallar rahbarlik qilgan.

XV asrning birinchi choragida ko'tarilgan qo'zg'olonlar uchun xarakterli xususiyatlardan biri shuki, qo'zg'olonlarda dehqonlar "Tokuseyryo" qonunlar to'plamini chiqarishni talab qilib chiqishgan. "Tokuseyryo" deganda dehqonlar samuraylarning qarzdorligini bartaraf etishni emas, dehqonlarning sudxo'rlar oldidagi qarzdorliklarini yo'qotishni tushunishgan. Bunday qo'zg'olonlar "Tokuseylar qo'zg'oloni" ("tokusey ikki") deb atalgan nom bilan atalgan. O'z talablarini bajartirish uchun, dehqonlar ko'pincha qandaydir bir yirik ibodatxonani qo'lga olishgan va uni yoqib yuborish bilan tahdid qilib, "Tokuseyryo" qonunlarini chiqarishni talab qilishgan. Qo'zg'olonlar jarayonida dehqonlar sudxo'rlarning uylarini va omborlarini talon-taroj qilishgan. 1428-yilda Omi provinsiyasida ko'tarilgan qo'zg'olonda yuqoridagi holatni kuzatish mumkin. Bu qo'zg'olonning tashabbuskorlari guruch tashuvchilar bo'lishdi. Tez orada poytaxt Naraga, Kavat, Idzumi va Ise provinsiyasiga tarqaldi. Qo'zg'olonchilar barcha qarzdorliklarni yo'q qilishni talab qilishdi. Ular sudxo'rlar, guruchdan olinadigan alkagolli mahsulot bo'lgan "sake" ishlab chiqaruvchilar uylariga bostirib kirib, qarzdorliklar qayd etilgan hujjatlarni yo'q qilishdi. 1430-yillarda ko'tarilgan qo'zg'olonlarda dehqonlar sudxo'rlarning mulklarini egallab, garovga qo'yilgan buyumlarini qaytarib olishadi va ijarachilarni dehqonlarning qarzdorligi haqidagi yozma hujjatlarni qaytarishga majbur qilishdi. 1457 va 1461-yillarda Kioto atrofida ko'tarilgan qo'zg'olonlarda ham "Tokuseyryo" qonunlarini chiqarish talab qilindi.

Ba'zan qo'zg'olonlarda ishlab berish majburiyatlarini bekor qilish, qo'shimcha yig'implarni yo'q qilish va soliqlarni kamaytirish ham talab qilingan. Dehqonlar hatto o'zlariga tegishli yerlarga nisbatan zo'ravonlik o'tkazayotgan feodallar va amaldorlarga qarshi chiqishdi. Ba'zi holatlarda ko'tarilgan qo'zg'olonlar davomida qallob mansabdorni o'z lavozimidan bo'shatishga majbur qilish, ma'muriy binolarni, feodallar ko'shklarini vayron qilish, yo'ldagi bojxona nuqtalarini va pochta stansiyalarini qo'lga olish, ba'zan ibodatxona va monastirlarni egallab, ularga o't qo'yib yuborish kabi holatlar kuzatildi.

1429-yilda Iga, Ise, Setsu, Tamba va Xarima provinsiyalarida ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar samuraylarga qarshi qaratildi. Xarimadagi qo‘zg‘olonchilar mamlakatda birorta samuray bo‘lmasligini talab qilib, barcha samuraylarni provinsiyadan quvib yuborishdi. Ba‘zan bunday qo‘zg‘olonlardan mayda va hatto o‘rta samuraylar o‘z manfaati yo‘lida foydalanishga xarakat qilgan holatlar kuzatiladi. 1441-yilgi qo‘zg‘olonda dehqonlarni qurol bilan muomila qilish va harbiy ish taktikalari o‘rgatgan qochoq samuraylar ishtirok etdi.

XV asr oxiridagi qo‘zg‘olonlar “diniy isyonlar” (“ikko ikki”) ko‘rinishini ham olgan. Ko‘pincha bunday qo‘zg‘olonchilarni “ikko” deb ataluvchi dahriy budda sektasi birlashtirgan. Dehqonlar va rohiblarning quyi tabaqasi vakillari provinsiyalardagi feodal amaldorliklarni, ularning mulklarini tugatish uchun, ayrim holatlarda bo‘lsa ibodatxonalardagi oliy ruhoniylarga qarshi chiqishdi

“Urushayotgan viloyatlar bosqichi”. Oda Nabunaga faoliyati

“Onin yillari urushi”ning yakuni baribir o‘zaro kurashlarga chek qo‘ymadi. Kantoning shimoliy tumanlarida XV asr oxirigacha davom etgan yangi o‘zaro to‘qnashuvlar boshlandi. Bu kurashlarda Asikagaga dushmanlik munosabatida bo‘lgan Imagava, Outi va Uesugi xonadonlari ishtirok etdi.

XVI asr boshlariga kelganda Yaponiya amalda bir qator mustaqil knyazliklarga bo‘linib ketdi. Hukmron sulolaning eng xavfli raqiblari janubi-g‘arbiy knyazlar bo‘lgan Otomo, Outi va Simadzu xonadonlari edi, ular vaqtlar o‘tishi bilan markaziy hokimiyatdan borgan sari mustaqil bo‘lib ola boshladi.

1507-yilda Yaponiya tarixida yana bir alg‘ovli davrlardan bo‘lgan “urushayotgan viloyatlar bosqichi” boshlandi. Bu kurashlar 1573-yilda ikkinchi syogunlik sulolasi bo‘lgan Asikaganing qulashi bilan yakun topdi.

Mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish uchun kurash boshlaganlardan birinchisi qudratli knyaz Oda Nabunaga (1534-1582) edi. U yirik feodallar bo‘lgan Tokugava va Takeda bilan ittifoq tuzib, 1559-1573-yillarda bir qancha feodal xonadonlarni mag‘lub etdi va Ise, Kan, Mino va Ovari provinsiyalarini qo‘lga kiritdi. Ayni vaqtda u Kiotoning shimoli - sharqida joylashgan rohiblar ibodatxonasi bo‘lgan Enryakudzi (Xieydzan tog‘ida joylashgan) vayron qildi, shahardagi 3 mingga yaqin inshootlarni buzib tashladi, shuningdek Kiotoga yaqin bo‘lgan boshqa ibodatxonalarni ham vayron etib, ularning yer mulkini musodara qildi. 1573-yilda Asikaga Yosiakini syogun unvonidan mahrum qilib, uning qarorgohi bo‘lgan Nidzyo

qal'asini egalladi, syogunning o'zini bo'lsa surgun qildi. Odaning holati shu darajada mustahkamlandiki, 1578-yilning boshlariga kelganda 11 provinsiya feodallari unga o'z sodiqligini bildirishdi.

1576-1579-yillarda Oda Nabunaga mustahkamlangan Adzuti qal'asini (Omi provinsiyasida) qal'asini qurdi, ushbu qal'a keng hududlar bo'ylab hukmronlik qilishga imkon berib, Kiotoga yangi tahdid bo'lib xizmat qildi.

180 ming askardan iborat qo'shin tuzgan Oda 1581-1582-yillarda o'zining sobiq ittifoqdoshi bo'lgan Takeda feodal xonadonini mag'lubiyatga uchratdi. Shu paytga kelib u 66 provinsiyadan 30 tasini o'ziga bo'ysindirishga erishgan edi.

XVI asrning 70-yillaridan boshlab Oda Nabunaga katta islohotchilik xarakatlarini boshlab yubordi:

- U provinsiyalar chegaralarida, yo'llarida va chorrahalarda o'rnatilgan bojxona to'lovlari va mahalliy soliqlarni bekor qildi;
- Uning buyrug'i bilan yo'llar va ko'priklarning ta'miri va qurilishi amalga oshirildi. Bu holat provinsiyalarning ayirmachilik xarakatlarini bartaraf etish bilan birga, ichki savdo aloqalarini qo'llab-quvvatlashga va mahalliy bozorlarning rivojlanishiga xizmat qildi;
- U hunarmandchilik sexlari va savdo gildiyalarining, ayniqsa boy savdogarlarning imtiyozlarini, mahsulotlarni ishlab chiqish va sotishlarini bekor qilib, yirik shaharlarga mustaqil ravishda o'z bozorlarini tashkil etishga ruhsat berdi;
- Oda tashqi savdo bilan uzviy bog'liq bo'lgan shaharlarning (Xakata, Nagasaki) taraqqiyotiga ko'maklashib, ayni vaqtda ularni o'z hokimiyati ostida ushlab turishga intildi. Masalan, XV-XVI asrlar davomida "erkin shahar" sifatida mustaqillikka ega bo'lgan Sakai shahrini 1568-yilda ushbu maqomdan mahrum etdi.
- O'zining Adzuti qal'asi atrofida shahar qurib (1582-yilda bu shaharning aholisi 5 ming nafarga yetgan), uni erkin bozor deb e'lon qildi.
- Ayni vaqtda savdogarlarga va xaridorlarga, shuningdek shahar ahliga o'zlariga tegishli bo'lgan inshootlar va mahsulotlarni tashish uchun soliq olishdan mahrum etdi;
- Pul islohotini o'tkazib, unga ko'ra guruch ayriboshlash operatsiyalari birligi bo'lishligini taqiqladi. Muomilaga hukumatning buyrug'i bilan zarb qilinadigan oltin va kumush tangalar chiqarildi. Oltin, kumush va mis tangalar o'rtasida ma'lum bir tafovutlar belgilandi. Tangalarning

zarb qilinishi konchilik, ayniqsa qimmatbaho metall ishlab chiqarish ishi rivojiga turtki berdi;

- Oda Nabunaga sud tizimini isloh qilib, qayta tashkil etdi. Mamlakat yo‘llaridagi qaroqchilik bilan shug‘ullanuvchilarga qarshi ayniqsa shavqatsiz kurashdi.

Oda Nabunaganing barcha islohotchilik faoliyati obektiv ravishda mamlakatning siyosiy jihatdan birlashuviga va yagona iqtisodiy makon sifatida shakllanishiga turtki berdi.

Yaponiyaga yevropaliklarning kirib kelishi. Xristianlikka targ‘ibotning boshlanishi

XVI asrning 40-yillari boshlaridan Yaponiyaga yevropaliklarning ilk qadamlari tashlandi. 1542-yilda Tanegasima orolida sampani halokatga uchragandan keyin uchta portugal savdogarlari orolga tushishdi. Kema bortida bo‘lgan mushket miltiqlari yaponlarning katta qiziqishiga sabab bo‘ldi.

Keyingi yili iyezuit Mendish Pintu Bunga provinsiyasiga tashrif buyurdi. U Otomo knyazi bilan har yili ushbu orolga movut va ipak matolar, shuningdek qurollar va poroxlar orilgan portugal kemasi kelishi va ularni oltin hamda kumushga ayriboshlash haqida kelishuv imzoladi.

Yaponiyaga yevropaliklar kirib kelishining eng katta oqibatlaridan biri – bu o‘q otar qurollarning kirib kelishi bo‘ldi va keyinroq mamlakat ichida ishlab chiqarila boshlanishi bo‘ldi (Yaponiyada bu qurollar portugallar dastlab tushgan orolning nomi bilan “tanegasima” deb atalgan). Mendish Pintu yaponlarni o‘qotar qurollarni ishlab chiqarish maxorati bilan tanishtirdi, bu holat harbiy ishda yirik o‘zgarishlarga olib keldi. Urush olib borishning yangi taktikalari paydo bo‘ldi: birinchi o‘ringa askar-profissionallardan iborat piyoda qo‘shin chiqdi. Hattoki mudofaa inshootlari qurilishida ham o‘tochar qurollarga qarshi turish inobatga olina boshlandi.

Portugal savdogarlarining kirib kelishi bilan Yaponiyada ko‘zoynaklar, tamaki, kursi, shlyapa va ich kiyimlar qo‘llanilishi boshlandi.

Yaponiyaga yevropalik savdogarlar ortidan katolik ruhoniylari kelishdi. 1549-yilning avgustida Kagosimaga (Kyusyu orolidagi Sasuma knyazligi poytaxti) iyezuitlar Fransisk Ksanye, Kome de Torres va Juan Fernandeslar kirib keldi. Shu vaqtdan e‘tiboran Yaponiyada, asosan Kioto, Yamaguti va Kyusyuning katta qismida xristianlikka targ‘ibot boshlandi. Iyezuitlarning

ushbu orol mahalliy knyazlardan ruxsat olib, seminariylari va kollejlarning tashkil etilishi, Injil va Injil broshyuralarining chop etilishi va tarqatilishi, xristian missionerlari tomonidan yapon bemorlariga ko'rsatilgan tibbiy muolajalar ma'lum ma'noda xristianlikning yoyilishida muhim rol o'ynadi. Yapon dehqonlarining o'zaro qonli ichki kurashlardan charchaganligi ham xristianlikning biroz muvaffaqiyatli tarqalishiga xizmat qildi. Chunki muttasil urushlar oqibatida mamlakat iqtisodiyoti ham izdan chiqqan edi, undan tashqari mamlakatning janubi-g'arbiy qismida dehqonlarning ahvoli boshqa hududlardan ko'ra ancha og'ir edi. Shuning uchun bo'lsa kerak ushbu hududlardagi dehqonlar yangi din timsolida o'zlariga yupanch topishga intildi.

Yangi dinning qabul qilinishi janubi-g'arbiy knyazliklarning ayirmachilik xarakterlarining namoyon bo'lishi bilan birga, ularning markaziy hokimiyatga qarshilik qilish vositasi ham bo'ldi.

Yapon-portugal savdo aloqalarining o'rnatilishi Yaponiyaning Min imperiyasi bilan savdosining sezilarli ravishda qisqarib ketishiga olib keldi. bunga 1549-yilda Xitoyning Yaponiya bilan rasmiy munosabatlarni uzishi ham omil bo'lib xizmat qildi. Bunday munosabatlar uzilishiga Yaponiyaning Xitoy qirg'oqbo'yi hududlarida dengiz qarorqchiligi bilan shug'ullanishi sabab bo'ldi.

Shundan boshlab portugal savdogarlari Xitoy mahsulotlarini Yaponiyaga keltirish bo'yicha monopol mavqeyga ega bo'lib oldi, ular asosan ipak xom-ashyosi, ipak matolar va kumush olib kelishgan, bundan juda katta daromad olishgan. Portugal kemalari Goa, Malakka va Liampo (Naibo)dan Kyusyusning janubiy portlariga kelgan. 1557-yilda Aomindagi portugal faktoriyasi Yaponiya bilan savdo qilish bo'yicha monopol huquqni qo'lga kiritdi, ungacha bu yerga yavaliklar, malayaliklar va hind savdogarlari xitoy mahsulotlarini olib kelishgan.

Portugal iyezuitlari ortidan Yaponiyaga ispaniyalik fransiskanlar va dominikanlar kirib kelishdi. 1584-yilda Manilaning Xirado portidan birinchi ispan kemasi Yaponiyaga yetib keldi.

Oda Nabunaga to umrining oxirigacha Yaponiyada xristianlik tarqalishiga g'amxo'rlik qilib keldi, bunga uning buddizm dinini yoqtirmasligi sabab bo'lgan edi. Chunki mamlakatda mavjud bo'lgan ko'plab budda ibodatxonalari qo'lida yirik yer mulklarni va kuchli harbiy drujinalarni ushlagan holda Odaga dushman bo'lgan kuchlarni qo'llab-quvvatlaganlar va uning mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish xarakterlariga qarshilik qilgan.

Oda Yevropa mamlakatlari bilan tashqi savdoni rivojlantirishni istasada, birinchi navbatda qo'shinni o'tochar qurollar bilan ta'minlashni istardi, chunki mamlakatni birlashtirish uchun kurashlarda o'tochar qurollarning mavjudligi oldindan ustunlikni ta'minlagan.

Garchi Oda Nabunaga uzoq vaqtlar davomida iyezuitlarga hayrixohlik qilgan bo'lsada, ammo umrining oxirlarida diniy missionerlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'la boshladi. Chunki u xristianlikning targ'iboti orqali Yaponiyani Portugaliya mulkiga aylantirishga urinish bo'layotganligidan xavfsiray boshladi.

1582-yilda Oda Nobunaga o'zining yaqin vassalaridan biri bo'lgan, shuxratparast Aketi Misuxide tomonidan xiyonatkorona o'ldirildi. U ham davlat boshlig'i o'rniga davogarlardan biri edi. Aketi bir muncha muddatga Ninzyo va Adzuti qal'alarini, shuningdek imperatorlik poytaxti bo'lgan Kiotoni egallashga erishdi.

Oda Nobunaga halok bo'lgan yili Yaponiyada 200 ta xristian cherkovi, 5 seminariy va kollejlari, 75 ga yaqin missionerlar va xristianlikga o'tgan 150 ming yaponlar bor edi.

Iyezuitlar ordeni a'zolari bo'lgan Vilela va Valinyanilarning faol faoliyati ham Yaponiyada xristianlikning keng tarqalishiga xizmat qildi. Valinyanining tashabbusi va kuzatuv ostida 1582-yilda Ispaniya qiroli va Rim papasiga Kyusyu orolining xristian-knyazlari vakillaridan iborat birinchi yapon missiyasi yuborildi. Ushbu tashrifning eng muhim natijasi shu bo'ldiki (missiya Yaponiyaga 1590-yilga kelib qaytib keldi), Rim papasi Grigoriy XIII 1585-yilda maxsus bulla chiqarib, unga ko'ra Yaponiyada Injil targ'ibotini faqatgina iyezuitlar ordeniga berdi.

Foydalanilgan va tavsiya etiladigan asosiy hamda qo'shimcha adabiyotlar:

1. Henshall K.G. A history of Japan: from stone age to superpower. 3 rd edition. Palgrave Macmillan. USA 2012.
2. Mason R.H.P., Caiger J.G. A history of Japan. Singapore. 1997
3. Matthew B. Encyclopedia of the middle ages. New York 1995.
4. Roberts J.M., Westad O.A. The history of the World. Oxford. 2013.
5. История стран зарубежной Азии в средние века. М., 1970.
6. История стран Азии и Африки в средние века. М., 1987.

Nazorat uchun savollar.

1. Yaponiyada syogunlik tizimining qaror topishi haqida ma'lumot bering?
2. Nima uchun birinchi syogun Minamota rasmiy bo'lsada Yaponiyada imperatorlik hokimiyatini saqlab qoldi?
3. Xodzyolar boshqaruvi davrida Yaponiyadagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ahvol qanday bo'lgan?
4. Yaponiyada ikkinchi syogunlikning boshqaruvga kelishi qanday sodir bo'ldi?
5. Yaponiyada dehqonlar tez-tez isyonlar ko'tarib turishgan, bunga asosiy sabablarni ko'rsatib bering?
6. Siz nima deb o'ylaysiz, nima sababdan deyarli butun Yevroosiyoga o'z tahdidini o'tkaza olgan mo'g'ullar kichik bo'lgan Yaponiyada o'z hukmronligini o'rnatishda olmadi?
7. Oda Nabunaganing Yaponiya tarixidagi xizmatlariga to'xtalib o'ting?
8. Yevropaliklarning kirib kelishi Yaponiya tarixida qanday iz qoldirdi?

YAPONIYA TARIXIDAGI SYOGUNLIKLAR

Kamakura syogunligi—*Kamakura bakufu* (1192—1333)

Minamoto xonadoni: 1192—1210 (3 ta syogun)

Fudzivara xonadoni: 1226—1252 (2ta syogun)

Imperator shahzodalari (sinno): 1252—1333 (4 ta syogun)

Kioto syogunligi — *Muromati bakufu* (1338—1573)

Asikaga xonadoni: 1338-1573 (16 ta syogun)

Edo syogunligi — *Edo bakufu* (1603-1867)

Tokugava xonadoni: 1603-1867 (15 ta syogun)

MAVZU: XIII-XV ASRLARDA HINDISTON

Reja:

1. *Dehli sultonligining paydo bo'lishi.*
2. *Roziya Sulton-musulmon sulolalaridagi ilk ayol hukmdor sifatida*
3. *Dehli sultonligining kuchayishi (1296-1316).*
4. *Tug'loqlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi.*
5. *Baxmaniylar davlati.*
6. *Janubiy Hindiston. Vijayanagar imperiyasi.*

Tayanch atama va iboralar: *Pratixarlar, dekaniylar, "turk qoraunas", rajputlar, maxoradja, payakor, chorikor, Dehli, mo'g'ullar, Dekan, Tug'loqlar, iqto, Baxmaniylar, Bidjapur, Xarixira va Bukka, maxapradxan, g'ulomlar, sayid, xolisa, mulk, inom, vaqf.*

Dehli sultonligining paydo bo'lishi

XIII asr boshlariga kelganda Hindistonda feodal tartibotlar deyarli to'liq shakllanib bo'lgan edi. Hududda juda ko'plab mayda rajputlar knyazliklari hukmronlik qilib kelardi. Ular doimiy ravishda bir-biri bilan yetakchilik uchun kurashga kirishi tashqi bosqinchilik urushlaridan himoyalaniish imkoniyatini cheklagan. XIII asr boshlariga kelganda O'rta Osiyo, Gur viloyati (G'arbiy Afg'oniston), Eron hududlaridan kelgan musulmon hukmdorlar tomonidan rajput knyazliklari orasida eng yirik davlat tashkil etildi. XIII asrning boshlarida Hindistonning shimoliy qismidagi Dehli sultonligining tashkil topishi bevosita O'rta Sharq hududlaridan ro'y bergan siyosiy hodisalar bilan bog'lanadi. Turk harbiy zodagonlari qul-g'ulomlardan iborat otryadlarga yoki turli jangovar qabilalarning yollanma qo'shinlariga tayanib, X-XI asrlarda O'rta Osiyoda, Eronda va Afg'onistonda ko'plab mayda davlatlariga asos solgan edi. Tez orada ular o'rtasida ham keskin kurashlar boshlanib ketdi. Bu kurashlarning avj olish pallasi Shimoliy Hindistonda Pratixarlar davlatining qulashi va uning o'rnida rajputlar sulolasi vakillari hukmronlik qilgan ko'plab mayda knyazliklarning paydo bo'lishi davriga to'g'ri keldi. Ular o'rtasidagi raqobat va o'zaro kurashlar yuqorida ta'kidlaganimizdek Hindistonda ajnabiylarning hokimiyati qaror topishiga imkon bo'lib xizmat qildi.

Aslida Shimoliy Hindistonga yurishlar XI asr boshlaridan Gʻaznaviylar davlatining asoschisi boʻlgan Maxmud Gʻaznaviy (998-1030) davridan boshlangan edi. Garchi u Sind, Panjob, Kashmir, Radjastxon, Gudjarat va Kanaudja kabi shaharlarni talagan va bosib olgan boʻlsada, ammo uning real hokimiyati faqatgina Moʻlton-Lahurda oʻrnatilgan edi. Bu yerni boshqarish uchun Gʻaznadan alohida noib yuborilgan. Maxmudning vorislari davrida avj olgan taxt uchun kurashlar, ikkinchi tomondan saljuqiylarning hujumi xavfi natijasida davlat markazi Lahurga koʻchirildi. XII asrning 70-yillarida gʻaznaviylar va saljuqiylar oʻrtasida keskin kurashlar boshlangan bir paytdi, bir vaqtlar Maxmud Gʻaznaviy tomonidan bosib olingan Gur hukmdori nisbatan kuch toʻplashga erishadi. 1175-yilda Gʻaznani, 1186-yilda Lahurni egallashi oqibatida gʻaznaviylarning Hindistondagi hukmronligiga chek qoʻydi.

Muhammad Guriy va uning qoʻmondonlarining harbiy yurishlari Shimoliy Hindistonda hokimiyat tepasiga harbiy-feodal zodagonlarning kelishi bilan tugadi. Ularning mulklari tarkibiga Lahur, Moʻlton, Uch, shimoli-gʻarbda Seiston (Saxvana), shimolda – Samanu, Ganga va Djamna oraligʻi, Gang va Gogro oraligʻi, Kanaudja, Aud, Bengaliya kiradi.

Bu yerlarning katta qismi Muhammad Guriyning harbiy qoʻmondonlaridan biri boʻlgan Qutbiddin Oybek qoʻlida edi. Uning qarorgohi dastlab Lahur boʻlgan. 1206-yilda xoxar qabilalari tomonidan Ind sohili yaqinida Muhammad Guriy oʻldirilishi natijasida Qutbiddin oʻzini guriylarning Hindistondagi mulklari sultoni deb eʼlon qildi. Shu tariqa Hindistonda Dehli sultonligi deb atalgan davlat paydo boʻldi. XIII asrning oxirgi oʻn yilligigacha Dehli taxtida hukmronlik qilgan sultonlar gʻulomlar sulolasi vakillari deb aytiladi. Sababi ularning aksariyati qul-askarlar boʻlgan gʻulomlardan kelib chiqqan edi. Oybekning oʻlimidan keyin turk zodagonlari taxtga Badaunning hukmdori boʻlgan va vafot etgan sultonning gʻulomi boʻlmish Shamsiddin Iltutmishni (1211-1236) oʻtqazishadi. 1229-yilda Dehli sultonligi Bogʻdod xalifasi tomonidan tan olindi.

Aynan uning hukmronligi davrida Hindistonga birinchi marta moʻgʻul bosqinchilari kirib keldi. Maʼlum maʼnoda bu tashqi xavf harbiy zodagonlarni taxt atrofida uyushishga majbur etdi. Natijada Shamsiddin bir qancha hududlarni sultonlik tarkibiga qoʻshib olishga muvaffaq boʻldi.

Davlatda sultonning mutloq hokimiyati oʻrnatilgan boʻlib, koʻtarilgan har qanday isyon shafqatsizlik bilan bostirilgan. U oʻz xohishiga qarab mansabdorni tayinlagan yoki oʻlimga maxkum qilib, uning mol-mulkini

musodara qilgan. Davlatning barcha muhim ishlari bo'yicha yakuniy qarorni qabul qilish ham sulton vakolatida edi. Lekin dastlabki sultonlar o'z siyosatini yuritishda ma'lum bir harbiy-zodagonlar guruhiga tayanishga majbur edi. Sababi sultonlikda hali merosiy hokimiyat qoldirish tamoyili joriy qilinmagan edi. Guruhlarga tayanish ma'lum ma'noda keyingi sultonlarning amalda qo'g'irchoq hukmdorlarga aylanishiga olib kelgan. Davlatning rasmiy dini sifatida islom e'lon qilindi, hujjat yuritish, saroy tarixnavisligi va adabiyotida fors tili ustunlik qildi.

Roziya Sulton - musulmon sulolalaridagi ilk ayol hukmdor sifatida

Iltutmishning vorisi Nasriddin Mahmud o'lganidan so'ng uning boshqa o'g'il farzandlari taxt vorisligi talablariga javob bera olmaydi. 1232 yilda Iltutmish Dehliga qaytib keladi va vazirlari va amirlarni yig'ib, xalqni sevuvchi, muhim davlat qarorlari qabul qila oladigan qizi Roziya xotinni taxt vorisi etib tayinlaganligini ma'lum qiladi.

Sulton haramidagi Roziyaning onasi Turkon xotin katta obro'ga ega edi. 1236 yil Iltutmish Yuqori Panjobda bo'lgan jangda yaralanib, saroyga qaytadi va tezda vafot etadi. Sulton o'limi Turkon xotin va sultonning boshqa xotini Shoh Turkon (Ruknaddin Firuzshohning onasi) o'rtasida raqobatni keltirib chiqaradi. Saroy ahli va harbiylar ikki guruhga bo'linib qoladi.

Bir guruh amirlar taxtni merosxo'r Roziyaga o'tishini istagan bo'lsa, boshqa guruh amirlari esa taxt o'g'il farzand, Lohur hokimi Ruknaddin Firuzshohga o'tishi kerak deb xisoblaydi. Oxir oqibatda Ruknaddin taxtga o'tqaziladi. Tez orada Shoh Turkan boshqaruvni o'z qo'liga olib, Iltutmishning boshqa bir o'g'li Qutbiddinni o'ldirtiradi. Tezda Iltutmishning yana bir o'g'li, G'iyosiddin Muhammadshoh soliq to'lashdan bosh tortadi. Panjobda turk amiri Malik Sayfiddin isyon ko'taradi. Isyonni bostira olmagan Ruknaddin ular tomoniga o'tishga majbur bo'ladi. Poytaxtda bo'lsa, Roziya va Shoh Turkan o'rtasida kurash kechadi. Roziyaga qarshi fitna tayyorlandi. Ammo u amalga oshmay qoladi. Shoh Turkan qamoqqa olinib, Roziya sulton deb e'lon qilinadi.

Firuzshohning boshqaruvi atiga olti oyu 28 kun davom etdi. Roziyaning buyrug'i bilan Firuzshoh qamoqqa olinadi va 1236-yil 9-noyabrda qatl qilinadi.

Taxtga kelgan Roziya Shamsiylar sulolasining an'ana va tartiblarini qayta tikladi. Hukmronligining ilk yilida tangalar zarb qildiradi. Unga

«Umdat an – nisvon malika-i zamon sulton Roziya binti Shamsiddin Iltutmish» («Ayolllar tayanchi, zamon malikasi sulton Roziya Shamsiddin Iltutmish qizi») soʻzlari yozilgan.

Iltutmishning sobiq qullaridan biri Malik Ixtiyoriddin Oltiniy boʻlib, u iqto tarzida Baran viloyati va Tabar qalʼasini olgan edi.

1240-yilda Ixtiyoriddin Oltiniy qoʻzgʻolon koʻtaradi. 1240-yil 3-aprelda Roziya unga qarshi qoʻshin bilan chiqadi. Bosh qoʻmondoni Jamoliddin Yoqut Xabash asir tushib oʻladi. Roziyaning oʻzi ham asir tushadi. Taxtni Iltutmishning yana bir oʻgʻli Muiziddin Baxromshoh egallaydi. Uning regenti (otaliq) Ixtiyoriddin Oytegin boʻldi. Tez orada Baxromshoh Ixtiyoriddin buyrugʻi bilan oʻldiriladi va Badriddin Sungur Rumiylar taxtga oʻtqaziladi. Ixtiyoriddin Roziyaga uylanadi. Hech nimadan qurqmaydigan Roziya oʻzining tarafdorlari yordamida Ixtiyoriddinga qarshi chiqdi. 1240-yil 13-oktabrda xal qiluvchi jangda yengilib asir tushadi. 14-oktabrda qatl etiladi. Ibn Battuta maʼlumotlariga koʻra, Roziya jang maydonida asir tushmay, qochib ketgan. Yoʻlda bir burda non soʻrab toʻxtagan chogʻida uning qimmatbaho kamari kaftanini koʻrib qolib, uni oʻldirgan. Kamarni bozorda sotayotgan vaqtida oʻldirgan odam qoʻlga tushib, Roziyani oʻldirgan joyni koʻrsatgan. Uni jasadini olib dafn etishgan. Roziya sulton rasmiy va amalda katta saltanatni toʻrt yil qoʻlida tutib turgan ayol hukmdor sifatida tarix sahifalarida qoldi.

Moʻgʻullarning bostirib kirishi vaziyatni battar qaltislashtirib yubordi. Ular 1241-yilda Lahurni egallab, 1246-yilda Uch va Moʻltonni bosib oldi. Boshqa tomondan mamalkatda feodal-knyazlarning isyonlari avj olib ketdi.

Shunday bir sharoitda turk-zodagonlar 1246-yilda taxtga Iltutmishning kenja oʻgʻli Nosiriddin Maxmudni oʻtqazishdi. Lekin amalda 1246-yildan to 1265-yilgacha toʻliq hokimiyat gʻulomlardan biri boʻlgan Gʻiyosiddin Balban qoʻlida boʻlib, uning ortidan sultonlik taxtini egalladi.

Gʻiyosiddin Balban regentligi va hukmronligi davrida (1265-1287) sultonlik hokimiyatini mustahkamlash siyosati yuritildi. Lekin uning oʻlimidan keyin yana taxt uchun harbiy-zodagonlar oʻrtasida kurashlar boshlanib ketdi.

Dehli sultonligining kuchayishi (1296-1316)

Turk harbiy amirlari oʻrtasidagi raqobatda turklarning xiljiy qabilasi Jaloliddin boshchiligida gʻalaba qozondi. 1290-yilda u sulton deb eʼlon

qilinsada, ammo Dehliga kirib kelishga qiynaldi. Sababi poytaxtda siyosiy guruhlar o'rtasidagi kurashlar o'zining avj nuqtasiga chiqqan edi. Bu kurashlarni to'xtatishga qurbi yetmasligini ko'rgan xiljiy qabilasi zodagonlari 1296-yilda qarib qolgan Jaloliddinni o'ldirdilar va uning o'rniga jiyani Alovuddin Xiljiyni sulton deb e'lon qilishdi.

Alovuddin (1296-1316) taniqli davlat arbobi, mohir siyosatchi va islohotchi va ayni damda qobiliyatli lashkarboshi edi. Uning oldida ham o'tmishdoshlari kabi quyidagi vazifalar turardi:

- > Turk feodal zodagonlarining Hindistondagi mavqeyini mustahkamlash;
- > Mo'g'ullar hujumini bartaraf etish.

Lekin o'tmishdoshlaridan farqli ravishda Alovuddin yangi yerlarni va yangi o'ljalarni qo'lga kiritishni eng birinchi galdagi vazifa deb xisobladi. XIII asr oxiri-XIV asr boshlarida amalga oshirilgan yirik talonchilik yurishlari feodal kuchlarning bir joyga to'planishini talab etish bilan birga, isyonkor feodallarni markaziy hokimiyatni qo'llab-quvvatlashga erishishiga olib kelishi mumkin edi. XIV asrning boshlarida Alovuddin qo'shinlari Gudjarat va asosiy rajput knyazliklarini, qal'alarini bosib oldi.

Bu orada mo'g'ullarning Hindistonga yurishlari borgan sari kuchayib bordi, ular shimoliy-g'arbiy Hindistonni talab, hatto Dehli devorlari ostonasigacha yetib kelishga muvaffaq bo'ldi. Alovuddinning mo'g'ullarga qarshi mudofaa choralarini kuchaytirishi mo'g'ullarga bir necha halokatli zarbalar berish imkonini berdi. Oxirgi marta mo'g'ullar 1306-yilda Ravi daryosi vodiysida paydo bo'ldi, shu yerda sultonning qo'mondoni bo'lgan Malik G'ozini ularni mag'lubiyatga uchratdi.

Mo'g'ullar hujumining bartaraf etilishi Alovuddinga Hindistonning ichkari hududlariga qarab bosqinchilik yurishlari uchun eshiklarni ochib berdi. Shu vaqtgacha yetib borilmagan Janubiy Hindistondagi Dekan shaharlari talon-taroj qilindi.

Bu paytda Dekanda bir necha yirik knyazliklar – Yadavevlar, Kakatevlar, Xoysalov, Pandevlar mulklari qaror topgan edi. Ular yetakchilik uchun o'zaro urushlarga kirishi natijasida Alovuddin hujumlarini qaytara olmadi hamda Dekan hukmdorlari va Janubiy Hindiston davlatlarining aksariyati Dehli sultonligiga o'z tobeligini bildirishdi.

Alovuddin tomonidan bunyod etilgan bu qudratli imperiya to'la markazlashgan davlat emas edi. Gudjaratni garchi sulton noibi boshqarsada, ammo sulton umrining oxirgi pallasida ular ham isyon ko'tarib boshladi. Radjastxan to'la bo'ysindirilmadi, u yerdagi ayrim rajput knyazliklarigina

Dehliga o'lgan to'lab turishgan. Shu kabi holatlarni Alovuddin davrida Dehliga qo'shib olingan boshqa hududlarda ham kuzatish mumkin edi.

Qattiqqo'l va shavqatsiz bo'lgan Alovuddin isyonkor amirlarni ayovsiz jazoga mahkum etgan. Soliqlardan ozod etilgan dunyoviy va diniy feodallar qo'lidagi yer-mulklarni davlat g'aznasi foydasiga musodara qildi.

Alovuddining ichki va tashqi siyosati garchi Dehli sultonlari davlatini mustahkamlashga xizmat qilgan bo'lsa ham, ammo ayni vaqtda unga qarshi jamiyat turli tabaqalarining noroziligini ham kuchayishiga olib keldi. Saroy ahli tomonidan "Iskandari Soniy" deb madhlagan Alovuddin hali tiriklik paytidayoq o'zi bunyod etmoqchi bo'lgan niyatning darz ketganligini ko'rdi.

Davlatdagi ta'sirli vazir bo'lgan Malik Kafurning fitnasi bilan sultonning katta o'g'li Xizr-xon Gvaliur qal'asiga bandi qilindi. Mamlakatning turli qismlarini isyonlar qamrab oldi. Kasal va do'stlari tomonidan sotilgan Alovuddin 1316-yilda vafot etdi. Taxt uchun uzoq davom etmagan qonli kurashdan so'ng sultonning o'g'illaridan biri Qutbiddin Muborakshoh (1316-1320) nomi bilan sulton deb e'lon qilindi. Faqatgina otasining boshqaruv tamoyillaridan voz kechish xisobiga u taxtni o'z qo'lida ushlab qolish mumkinligini yaxshi tushunar edi. Shuning uchun bo'lsa kerak u Alovuddinning barcha islohotlarini bekor qildi.

Muborakshoh otasining bosqinchilik yurishlaridan voz kechmadi. 1320-yilda u Xisravxon boshliq fitnaning qurboni bo'ldi, fitna boshlig'i bo'lsa o'zini sulton deb e'lon qildi. Lekin u taxtda bir necha oy sulton bo'ldi. Malik G'ozni boshchiligidagi turk zodagonlari Xisravshohning qo'shinlarini mag'lub etib, uning o'zini qatl qildirdi.

Tug'loqlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi

G'iyosiddin Tug'loq nomi bilan taxtga o'tirgan Malik G'ozni Dehli sultonligida XV asr boshlarigacha hukmronlik qilgan tug'loqlar sulolasini boshlab berdi. Uning otasi chig'atoylardan - "turk-qoraunas"lardan va sulton Balbanning g'ulomi bo'lganligi keltiriladi. Onasi Panjobning jata dehqonchilik kastasiga mansub edi.

G'iyosiddin (1320-1325) o'tmishdoshlari kabi tashqi siyosatni faol davom ettirdi. Shahzoda Jaunaxon boshliq sulton qo'shinlari Kakatelar poytaxti Telinganini egallab, uning nomini Sultonpurga o'zgartirdi. G'iyosiddinning o'zi Sharqiy Bengaliyani bosib oldi, G'arbiy Bengaliya bo'lsa vassalligini tan oldi. Yurishdan qaytgan Jaunaxon Dehlida katta

tantana o'tkazadi. Ushbu tantana vaqtida fillardan biri yog'och ayvonni buzib yuboradi, natijada ayvon ustunlaridan biri G'iyosiddinga tegib, u halok bo'ldi. Jaunaxon Muhammadshoh Tug'loq nomi bilan taxtga o'tirdi (1325-1351).

Muhammadshoh otasidan juda ulkan imperiyani meros qilib oldi. Davlatning poytaxti Janubiy Hindiston hududlarini nazorat qilish uchun olislik qilardi. Shu boisdan Muhammadshoh poytaxtni Devagirga ko'chirdi va unga Davlatobod degan nom berdi. Lekin bir necha yil o'tgach sulton yangi poytaxtini tashlab, Dehliga qaytib keldi.

Sultonlikning ko'p sonli qo'shinini va markaziy, provinsial ma'muriyatini ta'minlash uchun juda katta mablag' zarur edi. Bu mablag'ni to'plash uchun Muhammadshoh qo'shimcha yer solig'i - abvabni joriy qilib, mis tangalarni zarb qila boshladi.

Muhammadshoh hukmronligining oxirgi o'n besh yili isyonkor feodallarning g'alayonlarini bostirish bilan o'tdi. Isyonchilarga nisbatan **shafqatsiz** bo'lganligi uchun ham unga dushmanlari "Xuniy" (Qonxo'r) laqabini berishdi. 1451-yilda amirlar isyonini bostirish uchun otlangan Muhammadshoh Txattuga (Sindning quyi oqimida) kelgan vaqtida bezgakka chalinib, vafot etadi.

Sinddagi harbiy lagerda amirlar taxtga o'lgan sultonning amakivachchasi Feruzni o'tqazishdi. U o'zining 40 yilga yaqin hukmronligi davrida (1351-1388) ta'sirli feodallar qo'lida qo'g'irchoq hukmdorga aylanib qoldi. Taxtga o'tirgan Feruzshoh zodagonlarning oshib borayotgan qudratini cheklashga urinishdan voz kechish - taxtni o'z qo'lida saqlab qolishning va bu orqali davlatning yaxlitligini ta'minlashning birdan-bir yo'li deb bildi. Lekin borgan sari ko'proq yon berishlar zodagonlarning ayirmachilik xarakatlarini battar kuchaytirib yubordi. Bu holat sultonlikning siyosiy hayotini parokandaga aylantirdi.

Feruzshoh vafot etgandan keyin har bir qudratli guruh feodallari o'z nomzodini taxtga asosiy davogar sifatida ilgari sura boshladi. 1394-yilda Dehli taxtiga Nosiriddin Maxmudshoh o'tqazildi, lekin Panjobning va Ikki daryo oralig'ining yirik feodallari uni tan olmasdan, toj kiyishga munosib nomzod sifatida Nusratshohni ilgari surdi.

1398-yil 17-dekabrda Amir Temur Dehli ostonasida Nosiriddin Maxmudshohning 10 ming kishilik qo'shinini tor-mor etib, shaharni egalladi. Maxmudshohning o'zi Gudjarotga qochib ketdi.

Amir Temur hujumi amalda tugʻloqlarning hukmronligini tugatdi. Sohibqiron ketishi bilan sultonlik taxti uchun yana oʻzaro kurashlar boshlanib ketdi.

1413-yilda Nosiriddin Mahmud vafot etishi bilan tugʻloqlar sulolasi barham topdi. 1414-yilda Dehlini Xizrxon qamal qildi va egalladi. XIV asrning 90-yillarida Moʻltonda hukmronlik qilgan Xizrxon u yerdan unga dushman feodal urugʻ tomonidan siqib chiqarilgan edi. Oʻzining baxtini izlab topish maqsadida 1399-yilda Hindistondan yurishga otlangan Temur qoʻshinlariga kelib qoʻshiladi va ularni to Kashmir chegarasigacha kuzatib qoʻydi. Huddi shu paytda unga Amir Temur tomonidan Hindistonga yurish davrida bosib olingan Moʻlton va Lahurga noiblik qilish topshirildi. Shohruxmirzo davrida ham u ushbu viloyatlarning noibi boʻlishda davom etgan.

1414-yilda Xizrxonning Dehlini egallashi bilan bu yerda Sayidlar sulolasi hukmronligi boshlandi. Xizrxonning oʻzi sulton unvonini olmadi (sulolaning nomi Xizrxonning sayidlarga mansubligiga borib taqalishidan kelib chiqqanligi aytiladi). Uning hokimiyati Panjob, Dehli va ikki daryo - Ganga va Jamna oraligʻi hududlarini qamrab olgan.

Oʻlimidan oldin Xizrxon taxtni oʻgʻli Muborakshohga vasiyat qildi. U oʻz hukmronligining 20-yiligacha oʻz nomidan tangalar zarb qilmadi va temuriylarning Qobuldagi hukmdoriga oʻlpon toʻlab turishda davom etdi. Shundan keyin Ganga va Jamna oraligʻidagi mustaqil feodal mulklarga, Panjobdagi xoxarlarga, temuriylarning Qobuldagi hukmdorlariga qarshi urushlar olib bordi.

1434-yilda Muborakshoh fitnaning qurboni boʻldi. Uning vorisi boʻlgan Muhammadshoh (1434-1445) davrida afgʻonlarning lodiy qabilasi qoʻmondonlaridan biri Baxlulxonning nufuzi ortib ketdi. Sayidlar sulolasining oxirgi vakili boʻlgan Alavuddin Olamshoh (1445-1451) real hokimiyatga ega emas edi, u bor yoʻgʻi Dehli va unga tutash ikki-uch okruglardagina hukmronlik qilardi. Zamondoshlari uning hokimiyati “Dehlidan Palamagacha” (Dehlidan bir necha kimolmetrdagi manzilgoh) deb taʼrif bergan edi. Haqiqiy hokimiyat amalda Baxlulxonning qoʻlida boʻlib, u 1451-yilda Olamshohni taxtdan tushirdi va Lodiylar sulolasi hukmronligini boshlab berdi.

XIII-XIV asrlardan boshlab koʻplab afgʻon lashkarboshilari oʻz qabiladoshlaridan tuzilgan harbiy otryadlar bilan Dehli sultonlarining

xizmatiga kira boshlagan edi. XIV asr oxiri – XV asr boshlarida lodiylar ular ichida eng ko‘p sonli guruhni tashkil qilgan.

Baxlul shuxratparast va uddaburon shaxs bo‘lsada, ammo xotamtoyligi va kamsuqumligi bilan boshqalardan ajralib turgan. U saroyda hashamatni umuman yoqtirmas edi, hatto qabul marosimlarida ham taxtda o‘tirishni o‘ziga maqbul deb bilmas edi. Uning 40 yilga yaqin hukmronligi muttasil urushlar va davlat sarhadlarini kengaytirish bilan o‘tdi. 1479-yilda Djaunpurni egallashidan keyin, ko‘plab isyonkor amirlar va rojalar unga tobeligini bildirishdi.

Baxlulning o‘g‘li bo‘lgan Iskandarshoh (1489-1517) aniq faoliyat ko‘rsatuvchi axborot xizmatini yo‘lga qo‘ya oldi va noiblar hamda vassal knyazlarni tobelikda ushlab turishga xarakat qildi. Ichki siyosatda u diniy ta‘qib siyosatini yuritganligi bilan tarixda qoldi. Uning onasi indus zargarining qizi bo‘lib, u sunniy oqimdagi musulmonlarni jonkuyarligi bilan tanilgan edi. Aynan uning tashabbusi bilan ko‘plab hind ibodatxonalari vayron etildi. 1504-yildan boshlab sulton Jamna daryosi bo‘yidagi bir qal‘ani o‘ziga qarorgoh qilib oldi. Bu makon Ganga va Jamna oralig‘idagi feodallar isyonini bostirish uchun juda qulay strategik nuqta edi.

1517-yilda Dehli sultonligi taxtiga uning o‘g‘li Ibrohimshoh Lodiy keldi. U taxtga o‘tqazish marosimini juda tantanali va xashamatli tarzdi o‘tkazdi. U tabiatan xashamga juda o‘ch inson bo‘lgan, shu boisdan ham otasining taxtini juda qimmatbaho toshlar bilan bezaydi, saroyda ham huddi shunday muhitni shakllantirdi.

Ibrohimshoh o‘z qabiladoshlariga va qarindoshlariga iltifot umuman ko‘rsatmadi, u sultonning qarindoshlari yoki qabiladoshlari bo‘lmaydi, faqatgina xizmatkorlari bo‘ladi degan fikrda bo‘lgan. To shu vaqtagcha sulton oldida o‘tirishga ruhsat berilgan bo‘lsa, endi Ibrohimshoh ularni boshqa mulozimlar qatorida qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib tik turishga farmon beradi.

Ibrohimshohning eng yirik harbiy muvaffaqiyati Gvaliur va Mevarga qarshi amalga oshirildi. Hukmronligining oxirgi yillarini isyonkor amirlarning g‘alayonlarini bostirish bilan o‘tkazgan Ibrohimshoh 1526-yilda Panipat jangida Bobur Mirzo qo‘shinidan yengildi. Shu tariqa Dehli sultonligi tarixi ham barham topdi. Hindistonda uch asrdan ziyotroq hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasi boshqaruvi boshlandi.

Dehli sultonligida yer egaligi. XIII-XIV asrlarda Dehli sultonligida asosan ikki xil kategoriyadagi yerlar bo‘lgan: *iqto* va *xolisa* yerlar.

Xolisa yerlar davlat ixtiyoridagi yerlar bo'lib, bunday yerlardan keladigan daromadlar soliq ko'rinishida olingan va asosan davlat mulozimlarini, armiyani ta'minlash uchun sarflangan. Ularning ta'minot ba'zan mahsulotlar berish shaklida yoki bo'lmasa, to'g'ridan-to'g'ri davlat g'aznasidan pul berish orqali amalga oshirilgan.

Davlat o'z ixtiyorida yerlardan asosan harbiy xizmat o'tash sharti bilan qisqa muddatga (odatda umrbodga) feodallarga tortiq qilgan yerlar *iqto* deb atalgan. Bunday yer olganlar iqtodor yoki muqto deb atalgan bo'lib, o'zlariga berilgan yerlardan xizmatchilari orqali to'planadigan soliqlar xisobiga kun kechirgan. Lekin shu to'plangan soliqlarning bir qismini davlat xazinasiga to'lashga majbur bo'ldi.

Undan tashqari Dehli sultonligida ham feodallar qo'lida shaxsiy yer-mulklar bor edi. Bu yerlar "mulk", "inom", "vaqf" kabi turlarga bo'lingan.

Baxmaniylar davlati

Dehli sultonlarining Vindxiya tog'laridan janubdagi hududlardagi hukmronligi uzoq davom etmadi. XIV asrning 40-yillarida sultonlik provinsiyasi bo'lgan Dekanni g'alayonlar qamrab oldi. 1347-yilda Devagirda (Davlatobodda) isyonkor feodallar Muhammad Tug'loqning sobiq qo'mondonlaridan birini Abu Muzaffar Olovuddin Baxman nomi bilan sulton deb e'lon qilishdi. U o'z davlatini noibliklarga - taraflarga (Gulbarga, Davlatobod, Bidar va Berar) bo'ldi. Poytaxt Gulbarga bo'lib, uning nomi Axsanobodga o'zgartirildi.

O'zining unchalik katta bo'lmagan siyosiy taraqqiyoti davrida Baxmaniylar sultonligi Dekanning katta qismini o'z tasarrufiga olgan edi, janubda Krishna, shimoli-g'arbda va shimoli-sharqda Tapti va Godavari daryolarigacha yetib bordi. Baxmaniylar davlati uzoq vaqtlar davomida Vijayanagar davlati bilan urush olib bordi. Sultonning vaziri bo'lgan Maxmud Gavan boshchiligidagi qo'shin o'zining boyligi bilan mashhur bo'lgan qadimiy Kanchi shahrini, uning ortidan sultonlikning boshqa dushmalari bo'lgan Malva va Konkanning ko'plab indus knyazlarini bo'ysindirdi.

Baxmaniylar davlatining siyosiy hayoti uchun xarakterli xususiyatlardan biri bu yerda ikki feodal guruhlar – dekaniylar (Dekanga kelgan ilk musulmonlarning avlodlari) va afakiylar ("begonalar", ya'ni yaqinda kirib kelganlar) o'rtasida muttasil kurash borganligidir. Ularning kurashlari diniy

mazmunni kasb etdi. Sababi afakiylar asosan shialik, dekaniylar bo'lsa sunniylik asosida islomga e'tiqod qilishgan. 1431-yilda dushmanlar Maxmud Gavanga tuxmat uyushtirishdi. Sarxush bo'lgan sulton saroy ahli ko'z o'ngida qarib qolgan va davlatiga katta xizmat qilgan vazirni qatl qildirdi.

XV asr oxiriga kelganda Baxmaniylar davlatini hududiy tarqoqlashish qamrab oldi. 1490-yilda Bidjapur mustaqil bo'lgan bo'lsa, shu yili Berar va Axmadnagar ham ajralib chiqdi. Axmadnagarda Axmad Nizomshoh o'zini hukmdor deb e'lon qilishgacha bordi, uning sulolasi bo'lgan nizomiylar to 1633-yilgacha Axmadnagarda hukmronlik qildi. 1512-yilda Qutbshohlar Golkondada o'z hukmronligini o'rnatishdi.

1525-yilda amalda umuman hokimiyatga ega bo'lmagan Baxmaniylarning oxirgi sultoni Bidjapurga qochib ketdi. Qudratli amir bo'lgan Qosim Barid o'zini Bidar davlatining hukmdori deb e'lon qildi.

Janubiy Hindiston. Vijayanagar imperiyasi

XIV asrning 30-40-yillarida Baxmaniylar davlatidan janubda yana bir qancha mustaqil knyazliklar tashkil topadi. 1334-1335-yillarda Reddi knyazligi ajralib chiqdi. Andxrining boshqa hududlari ham sultonga bo'ysinmay qo'ydi.

Mana shunday sharoitda Muhammad Tug'loqning Kampilidagi noibi bo'lgan Sangam urug'iga mansab aka-ukalar Xarixira va Bukkalar o'zlarini mustaqil deb e'lon qilishdi. Tungabxadra sohilida ular kuchli mudofaa devorlari bilan o'ralgan Vijayanagar qal'asini qurib, o'z mulklarini kengaytirishni boshlab yubordi. 1346-yilda Xoysal davlati, keyingi yili Banavasidagi Kadambo davlati, 1359-1360-yillarda Shimoliy Tamilnadda Shambuvaraylar knyazligi, 70-yillarda Madura sultonligi tobe etildi.

Shu tariqa deyarli butun Janubiy Hindiston birlashtirildi. Bundan keyin Vijayanagar davlatining chegaralari kamroq o'zgarib turdi, asosiy chegara masalasidagi kurashlar shimoliy qo'shnilar bilan olib borildi.

XV asr oxiri- XVI asr boshlarida Vijayanagar davlatining siyosiy qudrati pasaya boshladi, biroq Tuluva sulolasidan bo'lgan Krishnadevarayi (1509-1529) hukmronligi davrida yana Janubning eng qudratli davlatiga aylana oldi.

Vijayanagar davlatida Janubiy Hindistonda bundan oldin mavjud bo'lgan davlatlardan ancha markazlashganligi bilan ajralib turardi. Barcha ma'muriy hokimiyatning egasi maxaradja bo'lgan, lekin ko'pincha to'liq hokimiyat uning vaziri bo'lgan *maxapradxanlar* qo'lida to'plangan edi. Unga turli

vazirliklar – harbiy, moliya, ibodatxonalar ishlari, shaharlarni boshqarish kabi vazirliklar rahbarlari bo‘ysingan. Saroyda ancha keng tarkibiga ega bo‘lgan davlat kengashi chaqirilib turilgan, uning yig‘ilishida maxaradja, vazirlardan tashqari saroy mulozimlari, vassallar, savdo jamoalari vakillari ishtirok etgan.

Markaziy hokimiyatning ko‘rsatmalari asosida faoliyat ko‘rsatuvchi provinsiyalardagi noiblar ham bevosita maxapradxanga bo‘ysindirilgan edi. Ular har ikki-uch yilda almashtirib turilgan. Provinsiyalar o‘z navbatida amaldorlar tomonidan boshqariladigan kichikroq okruglarga bo‘lingan. Davlatda hali o‘z-o‘zini boshqarish instituti saqlanib qolgan bo‘lsada, ammo u real hokimiyatga ega emas edi.

Lekin bu boshqaruv tizimi Vijayanagar imperiyasining barcha hududlarida joriy qilinmagan edi. Imperiya tarkibida ichki muxtoriyatga ega bo‘lgan, lekin majburiy ravishda o‘lpon to‘lovchi va imperatorga harbiy otryad yuborib turuvchi vassal knyazliklar ham saqlanib qolgan.

Garchi rasmiy ravishda yerlarga egalik jamoa qo‘lida deb qaralsada, ammo haqiqatda yerlarning egasi feodallar edi. Yerlarning bir qismi davlat qo‘lida bo‘lib, bu yerlarda ishlagan dehqonlardan yer va boshqa soliqlar olingan.

Davlat yerlari xisobidan harbiy xizmat o‘tash sharti bilan harbiy vassallarga – amaranayyaklarga ham yerlar ajratib berilgan. Odatda ularga 10-12 tagacha qishloq yer-mulk tarzida berilgan va bu yerlar uchun u umrbod xizmat qilishi kerak edi. Garchi bunday tortiqlarni meros qoldirish taqiqlangan bo‘lsa ham, lekin amalda harbiy vassallar o‘ziga berilgan yerlarni merosiy qoldirganlar. Amaranayyaklar yerlarni boshqalarga, misol uchun ibodatxonalarga ham berishi mumkin edi. Imperator tomonidan tortiq qilingan yer-mulklar xisobiga ular harbiy otryadlarni qo‘lida to‘plagan va ularni boqib turgan, shu otryadlar bilan u imperator talabiga ko‘ra jangga otlangan. Undan tashqari ana shu yer-mulk xisobidan davlat xazinasiga daromadning 1/3 qismida soliq to‘lagan. oddiy hayotda bo‘lsa bu qoidaga rioya etilmagan, sababi harbiy vassallar belgilangandan kam harbiy otryad ushlab turgan va yer-mulklarida istiqomat qiluvchi aholidan olinadigan soliqlarni o‘z xohishiga ko‘ra ko‘paytirib borgan.

Amaranayyaklar armiyasi tarkibiga kirgan unchalik katta bo‘lmagan otryad qo‘mondonlari kichik miqdorda yer-mulklar berilgan bo‘lib, odatda bu yerlar unga xususiy qilib berilgan. Bunday mayda harbiy qo‘mondonlar imperator bilan birga uning yirik vassallaridan ham huddi shunday yerlarni olishi mumkin edi. Bu holat Vijayanagar davlatida feodal iyerarxiya tizimi

bo'lganligini ko'rsatadi. Ibodatxonalar kohinlari ham hukmron tabaqaga mansub qatlamni tashkil qilgan.

Vijayanagar davlatida jamoalar odatda bir qishloq hududi doirasidagi yer-mulklarga egalik qilgan bo'lib, bu yer-mulklarga asosan umumiy foydalanuvchi yaylovlar va ishlov berilmagan yerlar kirgan. Haydalib, hosil olinadigan yerlar jamoa a'zolarining shaxsiy egaligida bo'lgan. Bu yerlarga egalik huquqi shu bilan izohlanar ediki, agar bu yerlarning egasi bo'lgan kaniyatchi uzoq vaqt davomida o'z yeridan foydalanmagan bo'lsa ham va uzoq vaqt qishloqdan boshqa joyga ketgan bo'lsa ham, vaqtlar o'tishi bilan qaytib o'z yerini sota olgan.

Vijayanagar davlatida ham soliqlar muttasil oshib bordi. Bu holatda dehqonlarning boshiga katta tashvish bo'lib tushdi. Hatto feodallar qishloq jamoalarini ham o'z tasarrufiga o'tkazishga xarakat qilishdi, ba'zi joylarda qishloq boshqaruvi a'zolari feodallar tomonidan tayinlanadigan bo'ldi.

Yerga to'la egalik huquqi bo'lmagan kishilar - payakorlar soni ham muttasil oshib bordi. Ularning bir qismini tashkil etuvchi chorikorlar yer egasi bo'lgan feodaldan uzib bo'lmaydigan darajada qarzdor bo'lgan, shuning uchun ham bu qarzdorlik uning yerga birlashtirib qo'yilishiga sabab bo'lgan.

Feodallarning hokimiyat qishloqlardan tashqari shaharlarda ham kuchayib bordi. Shaharlarda kengashlar yo'qolib, hokimiyat gubernatorlar qo'lida to'plandi. Ular tomonidan shaharliklardan soliq yig'ish feodallarga va sudxo'rlarga otkup tarzida berildi.

Muttasil to'plangan boyliklar natijasida poytaxt Vijayanagar ertakmonand darajada boyib ketdi. Sharq mamlakatlari bilan birga Yevropalik sayyohlarni ham u o'zining xashamati bilan lol qoldiradigan darajaga erishdi. Vijayanagar imperatori soni salkam millionga yetib qoluvchi ulkan armiyani qo'lida ushlab turar edi. Baxmaniylar davlati parchalanishi bilan uning o'rnida tashkil topgan mayda sultonliklar birin-ketin Vijayanagar imperiyasi tarkibiga qo'shib olindi. Davlat XVI asrning o'rtalariga kelganda o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishdi.

Lekin tez orada qudratli mamlakat ichkaridan zaif ekanligi ma'lum bo'lib qoldi. To'rtta Dekan sultonliklari – Bidjapur, Axmadnagar, Bidar va Golkonda o'z qo'shinlarini birlashtirib, Krishna daryosi bo'yida, 1565-yil 23-yanvarda Vijayanagar davlatiga halokatli zarba berdi. Keyingi yuz yil davomida Vijayanagar Bidjapur va Golkonda bilan muttasil urushi natijasida qudratini yo'qotib bordi.

**Foydalanilgan va tavsiya etiladigan asosiy hamda
qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Matthew B. Encyclopedia of the middle ages. New York 1995.
2. История стран зарубежной Азии в средние века. М., 1970.
3. История стран Азии и Африки в средние века. М., 1987.
4. Мец А. Мусульманский Ренессанс. М., 1997.
5. Семенова Л.А. Салах ад-дин и мамлюки в Египте. М., 1966.
6. Фильштинский М. История Арабов и Халифата. М., 2006.

Nazorat uchun savollar.

1. Dehli sultonligi tashkil topishi arafasida Shimoliy Hindistonda vaziyat qanday edi?
2. Dehli sultonligining tashkil topishi haqida so‘zlab bering?
3. Roziya Sulton haqida nimalarni o‘rgandiz?
4. Dehli sultonligida hukmronlik qilgan sulolalarni davriy ravishda sanab bering?
5. Alovuddin Xiljiy faoliyatiga to‘xtaling?
6. Tug‘loqlar boshqaruvi davrida sultonlikdagi o‘zgarishlar haqida nimalarni ayta olasiz?
7. Dehli sultonligida yer egaligi munosabatlari qanday bo‘lgan?
8. Baxmaniylar davlati qachon tashkil topgan?
9. Vijayanagar imperiyasida boshqaruv tizimi qanday bo‘lgan?

MAVZU: SHIMOLIY AFRIKA VA YAQIN SHARQ DAVLATLARI RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA

Reja:

1. *Suriya va Misr Fotimiylar hokimiyati ostida.*
2. *Fotimiylar xalifaligining qulashi.*
3. *Salohuddin Ayyubiy. Suriya va salibchilar.*
4. *Mamluklar boshqaruvi davrida Misr va Yaqin Sharq.*
5. *XIII-XV asrlarda Misrda ijtimoiy-iqtisodiy hayot.*
6. *XI-XV asrlarda Misrda madaniy hayot.*

Tayanch atama va iboralar: *Tuluniylar, Fotimiylar, ismoiliylik, imom, berber, fallohlar, Ayyublar, Mamluklar, Bahriylar, Burjiylar.*

Suriya va Misr Fotimiylar hokimiyati ostida

Misr Tuluniylar* boshqaruvi davrida (868-905) amalda Abbosiylar xalifaligidan mustaqil edi. Sulola asoschisi Ahmad ibn Tulun (868-884) bo'lib, uning davrida turklar, berberlar va zanjilardan iborat muntazam qo'shin tuzildi. U o'z nomidan tanga zarb qildirdi. 905-yilga kelib Abbosiylar Fustatda hukmronligini tikladi. Ammo tez fursatda bu yerda Abbosiylar noibi Abu Bakr Muhammad ibn Tug'j Ixshid* (935-946) mustaqil Ixshidlar sulolasiga (953-969) asos soldi. Shu bilan birga Mag'ribda ismoiliylarning Fotimiylar xalifaligi (910-1171) ham yuzaga kelib, Misrning katta qismini egallab oldi.

X asr boshlarida hozirgi Tunis hududida ro'y bergan tartibsizliklardan foydalangan Abu Abdulloh hamda o'zini Ali va Fotima avlodi deya da'vo qilgan Ubaydulloh boshliq kishilar isyon ko'tarishdi. 909-yilda isyonchilar Qayruvon shahrini bosib olishdi. Ubaydulloh Mahdiy nomi bilan taxtga o'tirdi. Fotimiylar o'zlarini Ali ibn Abu Tolib va uning xotini Fotima avlodlari deb da'vo qilganlar. Ularga muxolif bo'lganlar mazkur da'voni inkor etib, ularni sulola asoschisi nomi bilan ubaydiylar deb nomlashadi. Fotimiylar shialikning ismoiliy oqimi tarafdori bo'lib, taxtga Ali avlodlarigina munosib deb xisoblagan. Ubaydiylar taxtga kelgandan so'ng, Misrni abbosiylardan tortib olishga xarakat boshladi. 914-yilda Iskandariya

* Tuluniylar - Misr, Suriya va Falastinda hukmronlik qilgan arablashgan turklar sulolasi.

* Ixshid - Farg'ona hukmdori unvoni bo'lib, xalifa uni Misrga noib etib tayinlagan edi.

egallandi. Ammo tezda abbosiylar qaytarib egallab oldi. 969-yilda Fotimiy xalifa Mu'iz (Ma'ad) (953-975) ning Javhar boshchiligidagi qo'shini Misrga bostirib kirdi. Giza jangida g'alaba qozongan qo'shin Fustat (Qohira)ni egalladi. Xalifa poytaxtni Nil bo'yida joylashgan Fustat shahriga ko'chirdi. Shahar al Qohira (Maftunkor) deb nomlandi. Tezda u Yaqin Sharqdagi katta shaharga aylandi. 972-yilda Xalifa Ma'ad Qohiraga ko'chib keldi. X asr oxiriga kelib, Falastinni hamda Suriyaning katta qismini bosib oldi. Fotimiylar boshqaruvi g'arbda Marokko chegaralarigacha, sharqda Suriya cho'llarigacha bo'lgan hududda tarqaldi.

Fotimiylarda ismoiliylik davlat dini bo'lsada, ammo barcha dinlarning tengligi ta'minlangandi. Diniy e'tiqod tengligi siyosatini xalifa Hokim (Xakim) (996-1021) buzdi. Uning musulmon jamoalarini kuchsizlantirish uchun qilgan soliq siyosati musulmonlarning noroziligiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga u musulmonlarga qul saqlashni ta'qiqladi, xristianlar va yahudiylarni ta'qibga oldi. Oxir oqibatda unga qarshi bo'lganlar tomonidan 1021-yilda xalifa sirli tarzda yo'q qilinadi. Shu boisdan ham Livan tog'larida yashovchi druzlar* orasida xalifa Xakimning osmondan tushishi haqida tushuncha shakllangan. Xalifaning vorisi Zoxir (1021-1036) diniy tenglikni tiklab, cherkov faoliyatiga ruxsat beradi, tortib olingan mulklarni egaloriga qaytaradi.

X-XI asrlarda Suriya va Falastinda iqtisodiy o'sish ro'y berdi. Suriya va Falastin shaharlari hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish markazlariga aylandi. Ayniqsa Damashq rivoj topdi. XI asrga kelib, Fotimiylar Suriyaning Tripoli, Bayrut, Sidon, Tir, Akra, Qaysariya, G'azo shaharlari hamda Shimoliy Afrika, Vizantiya, Sitsiliya va Italiya bilan dengiz savdosini jadal olib bordi.

Fotimiylar xalifaligining qulashi

X asrning oxirigacha harbiylar ichida yetakchilik berber hamda asosan fotimiylarni hokimiyatga olib kelgan ketam qabilasiga tegishli edi. Ammo keyinchalik asosiy rolni qullardan tashkil topgan g'ulomlar (boshqacha nomi mamluklar) egalladi. Ularning soni 60 mintagacha yetib, asosan qora tanli (sudanlik) va turklardan iborat edi. Mavqeyi oshib borgan mamluklar XI asrning o'rtalariga kelganda katta iqto yerlari olish huquqiga ega bo'ldi.

* druzlar - Asli buxorolik bo'lgan Daroziy nomli kishi Xakimning yaqin maslahatchisi bo'lgan. Druzlar aynan Daroziy nomi bilan bog'liqligi keltiriladi.

Xalifa Mustansir (1036-1094) davrida ular nihoyatda kuchaydi. Oxir oqibatda uning davrida berber, turk va Sudan mamluklarining o‘zaro qonli urushlari boshlanib ketdi. Urushda g‘olib bo‘lgan turklar 1062-yilda davlat xazinasini talaydi. Kuchsizlanib qolgan Fotimiylar Jazoir va Tunisni qo‘ldan boy berdi. 1071-yilda normannlar tomonidan Sitsiliya bosib olindi. Suriyaga esa saljuqiylar bostirib kirdi. Fotimiylar xalifaligi parchalanish arafasiga kelib qoldi. Bunday og‘ir vaziyatda xalifa Mustansir suriyalik harbiy yetakchi Badr al Jamol (kelib chiqishi arman bo‘lib, Suriya amirlaridan birining quli edi) dan yordam so‘raydi. Badr al Jamol 1073-yilda Qohiraga kirib keladi, birlashgan arman va suriyalik qo‘shinlar yordamida ahvolni o‘nglab, bir kechada boshqaruvni o‘z qo‘liga oldi.

Badr nafaqat bosh qo‘mondon, shu bilan birga bosh vazir va imom-xatiblikni ham egalladi. U xalifalikda yarim hokimiyatni qo‘lga oldi. Xalifa qo‘lida faqat tashqi ishlar qoldi. 20 yillik boshqaruvdan so‘ng xalifaning roziligi bilan Badr barcha huquqlarini o‘g‘li Shahanshohga berdi.

Fotimiylar xalifaligida diniy jamoaga imom boshchilik qilgan. Xalifa Mustansir Badr al Jamolning maslahati bilan boshqaruvining so‘nggi yillarida imom - xalifa etib katta o‘g‘li Nizorni emas, kichik o‘g‘li Mustalni tayinlaydi. Bu esa Fotimiy ismoiliylarning ikki guruhga-mustaliylar va nizoriylarga bo‘linishga sabab bo‘lib, bu xalifalikning diniy mavqeyiga salbiy ta’sir etdi.

Badr al Jamolning mamlakatni mustahkamlashi va iqtisodiy faoliyati vaqtinchalik xarakterga ega bo‘ldi. Doimiy ravishda armiyani pul bilan ta’minlab turishga ehtiyoj moliya devonini muntazam soliqlar yig‘ishga majbur qilardi. Bu esa mamlakat iqtisodini va oddiy xalq ahvolini battar og‘irlashtirib yubordi.

XII asr o‘rtalariga kelib salibchilar Askalon va G‘azoni egallashdi. Endi Misrga yo‘l ochildi. 1163-yil Quddus qiroli Amalrix (Amori) Suvaysh hududlariga kirib keladi. Misrga hujum boshlaydi. Mag‘lub bo‘lgan fotimiylar unga har yili o‘lpon to‘lash majburiyatini oldi. Ammo uni bajarmaydi. Shu boisdan 1167-yilda Amalrix Misrga yana yurish qildi. U Qohira ostonalarigacha yetib bordi. Tinchlik kelishuvi tuzilib, o‘lpon to‘lash majburiyati yana yuklatiladi.

Suriyaning qolgan hududlari alohida arab saljuq feodallari qo‘lida edi. Ularning oxirgi qudratlaridan biri Mosul hukmdori Zangiylar xisoblanadi. Salibchilarga qarshi muvaffaqiyatli kurashni otabek Imomiddin Zangi (1127-1146) amalga oshirdi. XI asr o‘rtalarida amir Imomiddin Zangi Iroq va Shimoliy Suriyani o‘z qo‘l ostiga oldi. Uning armiyasi 1144-yilda Edessa

grafligining katta qismini bosib olib, 1146-yilda Edissani egalladi. Bu ikkinchi salib yurishi (1147-1149) ni keltirib chiqardi. Damashqni qamal qilish to'liq muvaffaqiyatsiz tugadi. 1146-yili Suriyani birlashtirish siyosatini amalga oshirgan Imomiddin Zangi vafot etadi. Uning o'g'li va vorisi Nuriddin (1146-1174) "e'tiqod uchun muqaddas urush" (jihot) e'lon qildi. Salibchilarga qarshi kuchli armiya tuzib, muvaffaqiyatli janglar olib bordi. 1154-yili Damashqni egalladi. Uning mohir lashkarboshilari ichida ikkita aka-uka – Asaddin Shirkux va Najmiddin Ayyublar (kelib chiqishi kurdlardan bo'lgan) bor edi. U lashkarboshilariga yuqori lavozimlar berdi. Xususan, Ayyubni Damashq amiri etib tayinladi. Nuriddin Zangi Shirkux va uning vorisi Salohuddin Ayyubni Fotimiylarning o'zaro urushlariga chek qo'yish va Quddus qiroli Amalrixga qarshi kurashda yordam berish uchun yubordi. Misrga salibchilarning tazyiqini yo'qota olgan Shirkuxning dono siyosati uning Qohira saroyida ta'sirini oshirdi. Nuriddinga vassal sifatida tobe bo'lgan fotimiylarning oxirgi xalifasi Odid 1168-yilda Shirkuxni vazir etib tayinladi. Kelgusi yili taomdan tasodifiy (sirli) zaxarlanishdan Shirkux vafot etdi. Vazirlik Shirkuxning oxirgi yurishlarida ishtirok etgan Salohuddinga o'tdi. Salohuddin uzoq vaqt vazirlikni qo'lida tutib turolmaydigandek tuyuldi. U fotimiylar vaziri sifatida Nuriddin xizmatida bo'lgan. Salohuddin real qo'shinlarga ega emas edi, binobarin fotimiy qo'shinlari 40 ming otliq askarlarga, 30 ming qora tanli piyodalarga ega bo'lsa ham, unga bo'ysunmagan. Salohuddin o'zining shaxsiy "salohiya" otryadini tuza boshlaydi. Ularni ta'minlash uchun Misr amirliklari yerlarini musodara qiladi. Bu esa qora tanli qo'shin boshliqlarining noroziligiga olib keldi. 1169-yili ularning otryadi qo'zg'olon ko'tardi, Salohuddin uni bartaraf etdi, qo'shinlarning qolgan qismi Yuqori Misrga ketdi. Nuriddin Zangi Salohuddinning yuksalishini qo'rquv bilan kuzatib turdi. O'z ukalari tomonidan qo'llab quvvatlangan Salohuddin Misrni to'laligicha boshqaruviga olishga xarakat qildi. Nuriddin o'z vassalining rejalaridan xabar topib, unga ishonmay qo'ydi. Salohuddinning Misrdagi pozitsiyasini zaiflantirish uchun Suriyaga o'z otryadi "nuriya"ni chaqirib oldi. Salohuddinning Suriya iqtolarini musodara qildi. Undan tashqari o'z vassalini kuzatish uchun Nuriddin Misrga Salohuddinning otasi Ayyubiylar urug'ining boshlig'i, unga sodiq bo'lgan Najmiddin Ayyubni jo'natadi. Najmiddin Nuriddin va Salohuddin o'rtasidagi sovuqlikni bartaraf qildi. Salohuddin otasiga iqto sifatida Aleksandriya va Dometta portlaridan tushgan daromadlarni in'om etdi.

Qora tanli qo‘shinlarni yo‘q qilish bilan birga fotimiylar o‘zining bosh harbiy tayanchini yo‘qotadi. 1171-yilda g‘ayratli sarkarda Salohuddin armiya va feodallar qo‘shini ko‘magida harbiy to‘ntarishni amalga oshirdi. So‘nggi fotimiy xalifa Odidni taxtdan ag‘darib, o‘zini sulton deb e‘lon qildi. Shu tariqa rasman Ayyubiylar sulolasi (1171-1250) hukmronligi boshlandi. U diniy tarafdin Bog‘dod xalifasiga buysunardi.

Salohuddin Ayyubiy. Suriya va salibchilar

Suriya va salib yurishlari. XI asr oxiriga kelib, Sharqiy O‘rtayer dengizi mamlakatlari siyosiy hayotiga yangi omil - salib yurishlari kirib keldi. Birinchi salib yurishlaridan so‘ng Suriya va Falastinda salibchilarning to‘rtta davlati: Quddus qirolligi, Tripoli grafligi, Antioxiya knyazligi va Edissa grafligi yuzaga keldi. Salibchilar davlati G‘arbiy Yevropa feodal huquqlari asosida boshqarilgan. Bunda asosan Quddus qirolligida yaratilgan “Quddus assislari”ga tayanilgan. Birinchi salib yurishlaridan so‘ng Vizantiya salibchilarning yordamida saljuqiylardan Kichik Osiyoning qirg‘oq bo‘yi hududlarini olib qo‘ydi. Uchinchi salib yurishlari davrida salibchilar Kipr orolini egallashdi. Bu yerda fransuz feodallari tomonidan Kipr qirolligiga (1191-1489) asos solindi. Salibchilar Suriyaning sharqiy qismlarinigina egallay olishmadi.

Birinchi salib yurishidan so‘ng yuzaga kelgan salibchilar davlatlari Yaqin Sharqda yuz yildan ortiq davrda saqlanib qolishining asosiy sabablaridan biri bu hududdagi amir va otabeklar o‘zlarining ichki ishlari bilan band bo‘lgani, saljuqiylarda esa o‘zaro urushlar avj olganida edi.

Shirkuxning o‘limidan so‘ng Misrda hokimiyatni Salohuddin Ayyubiy qo‘lga oldi. Salohuddinning hukmronligining birinchi yilidayoq bosqinchilik uyushtirishdi: 1172-1173 yillar qo‘mondon Baxa ad-din Karakamush at-Takavi Afrikadagi Barku va Tripolini istilo qildi. 1174-yil esa, Misr armiyasi Salohuddining akasi Turanshoh boshchiligidagi Yamanni bosib oldi. Bu yurishlardan maqsad Nuriddin bilan kurashdagi tasodifiy mag‘lubiyatdan qutulish edi. Ammo ushbu yili Nuriddin vafot etdi. Uning vassallari Suriya uchun kurashdi. Nuriddinning vorisi voyaga yetmagan Solihning taxtga huquqini himoya qilish bahonasida Salohuddin qo‘shinni Suriyaga yubordi. Kuchli qarshilik bo‘lmadi. 1174-yil Damashq, Hama, barcha Suriya hududlari egallandi. Xalebdan tashqari Suriyada uning birinchi noibi etib Turanshox tayinlandi. Keyinchalik esa Zangilarning qolgan hududlarini bosib yoki

qo'shib oldi. Shunday qilib, Misr va Suriyani qo'l ostida birlashtirgan Salohuddin salibchilarga qarshi kurashni davom ettirdi. Salohuddin avvaliga Tibermasga hujum uyushtirib, 1187-yil 1-iyulda uni ishg'ol qildi. Bunga javoban nasroniylar katta qo'shin bilan hujumga o'tdilar. 4-iyulda bo'lib o'tgan to'qnashuvda nasroniylar 20.000 jangchi bilan qatnashgan bo'lsa, Salohuddin askarlari soni ancha ko'p edi. U raqiblari ustiga shunday vajohat bilan yopirildiki, natijada ular to'da-to'da bo'lib qochib qoldilar. Sulton Quddusning qo'lga tushgan qiroli Gay Lusaynanskiyga haqiqiy qirollarga xos iltifot ko'rsatdi. Biroq chatillonlik Rejinaldga nisbatan nasroniy zodagonlardan chiqqan xoin sifatida juda qattiq munosabatda bo'ldi. Sababi Rejinald Salohuddinga bergan so'zi ustidan chiqmasdan, musulmonlar bilan yomon muomala qilar, ziyoratchilar karvonlarini talab, aybsiz va bechora kishilarga zulm o'tkazar edi. Salohuddin shaxsan o'zi uning boshini tanasidan judo qilishga bergan va'dasini bajardi. Salohuddin Askal, Akka, Sidonni egallaydi. U Quddusga hujum qilib, yuz yildan beri nasroniylar tasarrufida bo'lib kelayotgan bu shaharni ham bosib oldi. Gotfret Bulonskiydan farqli ravishda u hech kimni qatl ettirmadi.

1187-yilning oxiriga kelib Salohuddin qo'lga Quddus qirolligining deyarli barcha yerlari o'tdi. Faqatgina mustahkam Tir shahri salibchilar qo'lida qoldi. Quddusning qulashi Yevropda uchinchi salib yurishining (1189-1192) boshlanishiga sabab bo'ldi. Unga Angliya qiroli Richard I Sheryurak, Germaniya imperatori Fridrix I Barbarossa, Fransiya qiroli Filipp II Avgust boshchilik qildi. Ushbu yurish o'z maqsadiga erisha olmadi. Salibchilar faqatgina Falastinning dengiz buyida joylashgan Akka, Sidon va Beyrut hududlarini egalladi. Falastinning qolgan qismi Quddus bilan musulmonlar qo'lida qoldi. Musulmonlar g'alabasi tufayli Richard I Sheryurak Salohuddin bilan Ramle sulxi imzolaydi. Unga ko'ra, Turdan-Yaffagacha bo'lgan dengiz bo'yi hududlari salibchilarga berildi, G'arbiy Yevropalik ziyoratchilarning Quddusga erkin kelishi kelishib olinadi.

Shu tariqa Salohuddin qisqa vaqt Misr, Hijoz, Falastin, Suriya va Yuqori Mesopotamiyani birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Natijada Nil irrigatsiya tizimi yaxshilanganligi hamda dehqonchilikning rivoji Misrning iqtisodiy hayotini ham jonlantirdi. Tashiq savdo rivoj topdi. Ayyub sultonlari G'arbiy Yevropa davlatlari bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'ydi. 1193-yilda Salohuddin Damashqda bezgak kasalligidan o'ldi. U o'limidan so'ng o'zaro urushlarga yo'l qo'ymaslik hamda davlati butunligini ta'minlash maqsadida o'z davlatini hayotlik paytidayoq to'rtga bo'lib bergandi. Vasiyatiga ko'ra

davlat yerlari uning o'g'illari o'rtasida bo'lindi. Katta o'g'li Afzalga Damashq, Azizga Misr, Zohirga Xalab, ukasi Odilga Mesopatamiya yerlari berildi. Ammo 1196-yilda Damashqni Afzaldan Odil tortib oldi. Odil shuningdek 1201-yilda Azizning vorisi Mansurdan Qohirani ham olib qo'ydi. Faqat Xalabni Zohir va uning vorislari mustaqilligini 1260-yilgacha saqlab qoldi. Shu tariqa parchalanib ketgan Salohuddin davlatini Odil bir qadar birlashtirdi. Ayyubiylarning avvalgi qudratini tikladi. Yuksak ma'lumotli bu hukmdor Yevropadagi ko'plab davlatlar bilan elchilik va savdo aloqalarini bog'lab turdi. U 26 yil (1192-1218 yillarda) hukm surib, Ayyubiylar nomi va shon-shuhratini ulug'lab keldi. Odil davrida salibchilar tomonidan to'rtinchi salib yurishi tayyorlandi. Ammo bu salib yurishi Enrike Dandalo tomonidan Vizantiyaga burub yuborildi. Undan keyin taxtga o'tirgan o'g'li Komil ham davlatni yaxshi boshqardi. Lekin Komildan so'ng ayyubiylar o'zaro nizolar sabab asta-sekin holdan toydi. Natijada Salohuddin vafotidan 40 yil o'tgach, nasroniylar o'z vaqtida boy berilgan ko'pgina shaharlarni qaytarib olishga erishdi.

Misrni boshqargan Ayyubiylarning keyingi hukmdorlari ham o'zlarining qudratini saqlab keldi. 1250-yilda Damettada salibchilar qo'shini ustidan qilingan g'alaba buni misoli edi. Jangda Lyudovik IX ham asir tushib, faqat katta to'lov evaziga ozod qilinadi. Salib yurishidan ko'p o'tmay, As-Solih (1240-1249) vafot etdi, uning iste'dodli bevasi, malika Shajar ad-Dur o'g'li Turonshoh Eronga sayohatidan qaytib kelguniga qadar davlatni boshqarib turdi. Turonshoh kelgach, rahbarlikni unga ishonib topshirdi. Turonshoh o'z mavqeyini saqlab qolish uchun ko'p xarakat qildi, lekin podshohning turk qullaridan tashkil topgan mamluklar deb atalmish soqchilari unga nisbatan ancha kuchli edilar. Ko'p o'tmay, soqchilar boshqa talaygina musulmon hukmdorlarga nisbatan ishlatgan usullarini Salohuddinning nochor vorisiga ham qarshi qo'lladi. Turonshoh o'ldirilib, Shajar ad-Dur muvaqqat hokim qilib tayinlandi. Aslida uning nomidan davlatni mamluklar rahnomasi Oybak boshqarardi. Tez orada mamluklar butun ayyubiylar imperiyasi ustidan hukmronlikni ochiq-oshkora o'z qo'llariga oldilar.

Mamluklar boshqaruvi davrida Misr va Yaqin Sharq

Mamluklar*ning hokimiyati ayyubiylar davrida ham kuchayib bordi. 1250-yil Damettada salibchilar ustidan qozonilgan g'alabadan keyin so'nggi Ayyubiy sulton Turonshox (1249-1250) qo'lga olinib, mamluklar tomonidan

* Dastlab mamluk tug'ma quldan farqli ravishda faqat qo'lga kiritilgan qulga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik

o'ldiriladi. Damashq va Xalabda saqlanib qolgan ayyubiy hukmdorlar 1260-yili o'z hududlarini mo'g'ullarga boy berib qo'ydi. Arabistondagi ayyubiylarni 1228-yilda rasuliylar siqib chiqarishgan. Faqat Hamada ayyubiylar sulolasi 1341-yilgacha hukm surdi. Qohira shahri egallangandan so'ng ikki yuz ellik yildan ziyod davomida Misrni boshqargan mamluklar sulolasining boshqaruvi boshlandi. Mamluklarda o'tgan bu davrda ikki sulola hukmronlik qildi. Bular Bahriylar (dengiziylar) (1250-1390) va Burjiylar (qal'aliylar) (1390-1517) edi. Bahriy sultonlarining dastlabki istiqomat joylari Nil daryosidagi ar-Raud oroli (al-Bahr)da bo'lganligidan "Bahriy sultonlar" deb nom olgan, ikkinchisi Qohiradagi al-Burj istehkomidan bo'lganligi uchun Burjiy sultonlar deb atalgan. Bahriylar umuman hokimiyatni hukmdor oila a'zolariga meros qilib beraverganlar. Lekin burjiylar o'rtasida esa, hokimiyatning meros qolishiga ijozat berilmagan; qadimiy turkiy odatlarga binoan hukmdorlar saylangan. Bahriylar etnik jihatdan Rossiyaning janubiy dashtlarida ko'chib yuradigan mo'g'ul va kurd aralash qipchoqlardan iborat edi. Burjiylar esa, asosan, Kavkazdan kelgan cherkaslar edi. Bahriylardan bo'lgan Shajar ud-Dur 1250-yilda mamluklar taxtiga o'tirdi.

Suriya, Misr sultonligi va mo'g'ullar. O'rtayer dengizining sharqiy qirg'oqlarida joylashgan davlatlar – Misr, Suriya va Kichik Armanistoni XIII asrda bosqinchilik xarakatlarining markaziga aylandi. Sharqdan mo'g'ullar, G'arbdan G'arbiy Yevropa davlatlarining feodallarining hujumlari boshlandi. Mo'g'ullarning Xulagular davlatining tashkil topishi va Bog'dodni egallanishi Suriya, Falastin va Misrni mo'g'ul bosqinchiligi xavfi ostida qoldirdi. Mo'g'ul qo'shinlari salibchilar ko'magida Suriya hududlarini egalladi. Biroq mamluk sultoni Qutuz (1259-1260) 1260-yilda Aynjalut (Falastin) da bo'lgan jangda mo'g'ullarni mag'lub etadi.

Mamluklar o'z ichki va tashqi siyosatida Ayyubiylarning an'alarini davom ettirdi. Mamluklarning ilk sultonlaridan Beybars (1260-1277) o'zini ikkinchi Salohuddin deb xisoblagan. Beybars qipchoq qullaridan bo'lib, sulton Saloh tomonidan sotib olingan va uning qo'shinida jang qilgan. Lyudovik IX ning salibchi armiyasi bilan bo'lgan jangda Misr armiyasiga qo'mondonlik qilgan. So'ngra Muazzam Turonshohga qarshi fitnada ishtirok etgan. Mo'g'ullar armiyasi Suriyaning ichkari qismiga kirib borgach, sulton

mamluklar deb harbiy qo'shinda xizmat qiluvchi qul-jangchilar atalgan. Ular ko'pincha yuqori harbiy lavozimlarni egallab, bu bilan hatto ozodlikka ham erishganlar. IX asrdan g'ulom (o'smir, qul-jangchi) so'zining sinonimi sifatida, lekin odatda oq g'ulomlarga nisbatan qo'llanilgan; XII-XIII asrlarda mamluk atamasi Suriya va Misrda g'ulom so'zini siqib chiqargan. Ayyubiylardan bo'lgan Mamluk amirlari 1250-yil Misrda hokimiyatni qo'lga olgan.

Qutuz boshchiligidagi mamluklar armiyasini magʻlub qilgan (1260). Soʻngra sulton etib saylangan Baybars bor kuchini salibchilarning qolgan qismiga qaratdi. Asosiy yurish 1265-yil boshlandi. 1268-yilda Antioxiyani egallab, knyazlikni tugatdi.

1265-yil Beybars Kichik Armanistondagi moʻgʻullarga qarshi muvaffaqiyatli yurish qildi. Poytaxt Sis vayron qilindi. Arman podshosi Misrga vassalligini tan oldi. Xulagularga qarshi kurashda Beybars Oltin Oʻrda bilan ittifoqchilikdan foydalandi. Oltin Oʻrda bilan oxiriga qadar ittifoqchilik qildi. Mamlakatlar armiyasi 1275-yil Nubiyaga qarshi yurish qildi. 1277-yilda Albiston jangida moʻgʻullar Beybars qoʻshinlarini magʻlub etdi.

1289-yilda mamluk sultoni Mansur Sayf ad-din Qulovun (1279-1290) tomonidan Tripoli egallandi. 1291-yilga kelib sulton Ashraf Salohuddin Xalil (1290-1293) salibchilardan Akka, Tir, Sidon, Bayrutni tortib oldi. Shu tariqa salibchilar Suriyadan tamoman quvib chiqarib tashlandi.

1287-yilda Xulagular hukmdori Argʻunxon nasroniy monaxi, uygʻur Rabbin Sauma boshchiligida Fransiya, Angliya hukmdorlari, Genuya va Rim papasi oldiga elchi yubordi. Undan koʻzlangan maqsad, birgalikda Suriya va Falastinga yangi salib yurishini amalga oshirish edi. Xulagu hukmdor Argʻunxonning oʻgʻli Gʻozonxon Suriyaga bostirib kiradi. Xalab va Damashqni egallaydi. Ammo, 1303-yilda Marj as Saffarda boʻlgan jangda mamluklardan magʻlub boʻladi. Abu Said Elxonlar sulolasining eng soʻnggi atoqli vakili edi. 1323-yilda u mamluklar bilan sulh tuzdi va shu bilan Suriya uchun kurashga chek qoʻydi.

XIV asrning ikkinchi yarmiga kelib Xulagular Suriya va Misrga yurish qilmay qoʻydi. Bu hududlar mamluklar qoʻl ostida XVI asrning boshiga qadar qoldi.

Misr mamluklari nafaqat moʻgʻullar hujumini qaytarish bilan birga ularni uloqtirib tashlashga erisha oldi. Mamluk sultonlarining Xulagu hukmdorlariga qarshi kurashi “islomni himoya qilish” gʻoyasi ostida amalga oshirildi. Chunki, Bogʻdod egallangandan soʻng, Qohiraga oʻzini soʻnggi xalifaning amakisi deb tanishtirgan qochqin keladi. Uni xalifa qilib koʻtarib, diniy jihatdan ulugʻlaydi. Beybars II (1308-1309) davrida Barka qoʻshib olinib, Nubiya boʻysundirildi. Hijoz va uning muqaddas shaharlari Makka hamda Madina ustidan mamluk sultonlarining hukmronligi saqlab qolindi. 1375-yilga kelib, Kichik Armaniston poytaxti Sis qalʼasi egallandi. 1365-yilda Kipr floti magʻlub etilib, Aleksandriya talan-taroj qilindi.

1382-yilda mamluklar davlatida yangi sulola-burjiylar boshqaruvi boshlandi. Yangi sulolaning birinchi sultoni Zohid Sayfuddin Barquq (1382-1399) va uning vorisi Nosir Faraj davrida Shimoliy Suriyaga Temurning yurishi amalga oshirildi.

Misr armiyasi 1426-yili Ashraf Sayfiddin Barsbey (1422-1438) boshchiligida Kipr orolini egalladi. Kipr hukmdori Misrga vassallikni tan oldi. Bu vassallik Kipr 1489-yilda Venetsiya boshqaruvi ostiga o'tguncha davom etdi.

Mamluklarning mansablar tizimi ancha murakkab bo'lib, eng yuqori mansablarni sultonning shaxsiy mamluklari egallab turgan. Qul maqomi hokimiyat pillapoyalaridan ko'tarilishning muhim sharti bo'lgan, chunki erkin odamlar, shu jumladan, sobiq mamluklarning o'g'illari qo'shinda eng quyi mansablarni egallashgan. (Usmonli turklar saltanatida ham turklarning holati shu tarzda bo'lib, mansabga ko'tarilish uchun eng qulay imkoniyatlar ko'pi qullarida bo'lgan). Sulton yakka hokimligi bosh amirlar va to'rachilik mulozimlari tomonidan cheklab turilgan, hukmdorlarning tez-tez almashinib turishi va bir kishining bir necha bor hukmdor bo'lishi sultonlikning barqarorligiga putur yetkazgan, jumladan, an-Nosir Muhammad ibn Qalavun hokimiyat tepasiga uch marta kelgan. Mamluklar ayyubiylarning sunniylik siyosatini davom ettirganlar.

XIII-XV asrlarda Misrda ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Yer egaligi munosabatlari. Bu davrda Misrda yerga egalikning turli shakllari mavjud edi. Sultonning shaxsiy yerlari - xos, amirlar va bir qancha harbiylar yeri - junda (iqto), diniy muassasalarning yeri - vaqf, merosiy yerlar - mulk qo'riq va sug'orilmaydigan yerlar - mavat mavjud edi.

Fotimiylar davrida harbiylarga berilgan yerlar xisobiga davlat yer tuzilishi o'zgardi. XIII asrning oxiriga kelib, amirlar iqto yerlarining katta qismini egallab turardi. Amirlarni kuchsizlantirish maqsadida sulton Mansur Lojin (1296-1299) yerlarni ular qo'lidan tortib olib, yangi tartib asosida bo'lib chiqdi. Ammo tezda amirlar sultonni o'ldirdi. XV asrning boshiga kelganda ham yerlar asosan sulton va amirlar qo'lida turardi. Suv ta'minot davlat ixtiyorida bo'lgan.

Mamluklar davrida Misr dehqonlari (falloxlar) yerga biriktirilgan bo'lib, qullardan deyarli farq qilmagan. Ularning qashshoqligi nafaqat yerlari uchun to'laydigan to'lovlar, balki, boshqa to'lovlar xisobiga ortib bordi. Oqibatda

XII-XIV asrlarda rivoj topgan qishloq xo'jaligi XV asrga kelib keskin pasayib ketdi. Mamluklar davrida og'ir ahvoldagi falloxlar tez-tez isyonlar ko'tarib turdi. 1253-yilda kambag'al badaviylar isyon ko'tardi. XIV asr o'rtalarida Yuqori Misrda katta xalq qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. Lekin, shunday bo'lsada keng ko'lamda qul-asirlarning Suriya, Kichik Armaniston, Nubiya va boshqa shaharlardan keltirilishi natijasida, ulardan nafaqat uy xo'jaligida, balki hunarmandchilikda ham foydalanishgan.

XIII-XV asrlarda Misrda shaharlar va savdo. Mo'g'ullar bosqiniga qadar O'rtayer dengizi va Hindiston o'rtasidagi karvon, dengiz savdosida Bog'dod asosiy tranzit markaz sifatida qoldi. Bog'dod egallangandan so'ng tranzit savdo Misr, Qizil dengiz va Hind okeani orqali o'tadigan bo'ldi. XIII-XIV asrda Misrda savdo aylanmasi jadallik bilan rivojlandi. Mamluklar davrida Misrning Hindiston bilan tranzit savdosida asosiy rolni karmatlarning savdo tashkilotlari o'ynay boshladi. Venetsiya, Genuya va Piza hamda Italiyaning boshqa shaharlari savdogarlari o'zlarining kvartallarini, cherkovlarini, gospitalarini, savdo omborlarini Aleksandriya, Dometta va Qohira shaharlarida bunyod etishdi. Aleksandriyadagi Venetsiya konsuli mamluk sultonlarining tashqi siyosatiga muntazam ta'sir etib turgan. U mamluklarning O'rtayer dengiz davlatlari bilan tuziladigan shartnomalarida vositachi vazifasini ham bajargan. Genuya savdogarlaridan biri hatto sulton Beybarsning yaqin do'sti bo'lib, uning nomi bilan Qrim, Konstantinopol va boshqa hududlarda savdo ishlarini olib borgan.

XIII asrda Yaqin Sharq tranzit savdosining 15 % Misr hududidan o'tardi. Bu ko'rsatkich XV asrda 35 % ni tashkil etgan. Ammo Hindistonga boradigan dengiz yo'lining ochilishi va portugallar tomonidan bu yo'ldagi muhim savdo portlari (Hurmuz, Adan va boshqalar) egallanishi bilan XVI asr boshiga kelib yo'l o'z ahamiyatini yo'qotdi.

Arxitektura. Mamluklar, ayniqsa, ularning bahriylar shoxobchasi masjid va yodgorliklar bunyod etishga katta e'tibor berdilar. Osma quvurlar o'tkazib, ko'priklar, bog'lar, shaharga darvozalar, masjidlar, maktablar, xonaqohlar qurdirgan Bahri Sulton an-Nosir ular orasida eng mashhuri edi. U 1304-yilda bunyod etgan Nosiriya maktabining binosi me'morchilikning eng yaxshi namunalaridan xisoblanadi. Barquq, Qayt Bey (ular bunyod etgan masjid va madrasalar hali ham mavjud) va Al-G'uriy mamluklarning eng buyuk binokorlari sanalardi. Ular bunyod etgan binolar uslubiy go'zalligi jihatidan musulmon me'morchiligida o'ziga xos xisoblanadi.

Ayyubiylar va mamluklar hadis va fiqh ilmidan ta'lim beradigan madrasalar qurdirgan. Bu davrdagi xonaqohlarning vazifalaridan biri g'arib musulmon kishilarga saxovat ko'rsatish va ularning og'irini yengil qilish edi. O'rta asr tarixchisi Maqriziyning ta'kidlashicha, tasavvuf Misrda XII asrdan boshlab rivojlangan, Salohuddin Ayyubiy birinchi xonaqohni qurdirgan. Shundan so'ng xonaqoh, rabotlar ko'plab qurila boshladi. Ayniqsa, bahriy mamluk sultonlari hukmronligi davrida ularning soni ko'payib, ularda sufiylar istiqomat qilishgan. Davlat arboblari bu xonaqohlarni qurish bilan shayxlarning e'tiborini qozonardilar. Davlat hech qachon xonaqoh molini o'z manfaatlari yo'lida ishlatmas, shuningdek boshqa yo'llar bilan foydalanishga ruxsat bermas edi. Xonaqohlarda kutubxona ham mavjud bo'lgan. Mamluklar davrida xuddi hozirdagidek kitoblarni saqlab, bir yoki bir necha oyda qaytarib beradigan va ularning o'z vaqtida berilishi va yo'qolmasligiga mas'ul shaxs bo'lgan. Kutubxonada kitoblar tartibi, jildlanishi bir tizimga solingan. Qur'on o'quvchi qori yoki voiz yaxshi ovozga va qiroatga ega bo'lishi kerak edi.

Mamluklarda XV asr o'rtalariga qadar markaziy hokimiyat kuchli bo'lib keldi. Sulton katta buyruqbozlikka asoslangan boshqaruvni yo'lga qo'ygan edi. Davlat boshqaruv apparati harbiylashtirilgan edi. Bu tizimni tepasida sulton yordamchisi - noib turardi. XV asrning ikkinchi yarmiga kelib, Misr sultoniga qarshi amirlar isyonlari avj oldi. Shu bilan birga XV asrning oxirlarida Venetsiya bilan ittifoqda Usmoniy turklarga qarshi kurashlarni boshladi.

Sulton Qonsuh G'avriy (1501-1516) davrida portugallar bilan dengiz urushi bolib o'tdi. Qizil dengiz bilan bo'lgan savdoda ustunlik saqlanmadi va boy berildi. 1509-yil Misr floti mag'lub etildi. XV asr o'rtalaridayoq mamluklar armiyasi Shimoliy Suriya hududlarida turkman sulolalari bilan doimiy urush olib bordi. Sulton Qoyitboy (1468-1496) Turkiya bilan to'qnashuv muqarrarligi sababli, bitim imzoladi.

XV asrga kelib Mamluklar Usmonli sultonlarni o'zlarining asosiy dushmanlari deb bilishardi. Mamluklar g'arbiy Diyorbakrdagi oraliq davlati sifatida Zulg'adir o'g'ullari degan turkman xonligini saqlab qoldilar va Qaramoniylarni qo'llab-quvvatladilar. Ammo o'zlarining beqiyos g'ayratu shijoatlari, zambaraklar va miltiqlardan mohirona foydalanishlari bilan ajralib turuvchi Usmonli sultonlardan ustun edilar. 1516-yil turk armiyasi Salim I boshchiligida Suriyaga yurish qildi. 1516 yilda Xalab yaqinidagi Marj Dabik degan joyda bo'lgan jangda mamluklarning nufuzli so'nggi sultoni Qonsuhul-G'avriy o'ldirildi; shundan keyin Salim Yovuz Suriya bilan Misrni egalladi.

Endi ular Usmonlilar saltanatida bir podsholikka aylandi. Shunga qaramay, 1811-yilda Muhammad Ali ularni uzil-kesil bartaraf qilmaguncha, mamluklarning harbiy boshliqlari amalda Misrni boshqarishni davom ettirdi.

XI-XV asrlarda Misrda madaniy hayot

X-XI asrlarda Suriya va Misrda madaniy rivojlanish ro'y berdi. Qohira bunyod etilgandan so'ng tezda muhim madaniy markazga aylandi. Fotimiylar shoirlar va olimlarni qo'llab-quvvatlagan. Xususan, xalifa Aziz (975-996) ning o'zi ham shoir bo'lib, uning davrida al-Azhar masjitida o'ziga xos musulmon universitetiga asos solingan. Saroyda kutubxona bunyod etib, unda 200 ming kitob jamlagan. Xalifa Xokim davrida esa akademiya – Dor al-Xikmaga asos solingan.

Fotimiylar davrida mashxur astronom Ali ibn Yunus (1009-yil vafot etgan), faylasuf, matematik va fizik Ali al-Xasan ibn al Xaysamlar faoliyat olib borgan. Al-Xaysamning optikaga oid ishi o'z davrining eng zo'r ishi bo'lib, keyinchalik lotin tiliga tarjima qilingan.

Misr va Suriyada Mamluklar hukmronligi davrida iqtisod va madaniyat bilan san'at, ayniqsa, me'morchilik, kulolchilik va ma'danlarni qayta ishlash ravnaq topdi.

Tibbiyot sohasida bir qancha buyuk shaxslar bo'lgan. Ibn Abi Usaybiah (1203-1270) tibbiyot tarixi bobida tanilgan. U yaratgan «Tabobat ilmi tarixi» aksariyati ayni bir paytda faylasuf va olim bo'lgan 400 tabibning hayoti hamda faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu jihatdan ham uning asari arab fanlarining qomusi sanaladi. Qalavun kasalxonasining tabibi bo'lgan Ali ibn an-Nafis qon aylanish tartibini tushuntirib berdi. Al-Baytariy jonivorlarni davolash sohasida yirik mutaxassis edi. Halablik Ibn Abi al-Mahosin hamda Abdul Fadl ibn an-Nag'id ko'z shifolovchi katta tabiblar bo'lgan. Ibn an-Nag'id (XIII asr) ko'z kasalliklarga oid asar yaratdi. Sulton Salohuddin saroyida hakimlik qilgan Hibatulloh ibn Jumay tana jismoniy holatiga ruhiyatning ta'sirini ifodalab, ruhiy jihatdan shifolashga doir shu davrgacha butunlay noma'lum bo'lgan yangicha davolash usulini tashkil qiluvchi tavsiyalar ishlab chiqdi. Al-Kift bo'lsa falsafa va aniq fanlar tarixiga oid asar yaratdi. Tarix sohasida ibn Xaldun (1406-yil vafot etgan) «Al-Muqaddima» asarini yaratdi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, siyosiy jihatdan qudratga erishgan mamluklar davrida madaniyat ham taraqqiy etdi.

Foydalanilgan va tavsiya etiladigan asosiy hamda qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Matthew B. Encyclopedia of the middle ages. New York 1995.
2. Roberts J.M., Westad O.A. The history of the World. Oxford. 2013.
3. История стран зарубежной Азии в средние века. М., 1970.
4. История стран Азии и Африки в средние века. М., 1987.
5. Мец А. Мусульманский Ренессанс. М., 1997.
6. Семенова Л.А. Салах ад-дин и мамлюки в Египте. М., 1966.
7. Фильштинский М. История Арабов и Халифата. М., 2006.

Nazorat uchun savollar.

1. Tuluniylarning boshqaruvi davri haqida gapirib bering?
2. Fotimiylar qay tariqa hokimiyat tepasiga keldi?
3. Ayyublar hokimiyatga kelishiga qaysi voqea sabab bo‘ldi?
4. Salohuddin Ayyubiy hukmronligi yillarida Yaqin Sharqdagi siyosiy ahvol qanday edi.
5. Salohuddin Ayyubiy Yevropaning qaysi qirollari bilan aloqalar olib borgan?
6. Suriya va salibchilar haqida to‘xtalib o‘ting?
7. Mamluklar hukmronligi davrida Yaqin Sharqdagi ahvol qanday edi?

MAVZU: MO‘G‘ULLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI. MO‘G‘ULLARNING RUS VA YEVRUPAGA YURISHLARI

Reja:

1. *XII asr oxiri va XIII asr boshlarida Mo‘g‘ulistondagi qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli*
2. *Chingizxon – mo‘g‘ullar davlatining asoschisi*
3. *Chingizxonning Xorazmshohlar davlatiga yurishi*
4. *Mo‘g‘ullarning Rus yerlariga yurishlari*
5. *Mo‘g‘ullarning Yevropaga yurishlari*

Tayanch atama va iboralar: *Qabila, urug‘, “o‘rmon”, “dasht”, kuren, ayl, noyon, nukerlar, o‘nlik tizim, keshik, qurultoy, elchi, bahodir, vanxon, jautxuri, anda.*

XII asr oxiri va XIII asr boshlarida Mo‘g‘ulistondagi qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, XII asr oxiri va XIII asr boshlarida mo‘g‘ul qabilalarida davlatchilikning vujudga kelishi uchun zarur shart-sharoitlar shakllana boshlagan edi. Bu davrda mo‘g‘ul qabilalari asosan ikki guruhga ajratilgan. Bular «dasht» va «o‘rmon» qabilalari xisoblanadi.

«O‘rmon» qabilalarining asosiy mahsuloti ovchilik va baliqchilik bo‘lib, asosan Janubiy Oltoy, Baykalbo‘yi hududlariga joylashgan. Ular xori, bargut, tumet, bulagachin, keremuchin, uryanxat, telengut kabi qabilalardan iborat bo‘lgan. «Dasht» qabilalariga mo‘g‘ullar, kereitlar, oyratlar, naymanlar, tatarlar va boshqa bir qancha ko‘p sonli qabilalar mansub bo‘lib, ular ichida mo‘g‘ul qabilalari Orxon daryosi va Kerulen xavzasi hududlarida istiqomat qilishgan. Ulardan g‘arbda, Toli daryosi vodiysida, Orxon daryosi o‘rta oqimidagi hududlarda, Ongin daryosi xavzasining janubida kereitlar joylashgan. Kereitlardan shimolda Salenge daryosi bo‘ylarida ko‘chmanchi uch merkit (yoki merkit) qabila ittifoqi (gurban merkit): uduit, kaat, uvaslar yashaganlar. Merkitlardan yana ham shimolroqda Xubsugul ko‘li atrofida durben-oyratlar (ya‘ni to‘rt oyratlar) o‘rnashganlar. Naymanlar sharqdan g‘arbga qarab Orxon va Selengining yuqori oqimidan Tarbagataygacha, shimoldan janubiy sharqqa qarab Tunni-Oladan Oltoyning sharqiy

tomonlarigacha bo'lgan hududlarga egalik qilganlar. Tatarlar bo'lsa sharqda Buir-Nur va Kulun Nur ko'llari atrofida o'rtnashganlar. Albatta doimiy ko'chmanchi chorvachilik bilan mashg'ul bu qabilalarning yuqoridagi hududlariga egalik qilishlari yaxlit chegara asosiga ega bo'lmagan. O'zaro qabilaviy urushlar ularning o'z makonini tez-tez o'zgartirib turishlariga olib kelgan.

«Mo'g'ul» va «mo'g'ullar» degan etnonimning hozirga qadar aniq bir ma'nosi aniqlanmagan:

1) Xitoy manbalarining ko'rsatishicha «mo'g'ul» atamasi Chingizxon boshliq yagona mo'g'ul davlati paydo bo'lgandan so'ng paydo bo'lgan. Atoqli sharqshunos L.S.Vasilevning fikricha, «mo'g'ul» degan nom Sibir tatarlari ichidagi bir etnik jamoani anglatgan bo'lib, boshqalardan farqlash uchun ular «qora tatarlar» deb atalgan. To XII asrgacha protomo'g'ul etnoqabilaviy guruhlar va xalqlari mavjud bo'lgan. Protomo'g'ullar va ilkmo'g'ullar guruhlar ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligida hayot kechiruvchi, bir-biri bilan kelib chiqishi umumiyligi, tili, madaniyati va shu kabilar bilan bog'langan uncha katta bo'lmagan urug'–qabilaviy jamoalardan iborat bo'lgan. Qo'shni sivilizasiyalar (Xitoy) bilan tanishuv natijasida qabilalar vaqtlar o'tishi bilan qabilalar ittifoqining ta'siri kuchli sardorlari boshchiligida birlashadilar va bu sardorlar o'zlarini imperator deb e'lon qildilar (m: tangutlar, kidanlar, chjurchjenlar kabi, ular Xitoy imperatoriga taqlid qilishgan). Mo'g'ullar ham xuddi shunday tipdagi etnoslarning navbatdagisi edi, - deb fikrini yakunlaydi.

2) Rashid-ad-din «mo'g'ul» atamasi Mo'g'uliston xududida yashagan qadimgi qabilaning nomidan olingan deb xisoblaydi.

3) To XII asrgacha Sharqiy Mo'g'uliston xududida istiqomat qilib kelayotgan qabilalar ichida gegemonlik tatarlar qo'lida bo'lgan, shuning uchun ham xitoylik tarixchilar mo'g'ullarni tatarlarning bir qismi deb xisoblaganlar. Yagona mo'g'ul davlati tashkil topgach endi tatarlarni mo'g'ullarning tarkibiy qismi deb qarash yuzaga keldi, undan tashqari Markaziy Osiyoda «tatar» degan nom yo'qolib ketdi, Oltin O'rda tobeligida bo'lgan Volgabo'yi turklari o'zlarini «tatarlar» deb atashgan. XIII asr boshlariga kelganda «mo'g'ul» va «tatar» etnonimlari sinonim sifatida qaralgan, chunki birinchidan, «tatar» nomi odatiy va umumma'lum nom bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, ko'p sonli tatarlar (tor ma'noda) mo'g'ul qo'shinidagi ilg'or otryadlardan xisoblangan.

O'rta asr muarrixlari (asosan xitoy manbalarida) sharqiy ko'chmanchi xalqlarni (bugungi Mo'g'uliston va Sibir hududlaridagi) uch guruxga bo'lishgan: «oq», «qora» va «yovvoyi» tatarlar

Gobi sahrosining janubiy qismida yashab, Szin (chjurchjen) imperiyasining chegara xizmatchilari bo'lgan ko'chmanchilar «oq» tatarlar deb atalgan. Ularning katta qismini turk tilli ongutlar va mo'g'ul tilli kidanlar tashkil qilgan.

«Qora» tatarlar, shu jumladan naymanlar va kereitlar, Xitoy va Sharqiy Turkiston shaharlaridan uncha uzoq bo'lmagan dashtliklarda istiqomat qilishgan. Chorva yaylovlari uchun doimiy urush havfi ularni xalqa (kuren) tarzida yashashga majbur etgan.

Janubiy Sibirda yashagan «yovvoyi» tatarlar (merkitlar, oyratlar, uryanxatlar va boshqalar) ov va baliq ovlash bilan shug'ullanishgan.

Mo'g'ul qabilalarining asosiy boyligi chorva xisoblangan. Ayniqsa qo'ychilik ular xo'jaligida birlamchi rolni o'ynagan. Undan tashqari ot ular hayotining uzviy bir bo'lagiga aylanib ulgurgandi. Chunki doimiy ko'chmanchilik, ov va urush bilan band bo'lgan xalq uchun ot asosiy xarakat vositasi xisoblangan. Ular yil fasliga qarab kuren (xalqa) tarzda ko'chib yurishgan. Rashid-ad-din ma'lumoticha, kurenga mingga yaqin o'tov-oilaga kirgan. Qayerga borib o'rnatishlar qabilalar doira ko'rinishida o'tov tikkanlar, ularning soni mingtacha bo'lgan, doira markaziga qabila boshlig'ining o'tovi joylashgan. Keyingi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi jarayonida kuren o'z o'rnini aylga bo'shatib bersada, kuren faqat mudofaa zaruriyati tufayligina saqlanib qolavergan. Ayllar alohida urug' emas, balki bir necha oiladan iborat birlik bo'lib, ko'chmanchilik xo'jaligida kurenga nisbatan ancha qulay birlik xisoblangan.

Aytish kerakki, mo'g'ul jamiyatidan kurendan ayl tizilmasiga o'tish uzoq davom etib, ayl xo'jaligida to'liq ko'chmanchilik qilish feodal munosabatlar paydo bo'lgan davrga to'g'ri keladi. To'g'ri feodal munosabatlar shakllanishi barobarida ilgarigi ibtidoiy urug' tartib va munosabatlari birdaniga yo'qolgan emas. Buni biz mo'g'ul qabilalari orasidagi asosiy e'tiqod bo'lgan shamonlikda ko'rishimiz mumkin. Chunki asl ildizi ibtidoiy urug' davriga borib taqaluvchi bu din keyinchalik feodal munosabatlar hukmron bo'lgan davrda ham saqlanib qolavergan.

XII asr oxiri–XIII asr boshlarida mo'g'ul jamiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar davrida ko'pincha urushlar natijasida qo'lga kiritilgan asirlarni qul sifatida xo'jalik xizmati foydalanish hollari ko'p uchraydi. Shunday

bo'lsada, bu qulchilik munosabatlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda hukmron mavqeyga erisholmadi. Faqat feodal munosabatlarning dastlabki shakllanishi va rivojlanishi jarayonida uy qulchiligi muhim rol o'ynagan.

Tarixiy manbalarda XII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mo'g'ul jamiyatida ijtimoiy tabaqalanish holati tilga olinga boshlaydi. Jumladan, qabila a'zolari ichidan o'ziga to'q, dasht ko'chmanchi amaldorlari-noyon (yoki no'yon)lar haqida so'z boradi. Noyonlar turli nisbalar bilan atalganlar, masalan, «bator»-botir, «sechen»-oqil, dono, «mergen»-mergan, «buke»-kuchli kabilar.

Qabilalarning ko'chmanchi hayot tarzi sharoitida yaylov va ov o'ljalari uchun o'zaro qabilaviy urushlar natijasida bir qabila boshqa qabilaga mag'lub bo'lib, uning tobeligiga tushib qoladi. Bunday qabila kishilari utegu-bogoli deb atalgan, ular o'z xo'jayin qabilasi bilan ko'chishi, ularning buyrug'i bilan kuren va ayl tuzishi, ovda ishtirok etishi kerak edi.

Yagona mo'g'ul davlatini tuzish jarayoni qabiladagi ijtimoiy munosabatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Nukerlik davlatning asosiy tayanch kuchiga aylandi. Nukerlar-noyonlarning «do'stlari», askarlari, yaqin safdoshlari va xizmatchilari edi. Qabila ichidagi o'zaro ijtimoiy ziddiyatlar (hukmron va tobe kishilar o'rtasida) avj olgan bir paytda noyonlar o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida qurolli kishilar-nukerlar otryadini tuzadilar. Shu nukerlar kuchiga tayangan noyonlar asta-sekinlik bilan qabila ichida yetakchilikka intilishi oqibatida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar avj oladi.

Mo'g'ul qo'shinlari – nukerlar o'nlik tizimda o'nlik, yuzlik, minglik va o'n minglik (tuman) asosida saflantirilgan. Bunday tizim yuqoridagi ko'rib o'tganimiz kuren-mingta oila asosida vujudga kelgan. Chingizxon bu tizimga faqat shaxsiy gvardiyani-«keshik»ni qo'shdi.

Umuman mo'g'ul qabilalari o'rtasida feodalizmning shakllanishi va rivojlanishi bir qancha o'ziga xos xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, jahonning boshqa ko'pgina xalqlarda kuzatilgani kabi feodalizm bu hududda dehqonchilik zahirida emas, balki ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligi asosida shakllandi va rivojlandi. Ikkinchidan, feodalizm mo'g'ullar orasida qulchilik munosabatlarning yemirilishi jarayonida emas, ibtidoiy tuzum yemirilishi jarayonida shakllandi. Albatta bu ikki faktor mo'g'ullarning keyingi ijtimoiy tuzumiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi, yuqoridagi birinchi holat mo'g'ullarning ijtimoiy hayotiga sezilarli iz

qoldirgan bo'lsa, ikkinchi holat mo'g'ul qabilalari orasida feodalizm turli muddatlarda va turli jarayonda shakllanishiga olib keldi. Masalan, «o'rmon» qabilalarida feodalizm kurtaklari keyinroq va sekinroq paydo bo'lgan.

Chingizxon – mo'g'ullar davlatining asoschisi

Temuchin, bo'lg'usi Chingizxon ayrim tarixiy manbalarda 1162 yilda, yana ayrimlarida 1155 yilda tug'ilgan deb ko'rsatiladi. U tug'ilgan vaqtda otasi Yesugey- bahodir tatarlar yo'l boshchisi Temuchin-ugeni mag'lub etgani sabab, o'z o'g'liga o'sha mag'lub dushman nomini beradi.

Yesugey (Isu-gey) garchi qabila boshlig'i xisoblanmasada, lekin janglardagi mohirligi va jasurligi sabab unga «bahodir» maqomi berilgan. Uning qo'l ostida o'zi mansub kiyat-bordjigin urug'idan tashqari yana bir qancha mo'g'ul urug'lari bo'lgan. Yesugeyning uch aka – ukasi bo'lib, ularning otasi Bartan – Baxodir bo'lgan. Bartan – Baxodir mashhur Qabul – xonning o'g'illaridan biri bo'lgan.

Temuchin 9 yoshga yetganda otasi uni qo'ng'iroq qabilasiga Dey-sechen oilasiga uning qizi Borteni o'z o'g'liga kelin qilish maqsadida ma'lum muddatga (o'sha davrda mo'g'ullar orasida bu odatga aylangan edi) qoldirib keladi. Ammo qaytishda Yesugey tatarlar tomonidan zaxarlanib o'ldiriladi.

Otasining o'limidan so'ng uning qo'l ostida bo'lgan barcha ulusi a'zolari tarqalib ketadi. Uzoq qiyinchiliklardan so'ng Temuchin o'z hokimiyatini o'rnatish uchun kurashga kirishadi. Shu maqsad yo'lida u bir vaqtlar otasi bilan anda (birodar yoki aka-uka) tutingan kereitlar qabilasining xoni Tooril (Vanxon nomi bilan ko'proq mashhur) bilan ittifoqqa kirishadi. 1184-yilda merkitlar qabilasi Temuchinga hujum qilib uning xotini Borteni asirga olganda uning ittifoqi qo'l keladi. U Vanxon yordamida, shuningdek jarjirat qabilasidan bo'lgan yoshlik davrlarda «anda» tutingan Jamuxa bilan birga merkitlarga zarba berishga erisha oldi.

Bu g'alabadan so'ng Temuchinning ta'siri oshib, ilgari tark etgan otasining ulusi qaytib kela boshlaydi. Hokimiyatga asosiy da'vogarlar bo'lgan Temuchin hamda Jamuxa o'rtasidagi «anda»chilik bir yarim yil davom etdi. 1189-yilda Temuchin jurkin qabilasidan Sacha-beki, Xucharbek, Altan (Xutulaxonning o'g'li) tashabbusi bilan xon deb e'lon qilinadi. Garchi Temuchin Xobulxon avlodiga to'g'ridan – to'g'ri maktub bo'lmasada (shu boisdan u kiyat borjigin urug'idan xisoblanadi, ya'ni xon urug'iga mansub emas edi) lekin uning uddaburonligi va o'sha vaqtlardagi real kuch-qudrati

sabab Xabulxonning to'g'ridan-to'g'ri avlodi xisoblangan Altanning emas, aksincha uning xon qilib ko'tarilishiga olib keladi (bu jarayonda Altan ham unga o'z tobeligini izhor qiladi).

Temuchin xon qilib ko'tarilganligiga garchi kereitlar xoni Tooril salbiy munosabat bildirmagan bo'lsada, Jamuxaga bu xol ma'qul tushmaydi. Jamuxaning kichik ukasi Taychar yilqilarni o'g'irlash vaqtida Temuchin qo'l ostidagilardan biri tomonidan o'ldirilganligi bahonasi bilan Jamuxa o'z andasida qarshi urush boshlab uni mag'lub etishga erishadi.

Lekin bu g'alaba Jamuxa foydasiga yurmadi. Uning qo'l ostida bo'lgan urud, mangut, xonxotan qabilalari o'z yo'l boshchisi bilan Temuchin tomoniga o'tib ketdi.

Bu orada 1194-yilda naymanlar yordamida Erxe Xaara o'z akasi Toorilni taxtdan tushiradi. Uzoq sargardonlikdan so'ng Tooril 1196-yilda Temuchindan yordam so'rab, Mo'g'ulistonga qaytib keladi. 1197-yilda Temuchin merkitlar xoni Toktay bekiga zarba berib, qo'lga tushgan o'ljalarni hammasini Toorilga beradi va uning yana xonlik taxtini egallashiga ko'maklashadi.

1198-yilda Xitoydagi chjurchjenlar imperatori Madagu (1190-1208) o'z generali Vanyan Syanni Xitoy vassali xisoblangan tatarlar qo'zg'olonini bostirish uchun Mo'g'ulistonga yuboradi. Qo'zg'olonni bostirish uchun xitoylik general Toorilga yordam so'rab murojaat qiladi. Tooril Temuchin bilan birga tatarlarga sezilarli zarba beradi. Bu xizmatlari evaziga Vanyan Syan Toorilga «Van» (shundan boshlab «Vanson») Temuchinga «Jautxuri» (buyuk amir yoki qo'shinlarning oliy qo'mondoni) unvonini beradi.

1199-yilda nayman taxtiga talashib Tayanxon bilan kurashayotgan Buyurukka (ular aka-ukalar) qarshi Vanson va Temuchin urush boshlaydi. Hali urush nihoyasiga yetmasdan Jamuxaning nayrangiga ishongan Vanson ertasi kuni jangga kirmasdan, o'z ittifoqchisini tark etadi. Lekin Tayanxon tomonidan o'z inisiga yordam berish maqsadida yuborilgan Koxu-Sobrak boshchiligidagi qo'shin Temuchinni emas, jangga kirmagan Vanson qo'shinlarini ta'qib etib, ularga talofat yetkazadi. Vanson o'zi «sotgan» Temuchindan yana yordam so'rashga majbur bo'ladi. Naymanlarning kuchli raqib ekanligini tushungan Temuchin o'zining to'rtta lashkarboshilarini yuborib, jangni o'z tomoniga yakunlashiga erishadi. Temuchin 1200-yillar atrofida o'ziga va Vansonga qarshi tuzilgan bir qancha qabilalar birlashmalarini alohida-alohida mag'lubiyatga uchratadi.

1201-yilda Kann va Argun daryolari oralig'idagi qurultoyda Jamuxa Temuchinga qarshi tuzgan qabilalarning kuchli ittifoqi, tomonidan xon deb e'lon qilinadi va unga «gurxon» degan unvon beriladi. Vanxon bilan birga xarakat qilganligi natijasida garchi Temuchin jangda yaralangan bo'lsa ham, ammo ittifoqchi dushmanlardan ustun keladilar.

1198-yildagi mag'lubiyatdan so'ng tatarlarning kuchi zaiflashgan bo'lsada, ammo ular hamon katta to'rt qabiladan: aluxay, dutaut, alchi, chagandan iborat edi. 1202-yilda Temuchin tatarlar ustiga yurish qilib, ularni yana mag'lubiyatga uchratdi.

O'sha yili aka-uka naymanlar Tayanxon va Buyurukxon boshchiligidagi qabilalar ittifoqi qo'shinlari Temuchinga qarshi birlashdilar. Biroq ular urushni oxirigacha yetkazmaydilar.

Qabila xonlari o'rtasidagi Mo'g'ulistondagi oliy hokimiyat uchun urush ertami, kechmi Vanxon va Temuchinni bir-biriga to'qnashtirar edi. 1199-yilda naymanlar ustiga yurishdan so'ng Temuchin o'rtadagi munosabatlarni nikoh bilan mustahkamlashni taklif qilganda Vanxon bunga rad javobini beradi. O'rtadagi to'qnashuvlardan Jamuxa yana o'z xisobiga foydalanib qoladi, Vanxonning o'g'li Sangunni Temuchinga qarshi urushga ko'ndiradi. 1203-yilgi bo'lgan to'qnashuvda (bu paytga kelib Temuchin qo'l ostida bo'lgan bir qancha urug' yetakchilari o'z safdoshlarini olib Sangun tarafiga o'tib ketgan edi) Temuchin mag'lubiyatga uchraydi. Shu yilning kuzida Temuchin bor qo'shini bilan kereitlarga to'satdan zarba berib, ularni yengishga erishadi. Vanxon Tayanxon harbiy askari tomonidan o'ldiriladi, o'g'li Sangun uyg'ur xonligida halok bo'ladi.

Endi Temuchinning oldida yana bitta qudratli raqib nayman qabilalari ittifoqi xoni-Tayanxon qolgan edi. Temuchin tarafidan bo'ladigan xavfni sezgan Tayanxon o'z atrofiga raqibidan talofat ko'rgan qabilalarni to'playdi. 1204-yil bahorida Temuchin naymanlar bilan to'qnashuvdan oldin qurultoy chaqirib, 45 ming atrofidagi qo'shinni safarbar qilishga erisha oladi. Nayman xoni qo'shinlarining umumiy soni 50-55 ming atrofida bo'lsa ham o'rtadagi jangdan so'ng naymanlar mag'lub etiladi. Tayanxon yaralanib halok bo'ladi, uni o'g'li uni Kuchluk Altayga amakisi Buyurukxon huzuriga qochib ketadi. Temuchin o'sha vaqtlargacha nayman xoni kotibi bo'lgan Tatatunani o'z xizmatiga oladi. O'sha yili Temuchin tatarlarga yana bir bor zarba berib, barcha tatarlarni (ayollar va bolalar bilan birga) qatl qilishga buyruq beradi. Lekin xonning tatar xotinlari Yesuy va Yesugan, ukasi Djuchi-Xasar va bir qancha kishilar bir necha ming tatarlarning jonini asrab qoldilar. 1206-yilda

naymanlar sardori Buyuruk Temuchin qo‘shinlaridan mag‘lubiyatga uchradi. Jamuxa bo‘lsa 1207-yillar atrofida o‘z safdoshlari tomonidan Temuchinga tutib berildi.

Naymanlarning mag‘lubiyati va Jamuxaning asir tushishidan keyingi mo‘g‘ul xalqlari davlatini Chingizxonning ko‘chmanchi imperiyasi deb atash mumkin. «O‘rmon xalqlari» va boshqa mayda qabilalar hyech qanday mehnatsiz alohida mo‘g‘ul sardorlari bo‘lib oldilar. Rashid-ad-dinning ma‘lumotiga ko‘ra bu nomni Temuchin naymanlarni tor-mor qilgandan keyin olgan. O‘rxun yozuvlarida shunday so‘zlar bor: «Oddiy xalq qorni yemakka, egni kiyimga yolchimagan bechora xalq xoqonning mehnat va qahramonligi bilan kambag‘al edi—boy bo‘ldi, kam sonli edi, ko‘paydi».

Mo‘g‘uliston hududidagi barcha kuchli raqiblarini yengib, mo‘g‘ul davlatlaridagi yagona qudratli yo‘lboshchiga aylangan Temuchin 1206-yilda Onon daryosi bo‘yida barcha mo‘g‘ul qabilalari aslzodalari ishtirokida qurultoy chaqiradi. O‘sha qurultoyda Temuchin barcha mo‘g‘ul qabilalarining xoni deb e‘lon qilinadi va unga Chingizxon nomi beriladi. «Chingiz» so‘zi xitoy tilidagi Tyan szi-«osmon o‘g‘li» so‘ziga to‘g‘ri keladi. Uyg‘ur yozuvini qabul qilish mo‘g‘ul tilidagi adabiyotlarni begona tillarga tarjima qilish maqsadida ham amalga oshirilgan. Imperiyaning aristokratik qurilishi ruhidagi oddiy qonunlar va xronikalari Chingizxon yoki uning o‘g‘illari tomonidan tuzilib, qattiq sir saqlangan va faqat xon urug‘idan bo‘lganlarga hamda yaqin xizmatchilargagina ochilgan.

Chingizxonning o‘z hokimiyatini o‘rnatish uchun olib borgan 20 yildan ortiqroq vaqt davomidagi to‘qnashuvlari, kurashlari uning keyingi harbiy yurishlarida qaysidir ma‘noda tajriba vazifasini o‘tadi deb aytishimiz mumkin. Qolaversa, Chingizxon dastlab xon sifatida e‘lon qilinganidan boshlab (1189-yilda) asta-sekinlik bilan oddiydan murakkabga qarab davlat apparatini shakllantirib bordi. 1206-yilda kelganda Chingizxon o‘z huzuridagi amaldorlarning qaysi funksiyasini boshqarish qobiliyatiga egaligi qarab lavozimlarni bo‘lib berishi endi yagona mo‘g‘ul davlatida davlatchilik tizimining shakllanib ulgurganligini isboti edi. Chingizxonning davlati o‘nlik tizim asosida shakllantirilgan harbiy feodal davlat edi. Davlatning barcha hududi va aholisi 3 ta katta okrukga – o‘ng va chap qanot hamda markazga bo‘lingan edi. Bu okruglar o‘z navbatida «tuman»larga (har birida 10 ming kishidan), tumanlar bo‘lsa «minglik», «yuzlik», «o‘nlikka» bo‘lingan edi. Bu birliklar tepasiga Chingizxonning yaqin safdoshlari – nuker va noyonlar

tayinlandi. Masalan, nuker Xubilayga umumiy harbiy ishlar bilan shug'ullanish topshirildi. Borgu o'ng qanot, Muxali chap qanot, Nayaa markaz noyon – tuman boshliqlari qilib tayinlandi. Djebe, Subedey singari xonning jasur navkarlari mingboshilarga aylandilar. Shu kabi yuzlar, ming va tuman boshliqlari bo'lgan noyonlar saroydagi feodal singari ma'lum miqdorda yer va qaram kishilarga ega bo'lib, ayni vaqtda shaxzodalarga taqsimlangan uluslar bo'yicha shu ulus xo'jayiniga birinchi navbatda vassal edilar. Ularning vassallik munosabatlari faqat kerakli miqdordagi harbiylarni ot-ulovi va aslahalari bilan safarbar etish bilan belgilanib qolmaydi, balki ular yana turli xil feodal majburiyatlarni ham o'tashlari kerak edi. Shu holatda mintaqaga xos bo'lgan davlat tizimining shakllantirilishi Chingizxonga kerakli vaqtda katta miqdordagi harbiylarni tez fursatda safarbar qilish imkonini berar edi.

Bu tizimga Chingizxon o'z shaxsiy gvardiyasini qo'shimcha sifatida qo'shishi uning o'z hokimiyatini yanada mustahkamlashga olib keldi. Hali Temuchin Chingizxon sifatida ko'tarilmasdan turib 80 ta kehteul (tungi soqchilar) va 70 ta keshiktenlar (kunduzgi soqchilar)dan iborat baquvvat va kuchli askarlardan tuzilgan qorovul qo'shinlari hokimiyat uchun xarakat qilayotgan xonlarga qarshi kurashda muhim tayanch bo'lib xizmat qilardi. Taxtga o'tirgach, Chingizxon bu gvardiya sonini 10 mingga yetkazdi.

«Keshik» askarlari 95 «minglik»dan saralanib olingan. Aslida «keshik» ma'nosi «navbat», «almashinuv»ga to'g'ri keladi. Bu gvardiya asosan xon qarorgohini qo'riqlagan. Faqat xonning o'zi yurishga otlangandagina ular harbiy yurishlarda ishtirok etishgan. Ularning martabasi boshqa qo'shin qo'mondonlari martabasidan yuqori turgan. Ularga hatto xon huzuriga o'z otlari bilan kirish imkoniyati berilgan.

Davlatda sud ishlarini boshqarish asli tatar bo'lgan Shiki Xutuxuga topshirildi. Tayanxon boshliq naymanlar mag'lubiyatidan so'ng Chingizxon xizmatida bo'lgan Tatatuna davlatning yozma ishlarini olib borgan, undan tashqari xon muhri saqllovchisi ham bo'lgan.

Oddiy xalqni boshqarish uchun Chingizxonga bilimli kishilar kerak edi, ammo u mo'g'ullar orasidan bunday kishilarni topa olmadi. Chunki doimiy urushlar tufayli ish boshqarishga yaroqli kishilarni-uyg'urlar, musulmonlar va xitoyliklardan olishga majbur bo'ldi. Bizgacha yetib kelgan zamondoshlarning ma'lumotiga qaraganda, Chingizxon umrining oxirigacha mo'g'ul tilidan boshqa tilni bilmagan ekan.

Chingizxon o'z umri davomida bir necha tillar biladigan va ichki madaniyatni o'rgangan yigitlarni tayyorlagan bo'lsada, mo'g'ul xukmronligi baribir ko'p joylarda uyg'ur, fors va xitoylar yordamidagi suyanishga majbur bo'lardi. Imperiya birligi uning asoschisi tirik payti o'sib ulg'aygan kishilar boshqargan vaqti ya'ni, uning o'limidan keyin 30 yil yashadi. Chingizxon o'zining 72 yillik umri davomida o'ziga aqlli yosh zamondoshlaridan yordamchilar tanlab oldi.

Qurultoy – mo'g'ullarga urug'-qabilaviy tuzumdan o'tib kelgan qabila boshqaruvdagi o'ziga xos majlis bo'lib, Chingizxon davriga kelganda u avvalgi funksiyasini biroz o'zgartirgan holda (ya'ni ilgarilari qurultoyda qabilaning teng huquqli a'zolari ishtirok etib, u yoki bu masala yuzasidan umumiy ovoz berganlar) ko'proq xon «amir farmonlarini tasdiqlovchi» tuzilma ko'rinishi ola boshladi. To'g'ri, odatda, qurultoylar muhim masalalar oldidan chaqirilib, unda ko'zga ko'ringan zadagonlar ishtirok etishsada, biroq «ulug' xon» tomonidan masala yuzasidan bildirgan fikr hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib chiqardi. Undan tashqari qurultoyning funksiyasiga, «ulug' xon»ni saylash ham kirgan. Bu jarayon Chingizxondan so'ng tez-tez sodir bo'la boshladi.

Chingizxonning Xorazmshohlar davlatiga yurishi

Chingizxon boshliq yagona mo'g'ul davlatining Xorazmshohlar davlatiga hujumi ularning keyingi bosqinchilik yurishlari ichida muhim o'rin tutadi. Mo'g'ullarning hujumi qaratilgan O'rta Osiyoning asosiy qismida hukmronlik qilayotgan Xorazmshohlar davlatining hozirgi hududi Afg'oniston va Eronning katta qismini to'lig'icha qamrab olgan bo'lib, chegarasining shimoliy tarafi Sirdaryoning quyi oqimi va Orol dengizidan janubda Fors qo'ltig'igacha, sharqda Pomir va Sulaymon tog'laridan g'arbda Zagras tog'larigacha yetar edi. U turli xalq va elatlarni o'zida birlashtirgan markazi Xorazm (Gurganch) bo'lgan konglomerat davlat edi. Xorazmshohlar poytaxti bo'lgan Urganch (Gurganj) O'rta Osiyoga Eronni, Sharqiy Yevropani (asosan Kiyev Rusi), hozirgi Qozog'iston, Xitoy, Mo'g'ulistonni bog'lovchi qulay savdo markaziga aylana oldi.

Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh o'rtasidagi aloqlar dastlab savdo elchiliklari ko'rinishida amalga oshgan. Bu qadamni birinchi bo'lib Muhammad Xorazmshoh tashladi, u Chingizxon huzuriga savdo karvoni tarkibida elchilik yubordi. Bu elchilikka javoban Chingizxon Xorazmshoh

huzuriga Mahmud Xorazmiy (Yalavoch ya'ni «elchi» O'qtoy zamonida mo'g'ullarning Movorounnahrdagi mulkiga hokim qilingan. Keyinchalik Qoraqurumda faoliyat olib borgan), Ali Xo'ja Buxoriy va Yusuf O'troriylar boshchiligidagi o'z elchilarini yubordi.

O'tror fojeasi. Mahmud Yalavoch boshliq elchilar qaytishi bilan Chingizxon O'rta Osiyoga yana savdo karvonini yuboradi. Ma'lumki, bu savdo karvoni to'lig'icha O'tror hokimi G'ayirxon Inalchuk (Yanalchuk) tomonidan talon-taroj qilinadi. Faqat bir kishi bu qirg'indan omon qolib, Chingizxon huzuriga yetib boradi va voqevalardan voqif etadi.

O'tror fojeasidan xabar topgan Chingizxon ibn Kafroj Bug'ro va ikki mo'g'ul hamrohligida Xorazmshohga Inalxonni topshirish to'g'risida yana elchilar yubordi. Shubhasizki, Muhammad Xorazmshoh Chingizxon talabini bajara olmas edi. Shu boisdan ham Inalxonni topshirishga qo'li yetmaydigan Xorazmshoh elchini o'ldirib, ikki hamrohining soqol-mo'ylovini oldirtirib, ortiga qaytarib yuboradi.

1219-yilning yozini Irtish bo'yida o'tkazgan Chingizxon O'rta Osiyoga yurishga puxta tayyorgarlik ko'radi. O'tror yaqinida Chingizxon o'z qo'shinlarini yurish yo'nalishi bo'yicha taqsimlaydi: bir qism qo'shinga Chig'atoy va O'qtoyni boshliq qilib, O'troni egallash torshiriladi; Jo'ji boshliq ikkinchi qism qo'shinlariga Sirdaryoning qo'yi oqimidagi shaharlarni (Jandni) egallash buyuriladi; Alak-noyon boshliq qo'shin bo'lsa Sirdaryoning yuqori oqimidagi shaharlarni (Binokatni) egallashi kerak edi. Chingizxon va kenja o'g'li Tuluy boshliq qo'shin Buxoroga qarab yo'nalish oldi. Besh oylik qamaldan so'ng O'tror shaxri mo'g'ullar tomonidan egallandi (1220-yil fevral).

1220-yil mayiga kelib, O'rta Osiyoning Amudaryogacha bo'lgan hududlarning deyarli barchasi mo'g'ullar tasarrufiga o'tdi.

Urganchning egallanishi bilan O'rta Osiyodagi mo'g'ullarning harbiy xarakatlari tugadi. 1220-1221-yillardagi qishlovni Chingizxon Samarqandning janubida o'tkazdi. Shu yerdan turib u Urganchni egallashga qo'shin yuborgan edi. 1221-yilning oxirida Chingizxonning o'zi Balxni egalladi va Tolikonga yaqinlashdi. Bevosita Chingizxon ishtirokidagi mo'g'ullarning harbiy yurishlari 1221-1222-yillarda Xuroson, hozirgi Afg'oniston hududlarida davom etdi. 1222-yilda Samarqandga qaytib kelgan Chingizxon bu yerda 1224-yil bahorigacha qoldi.

Mo'g'ullarning Rus yerlariga yurishlari

XIII asrning 20-40 yillarida mo'g'ullarning Rus yerlariga yurishlari xudud uchun (mo'g'ullarning boshqa yerlaridagi bosqinchiligi singari) asoratli oqibatlarga olib keldi. Chingizxon tomonidan O'rta Osiyodan turib yo'llangan Jebe va Subudey boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari Gruziya, Ozarbayjon, Armaniston hududlaridan o'tib, Shimoliy Kavkaz hududlarida paydo bo'ldi. Bu yerda mo'g'ullar mahalliy aholi bo'lgan alanlar (osetin) va ko'chmanchi chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan qipchoqlar qarshiligiga duch kelib, ular o'rtasidagi ittifoqni xiyla bilan tarqatib, har birini alohida-alohida yengadi. Shundan so'ng mo'g'ullar Azov dengiziga qo'yiluvchi Kalka daryosi bo'yiga yetib keldilar va bu yerda 1223-yil 31-mayda ruslar qaqshatqich mag'lubiyati bilan tugagan mashhur Kalka jangi sodir bo'ldi.

1227-yilda Chingizxon vafot etgach, ulug' xon qilib O'qtoy saylandi. Shu yili va 1229-yili mo'g'ul harbiy boshliqlari qurultoylarda uyushtirilajak yangi harbiy yurishlar rejasini ishlab chiqildi. Ana shu yurishlar rejasiga muvofiq, 1229-yilda Ulug' xon Ko'kday va Subudey boshchiligida 30 ming otliq askardan iborat mo'g'ul qo'shinlarini Kaspiybo'yi dashtlarini (qipchoqlar, sansinlar, bulgaldar yerlarini) egallash uchun yubordi.

1232-yilda mo'g'ullar Bulgariyaga yana yurish boshlaydi. 1235-yilgi qurultoy mo'g'ullarning keyingi yurishlariga muhim turtki berdi. Unda hali bo'ysundirilmagan bulgarlar va Rus yerlariga Botuxon boshchiligida qo'shin yuborishga qaror qilindi va ulus qo'shinlaridan askarlar to'plab berildi.

1236-yilning oxirlarida Volga Bulgariyasigacha yetib kelgan mo'g'ul qo'shinlari bu yerdagi bosh shahar-Bulgarni va bir qancha yirik shaharlarni egallab, vayron qildilar. Bulgarlardan tashqari Volgabo'yi va Kamabo'yi hududi aholisi bo'lgan boshqirlar, mordvlar, burtaslar, sansinlarni ham mo'g'ullarga bo'ysintirildilar.

Shundan keyingina mo'g'ullarning Rus yerlariga yurishlari boshlandi. Avval boshda yuqoridagi hududlarni egallanishdan ko'zlangan asosiy maqsad qishlovni shu yerda o'tkazish bo'lgan. Mo'g'ul qo'shinlari Rus yerlari chegarasida 4 qismga bo'lingan. Bir qism qo'shin Itil daryosi bo'yidan, Rusga sharqiy tarafdin kirib, Suzdalga qarab yurgan. Janubga tomon xarakat qilgan qo'shin bo'lsa, Ryazanga hujum uyushtirgan. Uchinchi qism qo'shinlari Don daryosi qarshisiga Varonej qal'asi yaqiniga kelib joylashganlar.

Asosan Rus yilnomalaridagi ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, mo'g'ullar Rus yerlaridagi dastlabki zarbasiga Ryazan yerlari duchor bo'lgan. 1237-yilning 21-dekabrida olti kunlik qamaldan so'ng markaz Ryazan shahri taslim qildi.

Ryazandan mo'g'ul qo'shinlari Oka bo'ylab yuqoriga yo'nalib, Kolomnaga yetib keldi. Kolomnadan so'ng Moskvaga kelgan mo'g'ul qo'shinlari bir necha kunlik qamaldan so'ng shaharni qo'lga kiritib, o't qo'ydilar

Endi mo'g'ullar uchun Vladimirga boradigan yo'l ochildi. 1238-yilning 7-fevral kuni Vladimir taslim bo'ldi. Shundan so'ng mo'g'ullar knyazlikning boshqa shaharlarini: Rostov, Uglich, Yaroslavl, Yuryev, Polskiy, Konyatin, Tver, Torjok va boshqalarni birin-ketin bosib oldilar.

5-mart kuni Novgorodga ketadigan yo'l ustida joylashgan Torjok egallangach, mo'g'ullar Novgorod tomon yurish boshlaydilar. Taxminan shahargacha 100 verst qolganda mo'g'ullar orqaga qaytib ketadi. Tarixiy adabiyotlarda orqaga ketish to'g'risida turlicha talqinlar mavjud: kunlar isishi natijasida muzlar erib, loygarchilik kuchayishi bir sabab deb ko'rsatilsa, yana birida Novgorodga yurish Botu rejasida yo'q edi deb keltiriladi.

1239-yil bahoridan mo'g'ullarning yana janubga yurishi boshlandi. Avval Pereyaslavl, kuzda Chernigov egallanib, yil oxirida Botu qo'shinlari Qrimgacha yetib bordi.

1240-yilning oxirida Kiyev egallangach mo'g'ullar Galich-Volin yerlari tomon yurish boshlaydi. Navbati bilan Kolodyajin, Kamenes va Izyaslavl shaharlarini egallagan mo'g'ullar Kremens va Danilova shaharlarini mustahkam mudofaaga ega bo'lganligi uchun qo'lga kirita olmaydilar.

Mo'g'ullarning Rusga hujumidan so'ng Rus yerlari Botu tuzgan Oltin O'rda davlatiga qaram bo'lib qoladi. Bu davlatning poytaxti Saroy Botu (Volga quyi oqimida) keyinroq Saroy-Berka (Volga bo'ylab Saroy-Botudan bir oz yuqoriroqda) bo'lgan.

Aytish kerakki, egallangan Rus yerlari bevosita Oltin O'rda tarkibiga kiritilmadi. Oltin O'rda xonlari doimo Rus knyazlarini o'zining vassali deb xisoblashar, shu yo'l orqali ulardan xiroj undirib turgan. Knyazlarning mo'g'ul xonlariga qaramligi shundan iborat ediki, «buyuk rus knyazi» «xon yorlig'i» bilan taxtga o'tira olgan. Boshqa knyazlar ham shu yo'sinda taxtga o'tqazilgan.

Aholidan to'plangan soliqni rus knyazlari otkup tarzida xon xazinasiga yetkazganlar. Soliq to'lash ishlarini va rus knyazlari faoliyatini mo'g'ullardan

bo'lgan harbiy lashkarboshilar-bosqoqlar nazorat qilib turgan. Harbiy bosqoq tashkilotining vazifasi aholi tomonidan tobelikni ta'minlash, shu bilan birga soliq tushumlarini nazorat qilish bo'lgan. Vladimir shaxrida bo'lgan Amragan ismli bosqoq «ulug'» bosqoq bo'lib, aftidan boshqa shahar bosqoqlari unga bo'ysunishgan.

Ulug' xon Munka (1251-1259) zamonidan boshlab mo'g'ullarning rus yerlaridagi soliq ishlari siyosati tashkiliy ko'rinish ola biladi. 1253-yilda «Munkaxon Rus aholisini xisob-kitob qilish uchun Bisik-Berkani yuborgan. 1257-yilda yana shunday ishni amalga oshirildi.

XIII asr o'rtalaridan e'tiboran mo'g'ullarning Rus yerlariga kelib o'z o'rdalarini tiklay boshlaydi. 1259-yilda mo'g'ul lashkarboshisi Burunday Galich yerlariga yana hujum qilib, hudud knyazlarini tobelikka tushiradi. Bunday holatlar Oltin O'rdaning keyingi xonlari davrida ham davom ettirilavergan. Birgina XIII asr oxirgi chegarasida mo'g'ullar Rusga 15 marta harbiy yurishlar uyushtirdi.

Mo'g'ullarning boshqa hududlarga hujumi singari Rus yerlariga uyushtirilgan yurishi va uning natijasi og'ir oqibatlarga olib keldi. Botuning yurishi XIII-XIV asrlar davomida mo'g'ullar Rusga uyushtirgan harbiy bosqinchilik zanjirining boshlang'ich bo'g'ini bo'ldi. Yilnoma va boshqa tarixiy manbalarda keltirilishicha, mo'g'ullar Rus yerlariga yurishlar bilan cheklanib qolmagan, turli vaj va bahonalar bilan rus knyazlari orasiga ixtilof solgan ayrim knyazlarni xon qarorgohiga chaqirib, turli yo'llar bilan o'ldirganlar.

Rusda o'z hukmronligini mo'g'ul xonlari ushlab turishda yana ayrim ijtimoiy qatlamlarga turli xil imtiyoz va sovg'alar berib, o'z tomoniga og'dirish evaziga ham erishganlar. Mo'g'ullarning Rusdagi hukmronligi salkam ikki yarim asr davom etgan uzoq muddatli va tanaffussiz jarayon bo'ldi. Ko'pchilik rus tarixchilari uzoq muddat davomida rus xalqining mo'g'ullarga tobe bo'lganligi, ularning o'sha vaqtda Yevropa ko'rinishidagi rivojlanishidan, madaniyatning o'sishidan to'xtatib qolgan omil deb xisoblashadi.

Mo'g'ullarning Yevropaga yurishlari

Botuxonning Rus yerlariga hujumidan so'ng harbiy yurish yo'nalishi Yevropaga qaratildi. 1241- yildan boshlab mo'g'ullarning Yevropa sarhadlariga (Rus yerlaridan keyin) harbiy yurishlari boshlandi. Botuxon

Yevropaga yurish uchun an'anaviy ko'chmanchilar yo'lini tanladi, ya'ni Vengriya hududida – mintaqa markazida u o'z hukmronligi uchun tayanch (opora) istehkomini qurishni maqsad qilgan edi. Shu boisdan ham u asosiy kuchlari bilan Vengriyaga yo'l olgan bir paytda, qolgan kuchlarni Polsha, Chexiya, Bolgariya tarafdin xavfsizlikni ta'minlash maqsadida o'sha hududlarga yo'naltirilgan edi.

Mo'g'ullarning hujumiga birinchi bo'lib Polsha duchor bo'ldi. 1241-yilning yanvarida mo'g'ullar Vislaga yurish qilib, Lyublin va Zavixostni egallaydilar. Yana bir guruh mo'g'ul qo'shinlari Rasibujagacha yetib bordi. Shu yilning fevralida mo'g'ullar Tur shahri yaqinida Kichik Polsha risarlariga zarba berib, Vislaning asosiy tayanch nuqtasi bo'lgan Sandomirni vayron qildilar.

28-martda Krakov egallangan Baydar va Kayduning birlashgan kuchlari aprel boshida Shlensk poytaxti Voroslavga tomon xarakat boshladilar. Kichik Polshadagi ahvol Polshaning qolgan hududlarini birlashib xarakat qilishga majbur etdi. Voyevod Sulislav Meshkova, Shlensk knyazi Genrix rahbarligida turli xudud harbiylarni birlashtirgan qo'shin tuzildi. Bu birlashgan qo'shin tarkibida xorij risarlaridan iborat otryad ham bor edi. Voroslav shahrini mo'g'ullar qamal qilgach, Genrix qamal holatida mo'g'ullarni yengib bo'lmasligini tushunadi va o'z «baxtini» ochiq jangda sinashga qaror qildi. 9-aprel kuni chex qo'shinlariga qo'shilish maqsadida yo'lga chiqqan qo'shin Legnisa yaqinida mo'g'ullar tomonidan tor-mor qilindi. Jangning ayni qizigan vaqtida chex qo'shinlari bu yerga bir kunlik masofada edilar.

1241-yilning yanvarida Botu boshliq mo'g'ul qo'shinlarining asosiy qismi Vengriyaga «Rus darvozasi» - Veres dovoni orqali kirib kela boshladilar. Qo'shinning bir qismi Transilvaniya tomon xarakat qilib, Vengriyani Bolgariyadan ajratib qo'yish kerak edi. Yana bir qism mo'g'ul qo'shinlari Moldoviyaga yurish qilib, u yerni egallaydi, bu bilan shu xududda qisqa muddat faoliyat ko'rsatgan qipchoq yepiskopligi ham tugaydi.

Vengriya qiroli Bela IV Peshtda turli shaharlardan qo'shin to'plab, 60 ming kishilik askarlar bilan mo'g'ullarga qarshi chiqish uchun shaharni tark etadi. Shunday katta kuch bilan mo'g'ullarga qarshi chiqish arafasida qirolga dushman kayfiyatida bo'lganlarning o'z vazifalarini «sidqidildan» bajarmasliklari oqibatida 1241-yil 11-aprelda (Legnisa jangidan 2 kun o'tgach) vengrlar Shayo yaqinida mag'lubiyatga uchradi. Pesht mo'g'ullar tomonidan egallanib vayron qilindi, aholisi qilichdan o'tkazildi.

Kadan boshliq mo'g'ul qo'shinlari bo'lsa qator janglardan so'ng Varadin, Arat, Pereg, Yegres, Temeshvar, Dyulafexervar kabi punktlarni egalladilar.

1241-yilning aprelida mo'g'ullar qo'shini Slovakiyaga hujum qildi. Ular G'arbiy Slavakiyaga Polsha orqali, Moraviyaga Grozenkovskiy dovonlari orqali kirib kelib, shu yilning dekabrigacha Slovakiyani talon-taroj qildilar. Keyin ular Dunaydan o'tib Botu qo'shinlariga qo'shildi. Sharqiy Chexiya hududlarida qisqa vaqt harbiy yurishlar uyushtirgan mo'g'ullar tezda ortga qaytadi. Chex qiroli Vaslav boshchiligidagi 40 ming kishilik qo'shinga qarshi bormaydi va G'arbga bo'lgan yurishini shu yerda to'xtatadi.

Mo'g'ullarning asosiy zarbasiga uchragan Vengriyada mo'g'ullarga qarshi oddiy xalq jasorat bilan kurashdi. Manbalarda, Chernxazda kurashgan dehqonlar otryadi haqida gap borib, unga Lanka Chiroyli ismli qiz boshliq bo'lganligini, bu otryad mag'lubiyatga uchratilgach u asirga tushishini xohlamay o'zini o'tkir qilich bilan o'ldirganligi aytiladi. Bu vengr xalqining bosqinchilarga qarshi kurashidagi bir misol. Umuman vengrlar yerlarini egallashda mo'g'ullar juda katta talofat ko'rdi. Plano Karpinining qayd etishicha, Guyukxon qarorgohida Vengriyada halok bo'lganlarga atalgan maxsus maqbara (qabriston) bo'lgan. Shu ma'lumotning o'zi ham mo'g'ullarning Yevropaga yurishlari katta yo'qotishlar xisobiga bo'lganligini ko'rsatib turibdi. Mo'g'ullarning Yevropadagi yurishlarining so'nggi nuqtasi Adriatika sohiligacha borib yetdi. U yerda mo'g'ullar Zagrebni, yepiskoplik shaharlari bo'lgan Svach, Drivasto, Katorralarni qo'lga kiritdi. Kadan boshliq mo'g'ullarning oxirgi otryadlari 1242-yil baxoriga kelib orqa yo'nalishga qaytdilar.

Foydalanilgan va tavsiya etiladigan asosiy hamda qo'shimcha adabiyotlar:

1. Matthew B. Encyclopedia of the middle ages. New York 1995.
2. Roberts J.M., Westad O.A. The history of the World. Oxford. 2013.
3. История стран зарубежной Азии в средние века. М., 1970.
4. История стран Азии и Африки в средние века. М., 1987.

Nazorat uchun savollar.

1. XII asr oxiri va XIII asr boshlarida Mo'g'ulistondagi qabilalarni sanab bering?
2. Urug'chilik umnosabatlarining yeimirilishi mo'g'ul jamiyatida qanday kechdi?
3. Temuchinning hayot yo'li haqida ma'lumot bering?
4. Mo'g'ullarning Xorazmshohlar davlatiga yurishi haqida ma'lumot bering?
5. Mo'g'ullarning rus yerlaridagi bosqinchiliklari va uning oqibatlari qanday bo'ldi?
6. Mo'g'ullarning Yevropaga kirib kelishlari va u yerdagi asosiy janglar haqida batafsil ma'lumot bering?